

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI



“VOKAL (XOR) JAMOALARI BILAN ISHLASH USLUBIYOTI”

fanidan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim soxasi: 100 000 – Gumanitar

Ta'lim sohasi: 150 000 – San'at

Ta'lim yo'nalishi: 5810500 – Xalq ijodiyoti (“Vokal jamoalari tashkilotchisi ”)

TOSHKENT – 2015

O‘QUV -USLUBIY MAJMUA

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua “Vokal (xor) jamoalari bilan ishlash uslubiyoti” fani bo‘yicha yaratilgan bo‘lib, unda mazkur fanning namunaviy va ishchi dasturlari, ma’ruzali, amaliy mashg‘ulotlarning mavzulari, fan bo‘yicha glossariy, baholash mezonlari, ta’lim texnologiyalari, o‘quv materiallari, qo‘llanma va darsliklar ro‘yxati hamda majmuaga taalluqli barcha materiallarning elektron shakllari jamlangan.

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Xalq ijodiyoti (turlar bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar:

Q.T.Mirzayev - “Vokal” kafedrası professori

Taqrizchilar: Vasilchenko O.A.- ped.f.n., dotsent

Nosirov R.H. – fil.f.n., professor

MUNDARIJA

1. O‘quv dasturi.....	4.
2. Ishchi dasturi.....	9
3. Ta’lim texnologiyasi.....	27
4. Glossariy.....	30
5. Referat mavzulari.....	31
6. Adabiyotlar ro‘yxati.....	32
7.O‘quv materiallari.....	33
8. Kurs ishlari mavzulari.....	108

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

Ro‘yxatga olindi:	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
№ <u>BD-5151600-3.12</u>	201__ yil “__” ____ – sonli
201__ yil ____	buyrug‘i bilan tasdiqlangan

**BADIIY JAMOALAR BILAN ISHLASH USLUBIYOTI
(VOKAL - XOR JAMOALARI BILAN ISHLASH USLUBIYOTI)
FANINING
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100 000 - Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	150 000 - San’at
Ta’lim yo‘nalishi:	5151600 - Xalq ijodiyoti (vokal jamoalariga rahbarlik)

Toshkent – 201_

Fanning o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengashning 201__ yil “__” dagi “__” – sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan.

Fanning o‘quv dasturi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat insitutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Mirzayev Q.T - O‘zDSMI, «Vokal» kafedrası professorı.

Taqrizchilar:

Vasilchenko O. A - O‘zDSMI, «Vokal» kafedrası dotsenti, p.f.n.

Baxretdinova N – O‘z DK, professorı.

Fanning o‘quv dasturi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat insituti Badiiy-o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201__ yil “__” dagi “__” – sonli bayonnoma).

Kirish

Zamonaviy ta'lim Davlat standartiga asosan vokal-xor jamoalari uchun malakali rahbar tayyorlashda "Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti" fani asosiy mutaxassislik nazariy fanlardan biri hisoblanib bakalavr vokal – xor ijodi boyicha malakali bilimlar haqida tasavvurga ega bo'ladi. Bugungi havaskorlik xor jamoalarida ijodiy jarayonni yo'lga qo'yish uchun uning rahbari nafaqat xor bilan ishlash usullarini bilishi kerak, balki pedagogikani va xonandalar ma'naviy olamini ham yaxshi bilishi va ularni amalda foidalana olishi taqazo etiladi.

Vokal-xor ijodiyoti yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda muhim va ommaviy omillardan biri hisoblanadi. «Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti» fani zamonaviy talablarga javob bera oladigan professional mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. «Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti » shunday fan hisoblanadiki, bunda o'z sohasining kuchli mutahassisini tayyorlash, yosh kadrlarni hozirgi zamon talablariga to'liq javob bera oladigan kadrlarni yetkazib berishni oldiga maqsad qilib qo'yilgan.

Fanning maqsad va vazifalari

Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti fanining maqsadi talabalarga vokal-xor jamoalari bilan ishlash uslubiyotining eng yaxshi namunalariga moslangan bilimlar berish, dunyoqarashlarini kengaytirish, boyitish va olgan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llashdan iboratdir.

Fanning asosiy vazifalari – vokal-xor jamoalarini tashkil qilish, vokal-xor jamoalari bilan ishlash, ularga repertuar tanlash, vokal-xor asari namunalari asosida talabada xor yozuvlarini farqlay olish ko'nikmalarini hosil qilish, jamoa bilan amalda bu ko'nikma va bilimlarni ijodiy qo'llab, havaskor ijrochilarda nozik did, badiiy ijrochilik mahoratini tarbiyalay olishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Vokal - xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr – professional va havaskorlik xor jamoalari, jamoalarda ijrochilik ko'nikmalarining shakli, badiiy jamoalar ish jarayonida ijodiy va tarbiyaviy xususiyatlari, klassik va zamonaviy pedagogik uslublar, sahna madaniyatini egallashning muhim omillari, ijrochilikda janrlar tahlili haqida tasavvurga ega bo'lishi;

Xor va badiiy jamoalarini tashkil etishni, jamoa ishtirokchilari orasida tarbiyaviy ishlarni olib borishni, jamoalarning asosiy turlari, tarkiblarini, badiiy ijodkorlik jamoalari bilan ishlash shakli, usuli va uslubiyotini, namunaviy badiiy jamoalarning ijrochilik uslubini, professional va havaskorlik jamoalarning farqini, jamoalarda ijrochilik ko'nikmalarining shakli, uslubi va uslubiyotini, tashkiliy ishlarni hal etishni, sahna madaniyatini egallashning muhim omillarini, badiiy jamoalar ijrochiligida musiqiy shakl va badiiy talqin uslublarini, ijrochilikda janrlar tahlilini bilishi va ulardan foidalana olishi;

Xor jamoasida ovoz sozlash, xor jamoasida kuylash, jamoada tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, badiiy jamoalar uchun repertuar tanlash, asar mualliflari haqida

ma'lumotlarni izlab, qidirib topish, namuna sifatida fonotekadagi yozuvlardan samarali foydalanish, xor rahbari sifatida jamoani boshqarish, konsert dasturlarini tayyorlash va o'tkazish, havaskorlarni jamoaga jalb eta bilish, jamoa hujjatlarini yuritish, repertuarni boyitish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti fani o'quv rejada 6-8 semestrlarda o'qitilishi mo'ljallangan. Ushbu fan xor sinfi, dirijyorlik, dirijyorlik amaliyoti, xor partiturasini o'qish, vokal, aranjirovka, vokal ansambli fanlari bilan uzviy bog'liqdir.

Fanning ilm fan va san'at sohasidagi o'rni

Uslubiyot fani vokal-xor jamoalari rahbarlarini yetishtirishda juda muhim va mas'uliyatli fan hisoblanadi. Ilm fan va san'at sohasida nazariy va amaliy jihatdan uning o'rni beqiyosdir. Bu fan o'qitilish jarayonida bo'lajak vokal jamoalari raxbarlari o'zbek va jahon xor dirijyorlari ishlash uslubiyotlarini ham nazariy ham amaliy o'rganadi. Bu fanda xor san'atining tuzilishi: ko'rinishlari (bolalar, ayollar, erkaklar, aralash) va ovozlari klassifikatsiyasi (soprano, alt, tenor, bas va x.k.) haqida juda to'liq ma'lumotlar beriladi va o'rgatiladi.

Fanning o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti fanining o'rganish jarayonida o'qitishning quyidagi yangi texnologiyalaridan foydalanish samaralidir: kompyuterda nota terishga mo'ljallangan dasturlardan foydalanilish, chet el va o'zbek kompozitorlari hamda bastakorlarini yangi asarlarni tinglash, asarlarni tahlil etish.

ASOSIY QISM: Fanga kirish

Asosiy qismda fanning mazmuni mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. «Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti» fanida mavzuiy mazmun-mohiyati, asosiy tushunchalar va ish mazmuni ochib berilgan. Bunda talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti malakasi va ko'nikmalari to'la qamrab olingan.

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Badiiy havaskorlik jamoalarining tashkil etilishi tarixi va taraqqiyot jarayoni. Badiiy jamoalarda ijodiy va tarbiyaviy asoslari. Vokal-xor jamoasining asosiy turlari. Badiiy ijodkorlik jamoalari bilan ishlash shakli, usuli va uslubiyoti. Namunaviy badiiy havaskorlik jamoalarining ijodiy yo'li. Professional va havaskorlik jamoalarning hamkorligi. ijrochilik ko'nikmalarining shakli, uslubi va uslubiyoti. Vokal-xor jamoasining ish jarayonida ijodiy va tarbiyaviy xususiyatlari. Klassik va zamonaviy pedagogik uslublar. Vokal-xor jamoasida tashkiliy ishlarni hal etish asoslari. Vokal-xor jamoasini sahnaga chiqishini ta'minlashning muhim omillari. Havaskorlik ijrochiligida musiqiy shakl va lokal ijro uslublari. Vokal-xor jamoasi ijrosining tahlili.

Vokal-xor san'ati ijrochiligining asosiy yo'llari, tarixi, zamonaviy uslublari. Vokal-xor jamoasining maqsad va vazifalari. Vokal-xor rahbari - jamoa tashkilotchisi. Tashkiliy va ijodiy ishlar ustida olib boriladigan tadbirlar. Asarning

o'zlashtirilishi. Xor dasturini shakllantirish usullari. Dirijorlik ishora, aufaktlar, temp, dinamik uslublari ustida mashqlar qilish. Nafas olish yo'llari. Tovush hosil qilish. Vokal va so'z ustida ishlash, mashqlar majmuasi, kontsert va repertuar muammosi. Kichik, o'rta va katta yoshdagi bolalar xorlari bilan ishlash uslubiyoti. Bolalar xor jamoalari, bolalar xorini tashkil qilish va ishlash usullari, xorda nafas olish, ovoz mashqlari, xorga musiqa savodini berish. Kuylashda ikki ovozlikka o'tish. Ovozi xasta bo'lgan o'g'il bolalar bilan alohida ishlash. O'smir yoshlar vokal-xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. O'smirlar ovozini tarbiyalash. Ovoz xususiyatlari, so'z bo'yicha ishlash, nafas olish uslublari. Vokal-xor mashqlari. Ko'p ovozlikka o'tish. Xorda o'quv-tarbiyaviy ish olib borish. Havaskorlik vokal-xor jamoalarini tashkil qilish, aralash xorlar bilan ishlash uslubiyoti. O'zbekiston professional va havaskor vokal-xor jamoalarining faoliyati va taniqli xormeysterlar ijodiy faoliyati bilan tanishish.

Fanning amaliy mashg'ulotlari mazmuni

Bu fanning asosiy amaliy mashg'ulotlar mazmuni talabalarga turli spetsifik xususiyatlarga ega bo'lgan xor jamoalarining ishlash uslubini, o'rgatish hamda ularning amaliy ish jarayonlarini ko'rib, kuzatib borish kerakligini o'rgatadi. Uslubiyot fanida asosan respublikadagi faoliyat ko'rsatib kelayotgan jamoalar: Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi; O'zbekiston davlat akademik xor kapellasi; "Bulbulcha" bolalar ashula va raqs jamoasi; A.Navoiy nomli davlat akademik opera va balet teatri xori hamda jahonda o'z o'rniga ega bo'lgan xor jamoalari repertuari va konsert dasturlarini tinglash orqali amaliy darslar olib boriladi. Talaba amaliy mashg'ulotlarda bolalar, ayollar, erkaklar va aralash xor bilan ishlash uslubini o'rganadi. Ushbu fanning mohiyatini anglatuvchi va mavzular orasidagi bog'liqlikni ifodalovchi amaliy mashg'ulotlarda xor bilan ovoz sozlash mashqlari, asar tanlash, asarni xor jamoasiga o'rgatish, har bir ovoz partiyalari bilan alohida ishlash uslubi, melodik va garmonik ovozlarni farqlash va eshitish ko'nikmalariga erishish kabi prinsplarga asoslanadi.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilgan bo'lib, unda talabaga turli ko'rinishdagi xor jamoalarini tashkil qilish, repertuar tanlash va ularni musiqiy -nazariy va vokal-xor tahlil etish, ovoz sozlash mashqlari, solfedjioli kuylash, tempo-ritm, melodik va garmonik ovoz, dinamik belgilar, orfoepiya, artikulyatsiya, diksiya, sun'iy va tabiiy ansambl ustida ishlash haqidagi mavzular berilgan.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari seminar, amaliy va kurs ishi shakllarida o'tkaziladi va quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi. "Vokal- xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti" fani bo'yicha o'zlashtirilayotgan musiqiy asarlar misolida amaliy topshiriqlar berib boriladi.

Dirijyorlik tarixi va mashhur dirijyor – xormeysterlar ijodiy faoliyati o'g'risida ma'lumotlarni to'ldirib va boyitib boriladi.

Professional xor jamoalar konsert dasturlarini va teatrlarda sahnalashtirilgan musiqiy spektakllarni ko'rish va tahlil qilish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Bolalar xor jamoasini tashkil qilish va ishlash.
2. Kichik yoshdagi o'g'il bolalar xori bilan ishlash.
3. O'rta yoshdagi bolalar xor jamoasi va ishlash uslubiyoti.
4. Katta bolalar xori bilan ishlash.
5. Aralash xor jamoalari bilan ishlash usullari va uslublari.
6. Jahonda tanilgan bolalar xor jamoalari haqida.
7. Xor sozi ustida ishlash. Ansamblni shakllantirish.
8. O'zbekiston Davlat xor kapellasi tarixi va ijodiy faoliyati.
9. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan milly xor jamoasi tarixi va ijodiy faoliyati.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti

Vokal xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti fanini o'qitishda multemedia jihozlaridan foydalanib, mavzular bo'yicha ishlab chiqilgan POWER POINT formatdagi jadvallardan, kompyuter, audio va video jihozlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda Vokal xor jamoalari bilan ishlash uslubiyotini tavsiflovchi tarqatma materiallar, slaydlar hamda ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Bundan tashqari quyidagilar ham qo'llaniladi.

- didaktik materiallar tayyorlash;
- musiqiy-badiiy taxlil metodi;
- internet tarmog'i saytlari;
- taqqoslash-qiyoslash metodi .

“Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti» fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari.

“Mutaxassislikka kiris” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabani nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YAN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YAN**ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YAN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YAN** qayta o'tkaziladi.

Talabani bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabani fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Mutaxassislikka kiris" fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Y.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-40 ball va O.N.-30 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabani saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

- Talabani fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $K = U \cdot O'$ (100), bu yerda: V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi

saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

- **ON** va **YAN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzidor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

• **Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
			1-JN	2-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Seminar mashg'ulotlardagi faolligi, seminar mashg'ulot daftarlarining	10	0-5	0-5
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va	10	0-5	0-5
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	20	0-10	0-10
Jami JN ballari		40	0-20	0-20

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
			1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi.	10	0-5	0-5
2	Talabalarining mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishi va o'zlashtirish.	10	0-5	0-5

3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10	0-5	0-5
Jami ON ballari		30	0-15	0-15

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “Yozma ish” variantlari asosida o‘tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo‘lib fan bo‘yicha yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

№	Ko‘rsatkichlar	YAN ballari	
			O‘zgarish oralig‘i
1	Fan bo‘yicha yakuniy yozma ish nazorati	30	0-30
Jami		30	0-30

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab oladi.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-10 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin.

Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni (2001 y.)
2. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida»gi 2009 yil 9 oktabrdagi O‘RQ-228-son Qonuni

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari

- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyun «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlar to‘hrisida»gi Farmoni. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2005 yil 15 iyun, 114 (3659).

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

4. “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (2010 yil №222)
5. “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori (2011 yil №47)

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

6. I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir. - «O‘zbekiston», 2004.-32 b.
7. I.A.Karimov. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. -T., «O‘zbekiston», 2005.-64 b.
8. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” T. Ma’naviyat 2008-1760 b.
9. I.A.Karimov. “Eng asosiy mezon-xayot xaqiqatni aks ettirish I.A.Karimov Toshkent O‘zbekiston 2009-24 b.
10. I.A.Karimov. “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” T. O‘zbekiston 2009-56 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari meyoriy -huquqiy xujjatlari

11. Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatini yuritish to‘g‘risidagi nizom
12. Nomoddiy madaniy meros obyektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Ye.A.Gudkova. O‘zbek xor adabiyoti . O‘quv qo‘llanma- T.,1975 y.
2. Sh.R.Ro‘ziyev. Xorshunoslik, O‘quv qo‘llanma -Toshkent 1987 y.
3. N.Sharafiyeva. Xorshunoslik ., O‘quv qo‘llanma -Toshkent, 1987 y.
4. Sh.R.Ro‘ziyev. Xavaskorlik xori bilan ishlash metodikasi , O‘qituvchi nashriyoti, O‘quv qo‘llanma- Toshkent 1993 y.
5. Q.T.Mirzayev. Kichik bolalar xori bilan ishlash metodikasi. O‘quv qo‘llanma- Toshkent, 2000 y.
6. N.A.Baxritdinova. O‘zbekiston bolalar xor madaniyati. O‘quv qo‘llanma- Toshkent, 2002 y.
7. A.X.Jabbarov. O‘zbekiston bastakori va musiqashunoslari. O‘quv qo‘llanma- Toshkent 2004 y.
8. N.Sharafiyeva. Xor sinfi. O‘quv qo‘llanma- Musiqqa. 2005 y.
9. Q.T. Mirzayev. Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Darslik- Toshkent. 2008 y.
10. Q.T. Mirzayev. Bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti. O‘quv qo‘llanma- Toshkent . 2010-2011 y.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. B.Pekker. O‘zbek operasi. O‘quv qo‘llanma –Moskva, 1963 y.
2. L.X.Jumayeva, N.A.Baxritdinova. O‘zbek xor adabiyoti. O‘quv qo‘llanma- Toshkent, 1987 y.

Internet saytlari

1. www.artist.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.jazz.ru

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:

№ _____

201_ y. « __ » _____

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

“ __ ” _____ 201_ yil

VOKAL (XOR) JAMOALARI BILAN ISHLASH USLUBIYOTI
FANINING
ISHCHI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100 000	–	Gumanitar coha
Ta’lim sohasi:	150 000	–	San’at
Ta’lim yo‘nalishi:	5151600	–	Xalq ijodiyoti (vokal jamoalariga rahbarlik)

Toshkent – 201_

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Q. T. Mirzayev - O'zDSMI, "Vokal" kafedrası professori.

Taqrizchilar:

Vasilchenko O. A - O'zDSMI, «Vokal» kafedrası dotsenti, p.f.n.

Sh. Yo. Yormatov –O'zbekiston davlat Konservatoriyasi professori.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Vokal" kafedrasining 201__ yil "____" avgustdandagi "____" - son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ Pirmatov SH.T.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Xalq ijodiyoti" fakultet kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2015 yil ____ avgustdagi ____-sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi: _____ Jumayev S.S.

Kelishildi: O'quv bo'limi boshlig'i _____ O'rozov A.N.

Kirish

Vokal jamoalari uchun malakali rahbar – tashkilotchilarni tayyorlashda Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti fani asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Bu fan mutaxassislik fani hisoblanib, vokal – xor ijodida malakali bilim beradi. Bugungi havaskorlik xor jamoalarida ijodiy jarayonni yo‘lga qo‘yish uchun uning rahbari nafaqat xor bilan ishlash usullarini bilishi va tashkilotchi bo‘lishi kerak, balki pedagogikani va xonandalar ma’naviy olamini ham yaxshi bilishi taqazo etiladi.

Vokal-xor ijodiyoti yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda muhim va ommaviy omillardan biri hisoblanadi. «Xor adabiyoti» fani zamonaviy talablarga javob bera oladigan professional mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. «Xor adabiyoti» shunday fan hisoblanadiki, bunda o‘z sohasining kuchli mutahassisini tayyotlash, yosh kadrlarni hozirgi zamon talablariga to‘liq javob beraligan darajaga yetkazish oldiga maqsad qilib qo‘yilgan.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Vokal - xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti fanining maqsadi talabalarga jahon xor adabiyotining eng yaxshi namunalariga moslangan bilimlar berish, dunyoqarashlarini kengaytirish, boyitish va olgan bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llashdan iboratdir.

Fanniig asosiy vazifalari - Xor adabiyotini keng boy merosining mazmunan, g‘oyaviy va badiy jihatdan zamonaviy asar namunalari asosida talabada .Xor adabiyotining asosiy davrlari, kopozitorlarning xor-vokal ijodidan janr va xor yozuvlarini firklay olish qunikmalari, xor va vokal jamoalarga repertuar tanlash, uni qayta ishlab turli xor jamoalari uchun moslashtirish, jamoa bilan amalda bu ko‘nikma va bilimlarni ijodiy qo‘llab, havaskor ijrochilarda nozik did, badiy ijrochilik mahoratini tarbiyalay olishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

Ixtisoslik («Vokal - xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti») o‘kuv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr - xavaskorlik xor jamoalari bilan ishlash nazariya va metodikasini; O‘zbekiston xor san’atining rivojlanishi borasida tarixiy yulini; O‘zbek xalq qo‘shiqlari ijodini; O‘zbekiston kompozitorlarining 1940-50, 1960-80, 1990-2000 yillardagi xor–qushichilik ijodini; xor uchun jo‘rsiz asarlarni; yirik shakldagi kantata, oratoriya janrlarini; o‘zbek kompozitorlari ijodida musiqiy drama va komediya janri tutgan o‘rnini; o‘zbek operasi xakidagi ma’lumotlarni; 16-19 asrlarda G‘arbiy Yevropa mamlakatlari kompozitorlarining xor ijodi haqida xaqida *tasavvurga ega bo‘lishlari*;

Talabalar fan mazmunini o‘zlashtirish jarayonida quyidagilarni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- Yevropa xalqlari qo'shiq-xor ijodini; . G'arbiy Yevropa kompozitorlari ijodida yirik shakldagi janrlarni;. Kompozitor I.Gaydn, V.A.Motsart va L. Betxoven va bsshqalarning xor ijodini, Jo'rsiz akapella xor asarlarini, Rus kompozitorlari P.I.CHaykovskiy va M.P.Musorskiy va bsshqalarning xor ijodiyotini;
 - turli tarkib uchun xor partituralarini taxlil qila olishva ulardagi ovozlarni kuylay olishi;
 - xalq qo'shiqlari va kopmozitorlar xor asarlarini taxlil qila olishi va kuylay olishi;
 - havaskorlik xorlari uchun yozilgan asarlarni ajrata bilish;
 - havaskorlik xorlari uchun vokal xor mashqlarini tuza olish va talabalar guruhi bilan ko'rsatib berish;
 - katta bo'lmagan xor asarini talabalar guruhida ishlay bilish;
 - ijroda asarni badiiy obrazi ifodaliyligiga erishish;
 - turli janr va shakldagi xor asarlarini qiyosiy taxlil qila olish
- ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti fani o'quv rejada 6-8 semestrlarda o'qitilishi mo'ljallangan. Ushbu fan xor sinfi, dirijyorlik, dirijyorlik amaliyoti, partitura o'qish, vokal, jamoa ijrosiga maslashtirish, vokal ansambli fanlari bilan uzviy bog'liqdir.

Fanning o'qitishda zamonaviy axborot pedagogik texnologiyalar

Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti fanining o'rganish jarayonida o'qitishning quyidagi yangi texnologiyalaridan foydalanish samaralidir: kompyuterda nota terishga mo'ljallangan dasturlaridan foydalanilish, chet el va o'zbek kompozitorlari hamda bastakorlarini yangi asarlarni tinglash, asarlarni tahlil etish.

ASOSIY QISM

Xor san'ati ijrochiligining asosiy yo'llari

Havaskorlik xor jamoalarini tashkil qilishi, aralash xorlar bilan ishlash uslubiyoti (vokal, soz ustida ishlash, kontsert va repertuar muammosi), o'smir yoshlar xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti, ovoz xususiyatlari, soz bo'yicha ishlash, nafas olish uslublari, bolalar xor jamoalari (o'rta va katta xorlar bilan ishlashi tug'risida), bolalar xorini tashkil qilish va ishlash usullari (kichik yoshdagi bolalar bilan ishlash uslubiyoti), xorda nafas olish, ovoz mashqlari, xorga musiqa savodini berish, O'zbekiston professional va havaskor vokal-xor jamoalarining faoliyati.

Xor ijrochilik janrlari

Jo'rsiz asarlar janri, yirik (syuita, kantata, oratoriya) shaklidagi xor asarlar janri, xor – qo'shiq janri, opera janri va shu janrlarda yaratgan kompozitorlarning ijodiyoti va yozgan asarlarining mazmuni, taxlili.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Havaskor xori ishini rejalashtirish va tashkil qilish yo'l-yo'riqlari, havaskor xorida ta'lim-tarbiya ishlari, xorda ijodiy va g'oyaviy tarbiya ishlari, xor asarlarini o'zlashtirish, xorda ansamblga erishish, xavaskor xor ijodiyoti, xorda solfedjio saboqlari, radio va televideniye xorini eshitish, o'zbek davlat akademik xor kapellasini eshitish, bolalar "Bulbulcha" xorini eshitish, urush va mehnat faxriylari xalq xorini eshitish, havaskor xor jamoalarida repertuar tanlash va asar o'rganish usullari, havaskor xorda ma'naviy-ma'rifiy ishlar, xor rahbarining dirijyorlik ijodiyoti, xor rahbarining tashkilotchilik vazifalari, yosh dirijyorga maslaxatlar.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari seminar, amaliy va referat ishi shakllarida o'tkaziladi quyidagi amamaqsadlarga xizmat qilishini lozim "Vokal xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti" fani bo'yicha o'zlashtirilayotgan musiqiy asarlar misolida amaliy topshiriqlar berib borish.

Dirijor tarixi va mashhur dirijor – xormeyster ijodiy faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni to'ldirib va boyitib birish.

Professional xor jamoalarning konsert dasturlarni va teatrlarda kuylgan musiqa spektakllarga borib eshitish.

Mustaqil ishlar mazmuni:

1. Har dirijorlik qilayotgan asarning haqida ma'lumot to'plash: kompozitor, shoir haqida ijodiyot yollari, asarning mazmuni bilan tanishish.
2. Asarning haqida musiqa – nazariy tahlil qilish.
3. Asarning haqida vokal – xor tahlil qilish.
4. Xor partituralarni fortepianoda chalib, xorning ovoz ijrosiga mos keltirish.
5. Asarlada xor partiturasida har bir ovozni ijro etish vokal uslublarni tahlil qilib, yaxshi ijro etish.
6. Dirijorlik qilayotgan asarlarda har xil texnik malakalarni oshirish ustida mashqlar qilish.

7. Dirijorlik ishora, auftaklar, temp, dinamik uslublari ustida mashqlar qilish
Bo'lajak rahbar – xormeyster o'z soxasiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlardan xabardor bo'lib, soxaga oid materiallar bilan tanishib borishi, zamonaviy kompozitorlar asarlariga ko'proq murojat etib, o'z repertuarini boyitib borishi, xor jamoalar va vokal guruxlar bilan yaqindan tanishishi, buning uchun bo'lajak mutaxassis jonli kontsertlarga borishidan tortib zamonaviy video va audeo yozuvlarni, videomagnitofon, audiomagnitofon, kompyuter va boshqalardan foydalana bilishi.

Havaskorlik xorlari bilan ishlash uslubiyoti

Faning ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarning soatlar bo'yicha taqsimot jadvali.

Kurs	Semestr	Ma'ruza	Amaliy	Mustaqil
III	5	10	8	6
	6	-	18	6
IV	7	10	8	20
	8	-	20	6
		20	54	38

№	Mavzular nomi	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot soati	Mustaqil ta'lim soati
1	Havaskorlik xor jamoalarini tashkil qilish	2	-	4
2	Havaskor xor jamoalarining ashulla bayramlaridagi muhim roli.		1	
3	Havaskor xor jamoalarini tashkil etish		1	
4	Havaskorlik xor ijodiyotining tashkiliy omillari.		2	
5	Xor rahbari- jamoa tashkilotchisi		2	
6	Bolalar xorini tashkil qilish va ishlash uslublari (kichik yoshdagi bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti)	2		4
7	Bolalar xor jamoasini tashkil etish xususiyatlari.		1	
8	Bolalar ovozining yosh xususiyatlari.		1	
9	Kichkintoylar xoriga qabul qilish shart-sharoitlari		1	
10	Bolalarda xonandalik malakalarini shakllantirish.		1	
11	O'rta va katta yoshdagi bolalar xor jamoalari.	2		4
12	O'rta va katta yoshdagi bolalar ovozi rivoji xususiyatlari		1	
13	O'rta va katta yoshdagi bolalar xori bilan ishlash metodlari		1	
14	O'rta va katta yoshdagi bolalar xorida repertuarning badiiy- tarbiyaviy masalalari.		1	

15	O'rta va katta yoshdagi bolalar xorida musiqa savodi masalalari.		1	
16	O'smir yoshdagi bolalar xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti (ovoz xususiyatlari, soz bo'yicha ishlash, nafas olish uslublari va boshqalar)	2		4
17	O'smirlar ovozini tarbiyalash va rivojlantirish		1	
18	Mutasiyaning uch davri.		1	
19	O'smirlar jamoasida olib boriladigan kuylash mashqlari.		1	
20	Vokal- xor malakalari ustida ishlash.		1	
21	Xorda nafas va ovoz mashqlari	2		4
22	Xorda nafas turlari.		1	
23	Ovoz mashqlari turlari.		1	
24	Xor sozi ustida ishlash.		2	
25	Ansambl tuyg'ularini shakllantirish		2	
26	Aralash xorlar bilan ishlash uslubiyoti. (ayollar va erkaklar xori)	2		4
27	Aralash xor va unda ovoz partiyalarining joylashuvi		1	
28	Aralash xor bilan ishlashning o'ziga xos xususiyati.		1	
29	Aralash xorda vokal-xor malakalarini rivojlantirish.		1	
30	Aralash xorga repertuar tanlash masalalari		1	
31	Aralash xorlar bilan ishlash uslubiyoti	2		4
32	Xor sozi ustida ishlash		1	
33	Vokal ansambli ustida ishlash metodlari		1	
34	Konsert faoliyatini tashkil etish		2	
35	Xor repertuari muammosi		1	
36	Xorga musiqa savodxonligini rivojlantirish metodlari	2		4
37	Notaga qarab kuylashning boshlang'ich malakalariga o'rgatish		2	
38	Metr va ritm tuyg'usini o'stirish		1	
39	Musiqa tarixi bo'yicha ma'lumotlar.		2	
40	Musiqiy nazariy bilimlarni o'stirish		1	
41	Xorni joylashtirish va xorda ovozlarni bo'lish	2		3
42	Ayollar xorini joylashtirish		2	
43	Erkaklar xorini joylashtirish		2	
44	Bolalar xorini joylashtirish		2	
45	Ovozlar ayirmalari		1	

46	O‘zbekistondagi professional va havaskor vokal-xor jamoalarining faoliyati	2		3
47	O‘zDavXor kapellasi faoliyati		2	
48	“Xizmat ko‘rsatgan xor jamoasi” faoliyati		2	
49	DAKT xori		2	
50	“Temiryo‘l faxriylari xori”, havaskorlik bolalar xorlari		2	
	Jami:	20	54	38
Hammasi 112 soat				

Fan bo‘yicha ma’ruza mavzulari mazmuni.

1-mavzu. Havaskorlik xor jamoalarini tashkil qilish. (2 soat)

Reja:

1. Havaskorlik xor musiqa san’atining ommabop turi sifatida jamiyatimiz ma’naviyati va madaniyatini o‘stirishga qo‘shgan hissi.
2. Havaskorlik xor ishini rejalashtirish va tashkil qilish uslublari.
3. Havaskor xorida ta’lim-tarbiya.
4. Havaskorlik xor ijodiyotining tashkiliy omillari.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Ro‘ziyev SH «Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti» T. «Yozuvchi» 1993.
2. Shamina D. “Rabota s samodeyatelnimi xorovimi kollektivami” Izd. «Muzika” M.1985

2-mavzu. Bolalar xorini tashkil qilish va ishlash uslublari (kichik yoshdagi bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti) (2 soat)

Reja:

1. Bolalar xor jamoasini tashkil etish xususiyatlari.
2. Bolalar ovozing yosh xususiyatlari.
3. Kichikintoylar xoriga qabul qilish shart-sharoitlari.
4. Bolalarda xonandalik malakalarini shakllantirish

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Mirzayev Q.T, M.M.To‘rayeva «Kichik bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti». Toshkent, 2000y.
2. Baxritdinova. N.A «O‘zbekiston bolalar xor madaniyati» Toshkent, 2002

3-mavzu. Bolalar xor jamoalari (o‘rta va katta yoshdagi bolalar xori) (2 soat)

Reja:

1. O‘rta va katta yoshdagi bolalar xor guruhlar bilan ishlash.
2. Bir turdagi xor.

3. Aralash xor.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Mirzayev Q.T, To'rayeva M.M. «Kichik bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti». Toshkent, 2000y.
2. Baxritdinova N.A «O'zbekiston bolalar xor madaniyati» Toshkent, 2002

4-mavzu. O'smir yoshdagi bolalar xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti (ovoz xususiyatlari, soz bo'yicha ishlash, nafas olish uslublari va boshqalar) (2 soat)

Reja:

1. Ovoz xususiyatlari
2. Soz bo'yicha ishlash
3. Nafas olish ustida ishlash

SH. Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Ro'ziyev R. «Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti», "Yozuvchi" nashriyoti, Toshkent 1993 yil
2. Sharafiyeva N «Xorshunoslik». G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1987yil

5-mavzu. Xorda nafas olish, ovoz mashqlari. (2 soat)

Reja:

1. To'g'ri nafas olish vokal-xor texnikasining eng muhim elementlaridan biridir.
2. To'g'ri nafas olishning uch turga ko'rinishi.
3. Ovoz sozlash mashqlari.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Ro'ziyev SH.R. «Xorshunoslik» G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1987 yil.
2. Ro'ziyev SH.R. «Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti», "Yozuvchi" nashriyoti, Toshkent 1993 yil

6-mavzu. Aralash xorlar bilan ishlash uslubiyoti (ayollar va erkaklar xori) (2 soat)

Reja:

1. Xor turlari, ularning ko'rinishi va tarkibi
2. Yaxlit (bir jinsli) va aralash xorlar.
3. Erkaklar xori
4. Xorlar tarkibi

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Ro'ziyev SH. «Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti», "Yozuvchi" nashriyoti, T., 1993 yil

2..Ro‘ziyev SH.R. «Xorshunoslik» G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, T., 1987 yil.

7. Shamina D. “Rabota s samodeyatelnimi xorovimi kollektivami” Izd. “Muzika” M.1985

7-mavzu. Aralash xorlar bilan ishlash uslubiyoti (vokal sozi ustida ishlash, kontsert faoiyati va xor repertuari muammosi) (2 soat)

Reja:

1. Vokal-xor tarbiyasi
2. Soz ustida ishlash
3. Kontsert va repertuar muammosi

R.Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Ro‘ziyev. «Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti», “Yozuvchi” nashriyoti, T.,1993 yil
- 6..Sharafiyeva N «Xorshunoslik» .Toshkent, 1987yil

8-mavzu. Xorga musiqa savodxonligini rivojlantirish metodlari (2 soat)

Reja:

1. Havaskorlik xorlarida musiqa-o‘quv sabog‘i.
2. Badiiy –estetik tarbiya berish ishlari.
3. Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodlari.
- 4.Notaga qarab kuylash malakalarini o‘stirish.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

- 1.Ro‘ziyev SH. “Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti”, T.,1993 yil
- 2.Ro‘ziyev SH.. “Xorshunoslik” T.,1987 yil.

9-mavzu. Xorni joylashtirish va xorda ovozlarni bo‘lish (2 soat)

Reja:

1. Ayollar xorini joylashtirish
2. Erkaklar xorini joylashtirish
3. Aralash xorini joylashtirish
4. Xordagi partiyalarni son jihatidan ovozlarga bo‘linishi

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

- 1.Mirzayev Q.T Bolalar xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. T., 2009
- 2.Mirzayev Q.T. Aralash xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. T., 2009

10-mavzu. O‘zbekistondagi professional va havaskor vokal-xor jamoalarining faoliyati (2 soat)

Reja:

- 1.O‘zbek Davlat kapella haqida ma’lumot.

2. O'zbekteleradiokompaniya nomidagi o'zbek xalq xor jamoasining ijodiy faoliyati haqida.
3. Havaskor xor jamoalarning faoliyati.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. "История вокального и хорового исполнительства в Ўзбекистане" (сб-к статей) Изд. "Литература и искусство" им. Г.Гуляма 1991.
2. Бахритдинова Н.А "Ўзбекистон болалар хор маданияти" Тошкент, 2002

Amaliy mashg'ulotlarining namunaviy mavzulari.

1-mavzu. Havaskorlik xor jamoalarini tashkil qilish (6 s.)

1- mashg'ulot.

1. Havaskor xor jamoalarining ashulla bayramlaridagi muhim roli.
2. Havaskor xorida ta'lim – tarbiya va ijodiy ishlar

2- mashg'ulot.

1. Havaskorlik xor ijodiyotining tashkiliy omillari:

- a) hududiy yondoshuv;
- b) yosh va jinsi bo'yicha;
- v) til bo'yicha;
- g) sosial guruhlar bo'yicha

3- mashg'ulot

- 1 Havaskor xor jamoalarini tashkil etish rejasini tuzish.

4 -mashg'ulot

Xor rahbari- jamoa tashkilotchisi.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Ro'ziyev SH. «Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti» T. «Yozuvchi» 1993.
2. Шамина. Д "Работа с самодеятельными хоровыми коллективами" Изд. «Музыка» М.1985

2- mavzu. Bolalar xorini tashkil qilish va ishlash uslublari(4 s)

1- mashg'ulot. Kichik yoshdagi bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti.

2- mashg'ulot. Kichik yoshdagi bolalar ovoz rivoji xususiyati masalalari.

3-mashg'ulot "Bulbulcha" xorining– kichik yoshdagi xor guruhining faoliyati haqida va guruh rahbari S. Olimovaning metodik ishi tahlili.

4 - mashg'ulot Reprtuarni rejalashtirish muammolari.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Mirzayev K.T., M.M.To'rayeva. «Kichik bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti». Toshkent, 2000 y.
2. Baxritdinova N.A «O'zbekiston bolalar xor madaniyati» Toshkent, 2002

3-mavzu. O'rta va katta yoshdagi bolalar xorlari bilan ishlash uslubiyoti(4 s)

- 1- mashg'ulot. o'rta va katta yoshdagi bolalar ovozi rivoji xususiyatlari.
- 2- mashg'ulot. o'rta va katta yoshdagi bolalar xori bilan ishlash metodlari.
- 3- mashg'ulot. o'rta va katta yoshdagi bolalar xorida repertuarining badiiy- tarbiyaviy masalalari.
- 4- mashg'ulot. o'rta va katta yoshdagi bolalar xorida musiqa savodi masalalari.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Mirzayev, Q.T.M.M.To'rayeva "Kichik bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti" Toshkent, 2000y.
- 2.Baxritdinova N.A "O'zbekiston bolalar xor madaniyati" Toshkent, 2002

4-mavzu. O'smir yoshdagi bolalar xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti" (4 s)

- 1- mashg'ulot .O'smirlar ovozini tarbiyalash va rivojlantirish.
- 2- mashg'ulo. Mutasiyaning uch davri.
- 3- mashg'ulot. O'smirlar jamoasida olib boriladigan kuylash mashqlari.
- 4- mashg'ulot . Vokal- xor malakalari ustida ishlash.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

- 1.Ro'ziyev SH. "Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti" T., 1993 yil
2. H.Шарафиева "Хоршунослик" Тошкент, 1987йил

5-mavzu. Xorda nafas olish va ovoz mashqlari(6 s)

- 1- mashg'ulot Xorda nafas turlari.
- 2- mashg'ulot Ovoz mashqlari turlari.
- 3- mashg'ulot Xor sozi ustida ishlash.
- 4- mashg'ulot Ansambl tuyg'ularini shakllantirish.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

- 1.Ro'ziyev SH. "Xorshunoslik" T., 1987 yil.
- 2.Ro'ziyev SH. "Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti", T., 1993 yil

6-mavzu. Aralash xorlar bilan ishlash uslubiyoti(4 s)

- 1- mashg'ulot. Aralash xor va unda ovoz partiyalarining joylashuvi .
- 2- mashg'ulot. Aralash xor bilan ishlashning o'ziga xos xususiyati.
- 3- mashg'ulot. Aralash xorda vokal-xor malakalarini rivojlantirish.
- 4- mashg'ulot. Aralash xorga repertuar tanlash masalalari.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Ro‘ziyev SH. “Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti”, T., 1993 yil
2. Рўзиев Ш. “Хоршунослик” Т., 1987 йил.
3. Д.Шамина “Работа с самодеятельными хоровыми коллективами”Изд. «Музыка” М.1985

7-mavzu. Aralash xor bilan ishlash uslublari(5 s)

- 1- mashg‘ulot. Xor sozi ustida ishlash.
- 2- mashg‘ulot. Vokal ansambli ustida ishlash metodlari.
- 3- mashg‘ulot. Konsert faoliyatini tashkil etish.
- 4- mashg‘ulot. Xor repertuari muammosi.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Ro‘ziyev SH. “Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti”, T., 1993 yil
2. N.Sharafiyeva “Xorshunoslik” Toshkent, 1987yil

8-mavzu. Xorga musiqa savodxonligini rivojlantirish metodlari(7 s)

- 1- mashg‘ulot. Notaga qarab kuylashning boshlang‘ich malakalariga o‘rgatish.
- 2- mashg‘ulot. Metr va ritm tuyg‘usini o‘stirish.
- 3- mashg‘ulot. Musiqa tarixi bo‘yicha ma’lumotlar.
- 4- mashg‘ulot. Musiqiy nazariy bilimlarni o‘stirish.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Ro‘ziyev SH. “Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti”, T., 1993 yil
2. Ro‘ziyev SH. “Xorshunoslik” T., 1987 yil.

9-mavzu. Xorni joylashtirish va xorda ovozlarni bo‘lish (7 soat)

- 1- mashg‘ulot. Ayollar xorini joylashtirish.
- 2- mashg‘ulot. Erkaklar xorini joylashtirish.
- 3- mashg‘ulot. Bolalar xorini joylashtirish.
- 4- mashg‘ulot. Ovozlar ayirmalari.

10-mavzu. O‘zbek professional va havaskor vokal–xor jamoalarining faoliyati (8s)

- 1- mashg‘ulot. O‘zDavXor kapellasi faoliyati bilan tanishuv.
- 2- mashg‘ulot. Xizmat ko‘rsatgan xor jamoasi bilan tanishuv.
- 3- mashg‘ulot. DAKT xori bilan tanishuv.

4- mashg'ulot. Havaskor xor jamoalar faoliyati :“Temiryo‘lchi voxriylar xori,“Bulbulcha” xorining kichkina xor guruhining faoliyati haqida va S.Olimova rahbarlik qilayotgan guruhining metodik faoliyati va uslubi.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. “История вокального и хорового исполнительства в Ўзбекистане” (сб-к статей) Изд. “Литература и искусство” им. Г.Гуляма 1991.
- 2..Baxritdinova N.A «O‘zbekiston bolalar xor madaniyati» Toshkent, 2002

Mustaqil ta’lim uchun tavsiyalar

Talaba ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda olgan tasavvur va bilimlarini mustahkamlash uchun o‘z ustida muntazam ish olib borishi lozim. Buning uchun o‘tilgan mavzular bo‘yicha darslik va adabiyotlarga murojaat qilib, ularni mustaqil o‘rganadi, rejalar bo‘yicha qisqa konspekt tayyorlaydi. Amaliy mashg’ulotga tayyorlanish jarayonida xor asarlari namunalari bilan tanishadi va ularni qisqacha musiqiy-ijroviy tahlili ustida ishlaydi. Uslubiyotdan turli yoshdagi xor jamoalari uchun namunaviy tashkiliy,vokal va repertuar ish rejalarini tuzadi. Vokal mashqlar va qo‘shiq materialarini tanlab, talabalar guruhi bilan ish fragmentlarini o‘tkazadi. Buning uchun taniqli havaskor bolalar, kattalar xor jamoalari, folklor vokal ansambllarining repertuarini yaqindan o‘rganishi va unga tahliliy yondoshuvi yaxshi natijalar beradi. Bunda talaba o‘zida nafaqat repertuar, balki qo‘shiqchilik malakalari mashqlari bazasani ham hosil qiladi. Toshkent shahridagi professional xor jamoalari faoliyati bilan joylarda borib tanishuv, ularning ijodiy ishlarini qiysiy tahlil qilish, repertuarlarini o‘rganish talabaning mustaqil ta’limiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

“Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezon.

“Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg’ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg’ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;
- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va

baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YAN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YAN**ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YAN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YAN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti" fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Y.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-40 ball va O.N.-30 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.
- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.
- Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $K = U \cdot O'$ (100), bu yerda: V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' - fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).
- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.
- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan

talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.
- **ON** va **YAN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.
- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.
- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.
- Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.
- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

• **Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		maks	1-JN	2-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Seminar mashg'ulotlardagi faolligi, seminar mashg'ulot daftarlarining	10	0-5	0-5
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi	10	0-5	0-5
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	20	0-10	0-10
Jami JN ballari		40	0-20	0-20

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		maks	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi.	10	0-5	0-5
2	Talabalarining mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishi va o'zlashtirish.	10	0-5	0-5
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10	0-5	0-5

Jami ON ballari	30	0-15	0-15
------------------------	-----------	-------------	-------------

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “Yozma ish” variantlari asosida o‘tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo‘lib fan bo‘yicha yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

№	Ko‘rsatkichlar	YAN ballari	
		maks	O‘zgarish oralig‘i
1	Fan bo‘yicha yakuniy yozma ish nazorati	30	0-30
	Jami	30	0-30

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab oladi.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-10 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin.

Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni (2001 y.)
2. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida»gi 2009 yil 9 oktabrdagi O‘RQ-228-son Qonuni

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari

- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyun «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlar to‘hrisida»gi Farmoni. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2005 yil 15 iyun, 114 (3659).

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

4. “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (2010 yil №222)
5. “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori (2011 yil №47)

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

6. I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir. - «O‘zbekiston», 2004.-32 b.
7. I.A.Karimov. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. -T., «O‘zbekiston», 2005.-64 b.
8. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” T. Ma’naviyat 2008-1760 b.
9. I.A.Karimov. “Eng asosiy mezon-xayot xaqiqatni aks ettirish I.A.Karimov Toshkent O‘zbekiston 2009-24 b.
10. I.A.Karimov. “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” T. O‘zbekiston 2009-56 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari meyoriy -huquqiy xujjatlari

11. Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatini yuritish to‘g‘risidagi nizom
12. Nomoddiy madaniy meros obyektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom

Adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Gudkova. A. “O‘zbek xor adabiyoti”, ” O‘qituvchi”, T., 1975 yil.
2. Jumayeva L., Baxriddinova N. “O‘zbek xor musiqasi” . T,1987 yil.
3. «O‘zbek musiqasi tarixi» 1,2 qismlar «San’at va adabiyot» nashri 1qism, 1972 yil 2 qism 1973 yil.
- 4.Pekker B. «O‘zbek operasi» M., 1963 yil.
5. Ro‘ziyev SH. “Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti”, T., 1993 yil
6. Ro‘ziyev SH. “Xorshunoslik” T., 1987 yil.
7. D.Shamina “Rabota s samodeyatelnimi xorovimi kollektivami”Izd. «Muzika” M.1985

3 Ta’lim texnologiyasi

“Vokal (xor) jamoalari bilan ishlash uslubiyoti” fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

Fakultet, kafedra, o‘qitish bosqichi	O‘quv predmeti	O‘quv mashg‘uloti mavzusining o‘quv dasturidagi o‘rni
Sana: _____	O‘quv guruhi – “Vjr” Talabalar soni - _____ ta	O‘qituvchi:

Mavzuning nomi	“Bolalar xorini tashkil qilish va ishlash uslublari (kichik yoshdagi bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti)”
Mashg’ulot rejasi	1.Bolalar xor jamoasini tashkil etish xususiyatlari. 2.Bolalar ovozinig yosh xususiyatlari. 3.Kichkintoylar xoriga qabul qilish shart-sharoitlari. 4.Bolalarda xonandalik malakalarini shakllantirish
Asosiy atama va tushunchalar	Bolalar ovozi, falset, ovoz va eshituv orasidagi koordinatsiya, ovoz paylari
Adabiyotlar ro‘yxati	1..Mirzayev Q.T, M.M.To‘rayeva «Kichik bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti». Toshkent, 2000y. 2. Baxritdinova. N.A «O‘zbekiston bolalar xor madaniyati» Toshkent, 2002
O‘quv mashg’ulotining maqsadi	Talabalarda bolalar ovozi rivojining o‘ziga xos xususiyatlari, kuylash imkoniyatlari haqida tasavvur hosil qilish.
O‘qituvchi oldidagi vazifa	Bolalar xor jamoasini tashkil etish xususiyatlarini ko‘rsatib berish. Bolalar ovozinig yosh xususiyatlari haqida ma’lumot berish. Bolalar xoriga qabul qilishning shart sharoitlarini yoritib berish.Bolalarda kuylash malakalarini hosil qilish metodlari haqida tushuncha hosil qilish.
O‘quv faoliyatining natijalari	• bolalar ovoz apparati tuzilishi haqida tushuncha oladi; • bolalar xor jamoalarini tashkil etish xususiyatlarini biladi; • Bolalar xoriga qabul qilishning shart sharoitlarini tushuntirib o‘tadi; • Kuylash malakalari namunalarni biladi; • Kuylash malakalarini hosil qilish metodlariga tavsif beradi.
O‘qitish metodlari va texnikalari	Muammoli ma’ruza, interaktiv, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash.
O‘qitish vositalari	Tarqatma materiallar, alohida asarlar notalari, slaydlar, xrestomatiyalar, DVD yozuvlari.
O‘qitish sharoiti	Maxsus moslashtirilgan auditoriya

“Bolalar xorini tashkil qilish va ishlash uslublari (kichik yoshdagi bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti)” mavzusidagi amaliy ma’ruzali mashg’ulotning texnologik xaritasi

O'qitish bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
I. Tayyorlov bosqichi (10 daqiqa)	1.1 Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak natijalarini eshittiradi. 1.2 Mashg'ulotni o'tkazish shakli bilan tanishtiradi. 1.3 Baholash mezonlarini va adabiyotlar ro'yxatini e'lon qiladi. 1.4 Asosiy tayanch iboralarni o'qib, yozdiradi va ularni ma'lum ketma-ketlikda joylashtirishlarini so'raydi. 1.5 Har bir talabaga tarqatma(notalar) material tarqatadi.	Eshitadilar. Eshitadilar, yozadilar, ma'lum ketma-ketlikda joylashtiradilar.
II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1. Aqliy xujum metodi yordamida talabalarni faolashtiradi. 2.2. Fikrlarni umumlashtirib, Bolalar xor jamoasini tashkil etish xususiyatlarini ko'rsatib eslatadi; 2.3. Tarqatilgan materiallarga diqqatlarini jalb qiladi. Interaktiv texnikasi yordamida materiallar bilan tanishishni taklif qiladi. 2.4. Bajirilgan ishlarni qisqacha tahlil qiladi. 2.5. Slaydlar yordamida bolalar xor jamoalarini tashkil etish xususiyatlarini tushuntiradi. 2.6. Olingan bilimlarni yanada mustahkamlash maqsadida talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi. Har bir guruhlariga savollar beriladi. 2.7. Guruhlar bajargan ishlarni tahlil qilish va baholash.	Fikrlarini bildiradilar Berilgan vazifani bajaradilar. Eshitadilar, zarur joylarini yozib oladilar. Eshitadilar
III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi. 3.2. Guruhlar va ayrim talabalar bahosini e'lon qiladi. 3.3. Uyga vazifa beradi.	Eshitadilar, yozib oladilar.

4. Nazorat uchun savollar (J.N., O.N., Y.N.)

1. Vokal-xor jamoasining maqsad va vazifalari qanday?
2. Vokal-xor jamoasi rahbari qanday qobiliyat egasi bo'lmog'i lozim?

3. Rahbar vokal-xor jamoasini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Rahbar jamoaga o'rgatilishi lozim bo'lgan asarni qaysi jihatlariga ahamiyat berib o'rganib chiqishi talab etiladi?
5. Xor dasturi (repertuari)ni shakllantirishning muhim omillari.
6. Nafas olish yollari va to'g'ri nafas olish usuli qanday?
7. Bolalar vokal-xor jamoasini tashkil qilishdagi qiyinchiliklar va uni qanday bartaraf etish mumkin?
8. Bolalar ovozining yosh xususiyatiga qarab jamoada o'rnini aniqlash?
9. Kichkintoylar xorining tashkiliy masalalari haqida nimalarni bilasiz?
10. Xonandalik ko'nikmalarini rivojlantirishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlarini ayting?
11. Bolalarda ovoz hosil qilish yollari nimalardan iborat?
12. Kichkintoylar xorida qanday ovoz sozlash mashqlaridan foydalaniladi?
13. Qanday intervallarni bilasiz?
14. Bolalar xorida ansamblga erishish va ikki ovozlikka o'tish yol yoriqlari qanday ahamiyatga ega?
15. Xor jamoasida musiqa savodi qanday o'rin tutadi?
16. O'rta yoshdagi bolalar xor jamoasini tashkil etish uslubi nimalardan iborat?
17. Bolalar xorini joylashtirishda nimalarga ahamiyat qaratish lozim?
18. O'smirlar ovozini rivojlantirishdagi asosiy omillar nimalardan iborat?
19. O'smirlar xor jamoasida qanday ovoz sozlash mashqlaridan foydalanish mumkin?
20. Xor sozi ustida ishlash va xorda ansamblga erishishdan maqsad nima?
21. Talaffuzni shakllantirish, ovoz xususiyatlarini aniqlash va registrarni tekislashda nimalarga ahamiyat beriladi?
22. Diksiya nima?
23. Vokal-xor jamoasida qo'shiq o'rgatishda nimalarga e'tibor beriladi?
24. Ko'povozlikka o'tish, xorga ton berish va xor turlari deganda nimani tushunasiz?

5. Glossariy

A kapella - cholg'u asboblari jo'rligisiz xor bo'lib kuylash

Akkompaniment - musiqiy asarga cholg'u jo'rliqi

Annotatsiya - musiqiy asar mazmunining muхtasar bayoni; asarning to'liq nomi, muallilifi haqidagi qisqacha ma'lumot, asrning musiqiy –nazariy, ijroviy tahlili.

Auftakt - qo'l bilan ishora qilmoq, birlamchi ogohlantiruvchi qo'l ko'tarish harakati.

Ayollar xori - ayollar ovozlari: soprano, mezzo-soprano, kontraltodan tarkib topgan xor.

Aralash xor - turli jinsli (erkaklar va ayollar yoki bolalar) ovozlarning qo'shilishidan tarkib topgan xor jamoasi - odatda soprano, alt, tenor va baslardan iborat.

Diksiya - kuylashda adabiy matnni to'g'ri (savodli va aniq) talaffuz qilish malakasi.

Dirijer - musiqa asarining jamoaviy ijrosiga (orkestr, xor, ansambl) rahbarlik qiluvchi san'atkor.

Dirijerlik - musiqa ijrochilari jamoasi orkestr, xor. ansamblni boshqarish san'ati; maxsus shaxs- dirijer tomonidan amalga oshiriladi.

Dirijerlik setkasi - taktning metrik tuzilishini dirijerlik qo'l harakati orqali ko'rsatiladigan sxema (tutashtirilgan kompleks).

Diapazon- hamma ovoz, soz yoki jamoa, xususan, xorning eng pastidan –eng balandigacha bo'lgan tovushlari hajmi.

Divizi(ayitma) - xor partiyalarining ikki va undan ortiq ovozlarga vaqtinchalik bo'linishi.

Dinamika - tovushlarning sadolanish kuchi bilan bog'liq bo'lgan jarayon majmui. Musiqaning eng muhim ifoda vositalaridan biri. Dinamik tuslar – forte, piano, krescendo, diminuendo va boshkalar.

Janr - o'ziga xos xususiyatlar majmui bilan belgilanadigan musiqa asarlari turlari.

Jo'r ovoz - ko'p ovozli qo'shiq asosiy ohangining turi, boshqa ovozlardan bilan polifonik munosabatda bo'lishi mumkin.

Intonatsiya - musiqa ijrosida tovush balandligini aniq ifoda etish.

Interval - ikki musiqa tovushi orasidagi balandlik oralig'i, o'zaro bog'lanishi.

Kanon - kuyning barcha ovozlardagi aniq takrorida qat'iy taklidga (imitatsiya) asoslangan polifonik musiqa shakli.

Kapella - xor jamoasi.

Kuy- melodiya – musiqaning asosiy ifoda vositasi.

Tessitura - xonanda ovozining diapazoniga nisbatan kuy tovushlarining balandlik holati.

Ton berish– dirijer tomonidan ijro etiladigan jo'rsiz asarining tonaligiga xorni sozlash uchun bir yoki bir necha tovushlarni past ovozda daslabki kuylanishi.

Nafas belgisi – (vergul, yoki “V” belgisi) - barcha vokal asarlar nota yozuvida (xor partitura, partiya)da nafas almashuvi belgisi.

Nafas - kuylash jarayonining muhim qismi, ovoz hosil qilishning asosiy omillaridan, ovozning quvvat manbai.

Partitura - xor, ansambl yoki orkestrga mo'ljallangan musiqa asarining to'liq nota yozuvi .

Repertuar - o'rganiladigan asarlar majmui.

Repetitsiya - mashg'ulot, tayorgarlik, konsert programmasi yoki spektaklni tayyorlashda dirijerning ijrochilar bilan o'tkazadigan tayyorlov mashg'ulotlar.

Ritm(usul) – tovushlarning uzun-qisqaliklari va urg'ularning almashib kelishiga asoslangan musiqiy tushuncha, har bir musiqa asari o'z ritmiga ega bo'ladi.

Solfedjiolash- notalar nomini aytib kuylash; xorda keng qo'llanadi. Xor partiyalarini o'rganish ko'pincha solfedjio bilan boshlanadi.

Tessitura – har qanday cholg'u yoki xonanda ovozining diapazoniga nisbatan kuy tovushlarining balandlik holati.

Frazirovka - musiqiy asar ijrosida ma'noli etib ko'rsatish ifodasi.

Fermata – tovush, ma'lum akkord yoki pauzani cho'zish belgisi.

Xor – ayrim ibora, jummalarni aniq va vokal asarlarni cholg'ular jo'rligida yoki jo'rsiz (a kapella) ijro etadigan xonandalar jamoasi.

Xor partiyasi- diapazoni deyarli bir xil va tembri bir- biriga yaqin ovozlarga ega bo'lgan xor xonandalari guruxi.

Shtrix –torli asboblarda tovush chikarish xor ijrochiligi va dirijyorlikda ham ko‘llaniladi. Asosiy usullari legato, stakkato, non legato, markatto va boshkalar.

Qo‘shiq – vokal musiqaning keng tarqalgan janri unda musiqiy - she‘riy mazmun uyg‘unlashadi.

Erkaklar xori- erkaklar ovozi tenor, bariton va baslardan iborat bo‘lgan xor

6. Referat mavzulari

1. S.Yudakovning yirik shakldagi asarlari – kantata, syuita, oratoriY.
2. 1990 -2010 yillarda musiqali drama va komediya janrida yaratilgan asarlar
3. M.Ashrafiy, Ik. Akbarovning yirik shakldagi asarlari.
- 4.T.Sodikov, R.Gliyerlarning “Layli va Majnun” va “Gulsara” operalaridan xor sahnalari (qisqa tahlil).
5. M.Ashrafiy “Dilorom” va S.Yudakovning “ Maysaraning ishi” operalaridan xor sahnalari (qisqa tahlil).
6. S.Lappo, Dj. Palestrina, D.Depre xor ijodiyoti.
7. I.S.Bax xor asarlari, V.A. Motsart va Dj.Verdi xor ijodiyoti (“Rekviyem” asarining qisqa tahlil).
8. L.V.Betxovenning xor uchun asarlari.
9. P.I.Chaykovskiy «Yevgeniy Onegin” va M.P.Musorskiy “Boris Godunov” operalaridan xor sahnalar (qisqa tahlil).
10. N.A.Rimskiy-Korsakovning opera – xor ijodiyoti. “Sadko”, “Snegurochka” operalarida xor sahnalarining o‘rni.
11. D.Shostakovich yozgan”10 poem” xor asarining tahlili.
12. V.Salmanov xor asarlari va G.V.Sviridov «Kurskiye pesni” va “Pushkinskiy venok” asarlarining qisqa tahlili.
13. Havaskor xor jamoalari bilan ishlashning badiiy- tarbiyaviy ahamiyati.
14. Bola ovozi rivojining yosh xususiyatlari.
15. Kichik yoshdagi bolalarga qo‘shiq o‘rgatish metodlari.
16. Mutatsiya davri va unda qo‘shiq ustida ishlash muammolari.
17. Vokal-xor malakalari va ularning ifodaviylik ahamiyati.
18. O‘smirlar xorida repertuar ustida ishlash vazifalari.
19. Xorda soz ustida ishlash metodlari.
20. O‘zbekistonda prfessional va havaskorlik xor jamoalari faoliyati.
21. Vokal-xor mashqlari ustida ishlash xususiyatlari.

7.Adabiyotlar ro‘yxati

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati

- 1.Shamina D “Rabota s samodeyatelnimi xorovimi kollektivami” Izd. «Muzika” M.1985
- 2.Ro‘ziyev SH.. «Xorshunoslik» G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent 1987 yil.
- 3.Sharafiyeva N. «Xorshunoslik» .G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent, 1987yil

4. “Istoriya vokalnogo i xorovogo ispolnitelstva v uzbekistane” (sb-k statey) Izd. “Literatura i iskusstvo” im. G.Gulyama 1991
5. Ro‘ziyev SH. «Havaskorlik xori bilan ishlash uslubiyoti», “Yozuvchi” nashriyoti, Toshkent 1993 yil
6. Mirzayev Q,M.M.To‘rayeva «Kichik bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti».Toshkent, 2000y.
7. Baxritdinova N.«O‘zbekiston bolalar xor madaniyati» T., 2002
8. Jabbarov.A «O‘zbekiston bastakori va musiqashunoslari» T., 2004 y.
9. Sharafiyeva N «Xor sinfi» Musiq 2005 y.
10. Pekker B.«O‘zbek operasi» Moskva 1963 y.
11. Valenkov S., An Vinejnev,T.YE.Xublarov. «Havaskor xor jamoasi”. T. 1972
12. Sokolov V. “Rabota s detskim xorom” Izd. “”Muzika” M.1981
- 13 Sokolov. V. “Rabota s xorom” Izd. “Muzika”M.1983
14. Jumayeva L.X.,. Baxritdinova N.A «O‘zbek xor adabiyoti» , T.,1987 y.

8.O‘quv materiallari

Ma’ruza matnlari

1-mavzu. Havaskorlik xor jamoalarini tashkil qilish. (2 soat)

Vokal-xor jamoasida tashkiliy va ijodiy ishlar

O‘z ijodiy faoliyatini vokal-xorlari va xalq ansambllari bilan ishlashga bag‘ishlagan rahbarlar xonandani muntazam ravishda to‘g‘ri tarbiyalash uchun zarur bo‘lgan ijodiy pedagogik jarayonni chuqurroq idrok qilishi zarur. Rahbarning tashkilotchiligi va tashabbuskorligi, ayniqsa xorni tashkil qilish davrida qo‘l keladi. Vokal-xorni tashkil qilish ma’lum davrni o‘z ichiga oladi. Albatta, bu davrda qator tashkiliy ishlar amalga oshiriladi. Tashkiliy davr ikki hafta, bir-ikki oy, hatto undan ham ko‘pga cho‘zilishi mumkin. Tashkiliy davr qancha tez amalga ohsa, shuncha ishning samarasi yaxshi bo‘ladi. Ishlab chiqarish korxonalarida, o‘quv yurtlarida, muassasalarda, madaniyat saroylarida vokal-xor jamoasi, ashula va raqs ansambli tuzish uchun, dastavval, kasaba uyushmasi, yoshlar tashkilotlari madaniyat saroyi xodimlari hamkorligida keng tayyorgarlik ishlarini olib borishi zarur.

Vokal-xor jamoasini tashkil qilish atrof-muhit bilan tanishish, ya’ni ularning madaniy ehtiyojlari va mahalliy qo‘shiqchilik an‘analari bilan tanishish, bo‘lg‘usi xorning qanday badiiy ijro yolida bo‘lishini aniqlash, unga moddiy zamin tayyorlash, uning targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlarini tuzish, xonandalar ovozlari aniqlab xor guruhlarini to‘ldirish, xor ishini rejalashtirish kabi ishlarni o‘z ichiga oladi. Bu tashkiliy jarayon ikki asosiy davrda amalga oshadi. Rahbarning jamoa bilan birinchi uchrashuvigacha bajariladigan barcha tayyorgarlik ishlari birinchi davrga kiradi. Rahbarning jamoa bilan birinchi uchrashuvidan boshlab to xor guruhlarini to‘ldirish ishlarini tugallash ikkinchi davrga kiradi.

Tashkiliy ishlarni tugallagach, tashkilot yoki madaniyat saroyi rahbari, madaniy ishlar bo‘yicha mas’ul shaxs, jamoat tashkiloti vakillari hamda xor rahbari ishtirokida yig‘ilish o‘tkazilib, oldinga qo‘yilgan vazifalar va boshqa tashkiliy masalalar kelishib olinadi. Vokal-xor rahbari mas’ul shaxsning bevosita rahbarligida targ‘ibot-tashviqot ishlarini davom yettiradi.

Davlat, kasaba uyushma va ayrim idora yoki boshqarmalar qaramog‘idagi madaniy muassasalarda vokal-xor jamoasi yoki ashula va raqs ansambllari tuzilganda, vokal-xor jamoalari kasaba uyushma tashkilotlariga, shahar, tuman, qishloq madaniyat uylari vokal-xor jamoalari Madaniyat va sport ishlari vazirligiga, ya’ni shahar yoki tuman madaniyat va sport ishlari bo‘limlariga qaraydi. Bundan tashqari, ma’lum tashkilot yoki korxona qaramog‘idagi vokal-xor jamoasi o‘sha tashkilot yoki korxonaga qarashli bo‘ladi. Tashkilot yoki korxona rahbari jamoaga rahbar va jo‘rnavozni tayinlab beradi, jamoa kiyim-kechaklarini, kerakli musiqa asboblari va apparaturalarni, nota yozuvi uchun maxsus daftarlarni ta’minlab beradi va shu bilan bir qatorda jamoani nazorat qiladi va unga uslubiy yordam ham ko‘rsatadi.

Rahbar vokal-xor jamoasi qatnashchilari, ya’ni xonandalar bilan maslahatlashib, mashg‘ulotlarning kunlari va vaqtini aniqlab oladi.

Mashg'ulotlarning kuni va vaqti ko'pchilik xonandalarga qulay bo'lishi shart. Xorga kelgan qatnashchilar ro'yxat qilib olinadi va ulardan boshqa qiziquvchilarni ham xorga taklif qilishga yordamlashishlarini iltimos qiladi.

Xorni to'plash davri tezroq o'tishi uchun rahbar bor mahoratini ishga solib, mashg'ulotlarni qiziqarli o'tishi uchun harakat qiladi. Boshlang'ich xor tuzilganda unison, ya'ni bir ovozda kuylash yaxshi natija beradi. Dastlabki mashg'ulotlardan boshlab rahbar xonandalarning ovoz tembri, diapazoni va musiqiy qobiliyatini aniqlab boradi. Bir ovozli qo'shiqlarni o'rgata borish, xonandalarni yakka holda ham eshitib ko'rish jarayonini yengillashtiradi. Bundan tashqari bitta-ikkita unison qo'shiqni o'rganguncha, xonandalar bir-birlari bilan tanishib oladilar, o'zlarini erkinroq tuta boshlaydilar.

Shuni unutmaslik kerakki, dastlabki mashg'ulotlarda xonandalarning soni 15-20 kishi yoki undan kam bo'lsa ham davom ettiraverish kerak. Yuqorida aytib o'tganimizdek, xorga kelgan xonandalardan iltimos qilib, boshqa xonandalarni ham xorga jalb qilish mumkin.

Vokal-xor jamoasi ish tajribasidan ma'lumki, dastlabki mashg'ulotlarga haqiqiy qo'shiq shaydolari bilan birga qo'shiq aytishga qiziqmaydigan kishilar ham kelib qoladi. Shuning uchun rahbarning asosiy vazifasi xorga kelgan kishilarni sermazmun, maroqli mashg'ulotlar bilan qiziqtirishdir.

Xonandalar bir-birlari bilan tanishib olishgach, ular orasidan tashkilotchi, faol, musiqa qobiliyatiga ega bo'lganlaridan xor sardori va xor kengashi raisi qilib saylanadi. Bular vokal-xor rahbari bilan birgalikda o'quv tarbiya ishlariga, xonandalarning xor mashg'ulotlariga qatnashishiga, xorga yangi xonandalar jalb qilish kabi tashkiliy ishlarga va konsert dasturlarini uyushtirishga birdek mas'ul bo'ladilar. Xor kengashi a'zolaridan biriga raislik, ikkinchisiga esa rais yordamchisi vazifasi yuklatiladi. Xorda olib boriladigan ma'naviy, madaniy-ma'rifiy ishlar kengash a'zolaridan biriga yuklatiladi. U madaniy dam olish ishlarini tashkil qiladi.

Vokal – xor jamoasining maqsad va vazifalari

Ma'lumki, san'at shaxsning kamol topishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir. San'atning asosiy vazifasi fikr uyg'otish, tuyg'ularni tarbiyalash, insonparvarlik va taraqqiyot g'oyalarga chorlashdan iborat. Xor san'ati bu vazifalarning ma'lum darajada hal etishga qodirdir.

Xor san'ati ashula aytish bilan chegaralanmay, xonandalarga musiqiy ta'lim berish va tarbiyalashning ommaviy turi ekanligi bugungi kunda barchaga ayondir.

Ular orasida quyidagilarni ta'kidlab o'tish joizdir:

1. Xorda ashula aytish musiqa ijrochiligining birmuncha qulay turi. Bu qulaylik insonga tabiat tomonidan in'om etilgan va doim rivojlanishda bo'lgan ovoz «tabiiy cholg'u» bilan bog'liq.

2. Qo'shiqchilik ko'nikmasini tarbiyalashning o'zi ayni paytda, inson tuyg'usini va his-hayajonini tarbiyalashdir. Zotan, qo'shiqchilik iste'dodi o'zining chuqur emotsional asosiga egadir.

3. Ma'lumki, xor san'ati so'z bilan bog'liq, bu o'z navbatida xor asarlarining birmuncha aniq tushunish uchun zamin yaratadi. Asarning mazmuni esa she'riy matn

va musiqaviy ifoda vositasida ochib beriladi. Musiqaviy ifoda uning g'oyaviy emotsional ahamiyatini oshirishda muhim omilga aylanadi.

4. Xorda ashula aytish jarayonida jamoa xarakterini ko'rsatib o'tish juda muhim. Xor san'atining bu o'ziga xos xususiyati o'zbek xalq pedagogikasining jamoani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek muhim tamoyillariga ayniqsa yaqin. Musiqaning emotsional (his-hayajon) ruhi esa insonparvarlik va ma'naviy-tarbiyaviy jarayoniga katta ta'sirchanlik baxsh etadi.

5. Xorda ashula aytish musiqaviy nutqqa ega bo'lishga, xor ishtirokchilarining musiqaviy qobiliyatlarini yanada aniq va chuqurroq namoyon etishga yordam beradi.

Vokal – xor rahbari – jamoa tashkilotchisi

Vokal–xor jamoasining samarali ishlash shartlaridan biri malakali rahbarga ega bo'lishdir. Amalda biror bir vokal–xor jamoa yo'qki, o'z ishining yaxshi biladigan rahbarsiz katta yutuqlarga erishgan bo'lsa. Vokal–xor rahbari vokal–xor jamoasi faoliyatining tashkilotchisidir. Vokal–xor jamoasi rahbari oldida ko'pgina muhim vazifalar mavjudki, u quyidagilarga ega bo'lgandagina mazkur vazifalarni bajara olishi mumkin:

1. Vokal–xor rahbari tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, mamlakatimiz ijtimoiy – siyosiy hayotida faol ishtirok etishi lozim.

2. Vokal–xor rahbari qatnashchilarning yoshi, xarakteri, rivojlanishi va qiziqishlari turlicha bo'lgan havaskorlarda ijrochi jamoa shakllantira oladigan dono va sezgir tarbiyachi–pedagog bo'lishi talab etiladi.

3. Vokal–xor rahbari har tomonlama ma'lumotli hamda iqtidorli mutaxassis bo'lishi lozim. Chunki, u vokal–xor qatnashchilarida mustaqil fikrlashni, badiiy–yestetik qiziqishlarni hamda musiqaviy didni tarbiyalaydi.

4. Vokal–xor rahbari musiqa nazariyasini yaxshi bilishi kerak. Zero, u xor jamoasi o'rtasida o'quv ishlarini tashkil qiladi.

5. Vokal–xor rahbari vokal uslubiyoti jihatidan puxta malakaga ega bo'lishi talab etiladi. Xorga ashula aytish bo'yicha hech qanday tajribaga ega bo'lmagan qatnashuvchilarning kelishi nazarda tutilsa, vokal–xor rahbarining mas'uliyati yanada oshadi. U tajribasiz xonandalar uchun o'qituvchi vazifasini o'taydi va ularga to'g'ri ashula aytish tajribasiga ega bo'lish uchun yordam beradi.

6. Vokal–xor rahbari zarur darajadagi musiqaviy va badiiy madaniyatga ega bo'lishi kerak. U o'zlashtirayotgan asarning g'oyaviy – badiiy mazmuniga chuqur kira olishi, ta'sirchan ijro vositalarini qidirib topishi lozim. Asarni shu darajada tayyorlash lozimki, toki uning ijrosi kishilarda chuqur taassurot qoldirsin.

7. Vokal–xor rahbari xorda kuylash uslubiyoti yuzasidan zaruriy bilimga ega bo'lishi kerak. U o'ziga notanish bo'lgan asarni mustaqil o'zlashtirishi va ijroni to'g'ri o'rgatilishini tashkil eta bilishi lozim.

8. Vokal–xor rahbari o'z vokal jamoasi bilan konsertlarda ishtirok etganda dirijorlik vazifasini bajaradi. Shu tufayli u dirijorlik harakatlarini ham yaxshi bilishi lozim.

U malakali mutaxassis bo'lishi bilan bir qatorda o'z kasbini sevishi, mehnasevarligi va irodaliligi bilan ko'zga tashlanib turishi lozim. Ba'zi muvaffaqiyatsizliklardan ruhan tushmasligi kerak, aksincha to'g'ri xulosa chiqarib,

jamoani ijodiy yonaltirmoq rahbarning asosiy vazifalaridan biridir. Rahbarning nafaqat vokal xor ishtirokchilari oldida, shuningdek, jamoat tashkilotlari, institut, bilim yurtlari, maktab va madaniy muassasalar ma'muriyati oldida ham hurmat-ye'tiborga, obro'ga ega bo'lishi katta ahamiyatga molikdir. Vokal xor rahbari o'ziga talabchan inson bo'lishi, erishilgan muvaffaqiyatlar bilan kifoyalanib qolmasligi kerak. Ayni paytda, u o'zi yol qo'ygan kamchilik va xatolarni vaqtida anglab yetishi, ularga to'g'ri baho bera olishi lozim. Odatda vokal-xor ishtirokchisi o'z rahbariga qiziqish bilan yetuk inson sifatida qaraydi. Shuning uchun ham u doimo o'z malakasini oshirib, madaniy va ma'rifiy-siyosiy dunyoqarashini kengaytirib borishi lozim. Shunday qilib, vokal-xor jamoa rahbari yaxshi tashkilotchi, tarbiyachi, faol jamoatchi, o'z ishini yaxshi ko'radigan malakali mutaxassis bo'lishi kerak.

Amalda vokal-xor jamoasiga aloqasi bo'lmagan jamoatchi-rahbarlar ham uchraydi. Bunday hol ularga nisbatan talabchanlikni aslo inkor qilmaydi. Zero, jamoatchi-rahbarning bilimsizligi vokal-xor ishtirokchilarining ko'nglini sovutadi, jamoaning tarqab ketishiga olib keladi. Agar jamoada ana shunday kayfiyat tug'ilgan bo'lsa, buning uchun jamoatchi-rahbar emas, balki, avvalo unga mana shunday mas'ul ishni ishongan kishi aybdor bo'ladi.

Vokal-xor jamoada ijodiy muhit yaratilishi uchun g'amxo'rlik qilish lozim. U o'zini jamoaga qarama - qarshi qo'ymasligi kerak, zero vokal-xor rahbari jamoa irodasini ifoda etuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Jamoa rahbari vokal-xor ishtirokchilariga nisbatan talabchan bo'lishi, jamoa faoliyatining susayishiga sababchi bo'lgan ko'rinishlarga nisbatan loqayd bo'lmasligi lozim. U o'zini tuta bilishi, vokal-xor ishtirokchilaridan birortasi tartibni buzadigan bo'lsa, unga qizishmasdan tushuntirishi lozim, qo'pollik rahbar ahloqi uchun butunlay yot narsa. Rahbar har bir vokal-xor ishtirokchisi uchun dono ustoz bo'lib qolishi, ularning qobiliyatlaridan qat'i nazar bir xil munosabatda bo'lishi kerak. Har bir vokal-xor qatnashchisi o'zini jamoaning teng xuquqli a'zosi deb bilishi kerak. Ularda faollikni tarbiyalash juda zarur. Rahbar jamoada ishni yanada yaxshilashga yonaltirilgan o'rtoqlarcha tanqid va o'z-o'zini tanqidning mavjudligini ta'minlashi kerak. Rahbar vokal-xor qatnashchilari o'rtasida nafaqat malakali mutaxassis sifatida, ayni paytda, inson sifatida obro' qozongandagina ular orasida yaxshi munosabatlar o'rnatiladi. Shuning uchun, rahbar xor qatnashchilarining bir-biri bilan o'zaro do'st bo'lishlari uchun ham g'amxo'rlik qilishi kerak.

Xorda o'quv – tarbiya ishlari

Vokal-xor jamoasining asosiy vazifasi kishilarning badiiy didini oshirish, g'oyaviy-siyosiy ongini chuqurlashtirish va ularni ilg'or madaniyatli kishilar darajasiga ko'tarish, Vatanga mehr va muhabbatni kun sayin oshirib borishdan iborat. Bu borada vokal-xor jamoasida olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlar muhim rol o'ynaydi.

Xor rahbari o'quv-tarbiya ishlariga katta ahamiyat berib, har xil musiqaviy mavzularda ma'ruzalar, uchrashuvlar, ijodiy konsert dasturlari va musiqa tinglash kabi ishlarni muntazam ravishda o'tkazib turishi kerak. Bulardan tashqari xor rahbari Vatanimizning madaniy va musiqaviy yangiliklari bilan ham tanishtirib turishi, teatr va muzeylarga jamoa bilan borishni tashkillashtirishi lozim.

Musiqqa savodi ham musiqaviy tarbiyaning bir qismi bo'lib, jamoaning yuksak ijrochilik mahoratiga erishish uchun zarur omillardan hisoblanadi. Shuning uchun jamoada doimiy ravishda musiqqa savodini olib borish maqsadga muvofiq. Bundan maqsad jamoada asta-sekin nota bilan kuylashni, intervallarni ongli ravishda to'g'ri talaffuz qilib kuylashni o'rganishdir. Bu esa qo'shiq o'rganish jarayonini tezlashtiradi. Ayniqsa, havaskorlik jamoalarida xonandalarning nota bilan kuylash malakalarini oshiradi. Musiqqa savodini qo'shiq aytish bilan birgalikda amaliy jihatdan mustahkamlab olib borish lozim.

Dastavval, ovozlarning baland va pastligi biron-bir musiqqa asbobida cholib tushuntiriladi. Keyin notaga qarab ohangning ko'tarilishi va pasayishi yoki bir qatorda turishi aniqlanadi. Bir xil ovoz bilan aytiladigan notalarni birlashtiruvchi chiziq - "*liga*" ham tushuntiriladi.

Ovozlarning past va balandligi, uzun va qisqaligi tushuntirilgach, notalarning chorak va nimchoraklarga bo'linishi, asosiy nota chiziqlari va notalar nota chiziqlarining ustiga, orasiga va pastiga yozilishi misollarda ko'rsatiladi. Musiqqa kaliti, takt chizig'i va ritmik o'lchovlar tushuntirish bilan bir qatorda uncha qiyin bo'lmagan tanish kuylarni notaga qarab aytirish zarur.

Keyingi mashg'ulotlarda intervallar, alterasiya belgilari, major va minor tonliklari va hokozolar bilan tanishtirib boradi. Musiqiy o'lchovlarni, ya'ni metr, ritm, ritmik – usul birligini tushuntirishda, taktdagi kuchli va kuchsiz hissalarini aniqlash, ularning ba'zida almashib kelishini tushuntirish va ularni sezish uchun mashqlardan foydalanish amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Nota bilan qo'shiq aytish xonandalarda faqat notalarni ko'ribgina qolmay, balki o'zlarida ularni eshita bilish qobiliyatini ham o'stirib boriladi. Shundan so'ng asta-sekin tonliklarning asosiy bosqichlarini, uch tovushliklarni va turg'un bo'lmagan tovushlarni sezishni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, musiqqa savodini davrlarga bo'lib o'rgatiladi va unda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yimaslik kerak.

Jamoa qatnashchilarining qiziqishlari

Xorshunos mutaxassislarining ilmiy kuzatishlari hamda yig'ilgan tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy vokal-xor jamoalarini to'g'ri boshqarish uchun obektiv va subektiv tashkiliy omillarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Kishilardagi kuylashga bo'lgan ma'naviy ehtiyojlarning mavjudligi, xor san'atining jamoa ijro ekanligi hamda uning ommabopligi ommaviy omillarga kirsam, subektiv omillarga xonandalarning istak-muddaolari kiradi. Vokal-xor jamoalari faoliyatida bu omillar muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, vokal-xor jamoasi xonandalar jamoaga aynan bir maqsadni ko'zda tutgan holda orzu-havas bilan keladilar, faol qatnashadilar yoki jamoadan ketib qoladilar. Mana shu orzu-havaslar, intilishlar jamoa qatnashchisining o'ziga xos ma'naviy ehtiyoji hisoblanadi. Agar ma'naviy ehtiyojlar kishilar faoliyatining asosini, mohiyatini tashkil qilsa, xohish-istaklar shu mohiyatning aniq ko'rinishi sifatida gavdalanadi.

Vokal-xor rahbarlari jamoa bilan ishlash jarayonida uchraydigan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf qilishi uchun xonandalarning orzu- istaklarini tushuna bilishlari zarur va shundagina ular jamoada sogʻlom muhitini yuzaga keltira oladilar.

Xonandalar jamoaga quyidagi asosiy omillar tufayli keladilar:

- musiqiy;
- musohaba – muloqot;
- konsert – ijrochilik;
- oʻquv – bilim olish;
- kasbiy – ijodiy.

Musiqiy orzumand kishilar, odatda, yaxshi musiqiy qobiliyat sohiblari boʻlib, ular jamoaga kuylab hordiq chiqarish maqsadida keladilar.

Muloqotda boʻlish niyatida ham baʼzi kishilar jamoaga keladilar. Ularni jamoaga boshqalar bilan oʻzaro munosabatda boʻlish ehtiyoji etaklab keladi. Odamlar bilan oʻzaro munosabatda boʻlish, dardlashish istagi oʻziga xos boʻlib, uning doirasida oʻquv bilim olish, kasbiy-ijodiy qiziqishlar deyarli koʻzga tashlanmaydi. Shuni aytish kerakki, ijodiy muhit va pedagogik taʼsir tufayli muloqot va konsert-ijrochilik niyatida kelgan kishilarda yangi istaklar paydo boʻlishi mumkin. Bunday xonandalarning maʼlum qismida asta-sekin haqiqiy ijrochilik mahoratiga erishish ishtiyoqi paydo boʻladi. Ulardagi ilk orzular oʻzgarib, boshqalari shakllana boradi.

Konsert-ijrochilik istagi bor kishilar konsertlarda chiqishni jon dildan yoqtiradigan, jamoaning konsert-ijrochilik faoliyatida jonbozlik koʻrsatuvchi, koʻproq yakkaxonlik qilishni yoqtiradigan va yakkaxonlik qiluvchi boʻladilar. Koʻp hollarda konsert-ijrochilikka intilishdan tashqari oʻquv-bilim olish, musiqaviy, hatto kasbiy qiziqishlari borligini izhor kiladilar va kezi kelganda yakkaxonlikka ham intiladilar.

Oʻquv-bilim olish maqsadida kelgan xonandalar asosan, xor sanʼatini sevuvchi, musiqa savodini oshirish va jamoada kuylash malakalariga ega boʻlish istagi bor kishilar boʻladilar. Ularning baʼzilarida oʻquv-bilim olishdan tashqari musiqaviy, kasbiy-ijodiy intilishlari ham boʻladi. Bunday xonandalarda (koʻpincha yoshlarda) oʻzlarining musiqaviy bilimlari va ijrochilik mahoratlarini oshirish va kelgusi hayotlarida (oʻqishda, ishda) bundan foydalanish maqsadi ham boʻladi. Baʼzi xonandalar esa kelgusida oʻqishga kirish yoki professional dargohga borib ishlash maqsadida emas, balki xor sanʼatini jon-dildan sevganlari va uni keng targʻibot qilishda faol qatnashish uchungina musiqaviy bilim oladilar va ijro mahoratini oshiradilar.

Kasbiy mahorat (professional) manfaatlarga ega jamoa xonandalarining aksariyati jamoaga kelganda shu jamoada olgan saboqlarini oʻzlarining kelgusi professional faoliyatida foydalanishni oʻz oldilariga maqsad qilib qoʻyadilar. Bunday xonandalar, asosan, oldindan xorda yoki biror ijodiy jamoada qatnashib, tajriba orttirgan boʻladilar. Ular ijodiy oʻsish maqsadida mashgʻulotlarga astoydil qatnashadilar va oʻzlarini ongli ravishda katta sanʼatga tayyorlashga harakat qiladilar.

Kasbiy - ijodiy intilishga ega kishilar orasida oldindan xorda yoki biror jamoada kuylamagan, musiqaviy tayyorgarlikka ega boʻlmaganlari ham uchraydi. Lekin ularning koʻpchiligi oʻzining tirishqoqligi va maqsadga intilishi tufayli kelgusida professional sanʼatchi boʻladilar. Bu hol koʻproq yoshlarda sodir boʻladi. Chunki jamoaga kelgusida xonandalik kasbiga ega boʻlish niyatida kelgan kishilar

ta'sirida butunlay boshqa ishtiyoqlar bilan kelgan yoshlarning mayllari o'zgara boradi va ularda kasbiy-ijodiy faoliyaga intilish shakllana boradi. Bu shakllanish albatta, jamoadagi ijodiy muhit va xonandalarning ijrochilik mahorati va shu bilan birga xonandaning o'z intilishlari natijasida amalga oshadi.

Olimlarning sotsiologik kuzatishlaridan ma'lumki, o'rta ma'lumotli kishilarning ko'pchiligida konsert-ijrochilik va muloqot istaklari bo'lsa, to'liqsiz o'rta ma'lumotga ega kishilar ko'proq kasbiy-ijodiy istaklari borligini sezadilar. Oliy ma'lumotli kishilarning ko'prog'i esa o'quv-bilim yoki musiqaviy istaklari borligini anglaydilar. O'rta yoshdagi kishilarga deyarli musiqaviy, keksalar va yoshlarga ko'proq muloqot istaklari xarakterli bo'ladi. Balog'atga etgan yoshlarning ko'pchiligida kasbiy-ijodiy istaklar borligi aniqlangan.

Jamoadagi yaxshi ijodiy-ma'naviy muhit, rahbarning yuqori madaniyatligi va uning professionallik darajasidagi pedagogik mahorati xonandalarning ishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bu o'z navbatida jamoaning ijodiy faolligi va ijtimoiy faoliyati, o'quv-bilim olish istaklarining o'sishiga imkoniyat yaratadi. Ish jarayonida xonandalarning o'quv-bilim olishga intilishi boshqa mayllar bilan o'zaro bog'lanib, kasbiy-ijodiy qiziqishlariga aylanadi.

Jamoaga kirish sabablarining o'zgarishi ikki: obektiv va subektiv sabablar bilan bog'liqligi ma'lum.

Subektiv sabablar – xonandalar hayotida uchraydigan har xil o'zgaruvchan vaziyatlar bo'lsa, obektiv sabablarga rahbarning pedagogik ta'siri va jamoada olib boriladigan barcha g'oyaviy-siyosiy tarbiya kabi omillar kiradi. Jamoaga kirish omillarining o'zgarishi ijro qilinadigan dasturga ham bog'liq.

Shuni ta'kidlash mumkinki, xonandalar jamoada faol qatnasha borishi natijasida, ya'ni ish jarayonida xonandalarning ishtiyoqlari bir qadar o'zgaradi va ularda yangi qiziqishlar vujudga keladi.

Ma'lumki, ayrim sabablarga ko'ra ba'zi xonandalarning jamoadan ketib qolish hollari ham uchraydi. Xonandaning jamoadan ketib qolish sabablarini bilish jamoani pedagogik jihatdan to'g'ri boshqarishga zamin yaratadi.

Xonandaning jamoadan ketishi ichki, ya'ni jamoa va uning faoliyatiga daxldor va tashqi – jamoa va uning faoliyatiga daxlsiz kabi vaj-sabablar tufayli sodir bo'ladi.

Ichki sabablarga jamoada olib boriladigan o'quv tarbiya ishlari va mashg'ulotlarning qoniqarsizligi, ijodiy muhitning yoqligi, jamoadagi ma'naviy vaziyatning yomonligi, rahbarning madaniy saviyasi pastligi, o'rgatiladigan asarlarning xonandalar didiga mos kelmasligi va nihoyat, rahbarning tez-tez o'zgarib turishi kabilar kiradi.

Tashqi sabablarga xonandaning turar joyining o'zgarib qolishi, ishda navbat bilan ishlashi, oila ahvolining o'zgarishi kabilar kiradi.

Jamoaning muntazam faoliyatini ta'minlash uchun rahbar har bir xonandaning ichki dunyosini tushuna bilishi, uning insoniy va ijodiy xususiyatlarini bilishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, vokal-xor jamoalarini to'g'ri pedagogik boshqarish uchun xonandalarning jamoaga kirish, unda faol qatnashish va jamoadan ketib qolish vaj-sabablarini bilish va ularni hisobga olib ish tutish jamoani jipslashtiradi, ijodiy yutuqlarga etaklaydi. Har bir mashg'ulot ijodiy muhitda o'tishi, har bir xonanda jamoada o'z o'rnini topishi va ijodiy jarayonda uning ham hissasi borligini sezishi lozim.

Jamoaning pedagogik boshqarishning asosiy omillaridan biri xonandalarning fe'l-atvorini bilish hisoblanadi. Tajriba va ayrim ilmiy kuzatishlardan shu narsa ma'lumki, xonandalarning shartli ravishda asosiy to'rt – "zo'raki", "hassoslar", "mulohazakorlar", va "ijodiy" toifalarga bo'linishi ma'lum.

Xulosa qilib shularni ta'kidlash mumkinki, vokal-xor jamoalarini boshqarish uchun xor san'atining mohiyatini anglash, uni nazariy va uslubiy tomondan chuqur o'rganish, xonandalarning kamchiligi fazilatlarini va ularning jamoada faol qatnashishi vaj-sabablarini bilib olish talab qilinadi. Bu shartlar vokal-xor jamoasini pedagogik boshqarishning metodologik asosi hisoblanadi.

2-mavzu. Bolalar xorini tashkil qilish va ishlash uslublari (kichik yoshdagi bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti) (2 soat)

Bolalar vokal–xor jamoasini tashkil etish

Bolalar vokal–xor jamoasi ishining muvaffaqiyat qozonishi ma'lum darajada uni to'g'ri, har tomonlama o'ylab tashkil etishga bog'liq.

Bunda avvalo vokal–xor tarkibining barqarorligi masalasi muhim o'rin egallaydi. Vokal–xor jamoasi barqaror bo'lgandagina uslubi va murakkabligi turlicha bo'lgan xor asarlarini ijro etishga qodir ijodiy jamoaga aylanadi.

Bolalar bilan ishlaydigan har bir vokal–xor jamoasining rahbari ularning hozirgi ahvoli, ayni paytda kelajagi to'g'risida ham o'ylashi kerak. Jamoaning ikki-uch -yildan keyingi ahvolini yaqqol tasavvur eta olishi lozim. Buning uchun bolalarning tarqalib ketmasligiga erishishi, ishni «mavsumiy» emas, balki uzoq-yillarga mo'ljallab tashkil etish lozim. Jamoaning kelajagi ko'plab shogirdlar tayyorlashga bog'liq.

Vokal–xor jamoasida shogirdlar tayyorlash qanday yolg'a qo'yiladi? Turli yoshdagi bolalarni bir erga jamlashning o'zi kifoya qiladimi? Ularning ayrimlari ketgach, boshqasi keladi. Jamoaning doimiy ravishda ishlab turishi, ijodiy siljishi uchun uchta alohida mustaqil xorga ega bo'lishi kerak. Ularning har biri ma'lum yoshdagi bolalardan tashkil topgan bo'lishi lozim. Vokal–xor jamoasining to'g'ri tashkil etish uchun uni bolalarning yoshiga, ovoz xususiyatlariga qarab to'ldirib borish juda zarur. Bolalar ovozi diapazonining turlicha bo'lishi, ularning ish qobiliyati va ashula aytish paytida toliqishi ularning yoshiga bog'liq. Aytish lozimki, kichik yoshdagi bolalarning ish qobiliyati o'rta yoshdagi bolalarga nisbatan past, ovoz yollari esa tez toliqadi.

Bolalarning qiziqishlari ham turlicha. Kichik yoshdagi bolalarni qiziqtirgan narsa katta yoshdagi bolalarga qiziq bo'lmasligi mumkin.

Bolalar xorlarining quyidagi turlari mavjud.

1. Kichikintoylar vokal–xor guruhi yetti-to'qqiz yoshdagi bolalarni (umumta'lim maktablaridan 2, 3, 4-sinf o'quvchilari) birlashtiradi.
2. O'rta yoshdagi bolalar vokal-xor guruhi 10-14 yoshdagi (umumta'lim maktablaridagi 5, 6, 7, 8, 9-sinf o'quvchilari) birlashtiradi.
3. Yuqori sinf o'quvchilari xori 14-17 yoshdagi (akademik lisey va kollej o'quvchilari) o'smirlarni birlashtiradi.

Ishni shu yosinda tashkil etish bolalar xorining doimiyligini ta'minlaydi. Bolalar ma'lum yoshga yetgach, kichik xor guruhidan o'rta xor guruhiga, o'rta xor guruhidan esa katta xor guruhiga o'tkaziladi. Har bir yangi bosqich bolalarning musiqa va ovoz xususiyatlarini yangicha, birmuncha yuqori darajada rivojlanishiga olib keladi. Bunda asosiy rol ni jamoaning butun faoliyatini boshqarib boradigan vokal–xor rahbari o'ynaydi.

Vokal–xor jamoasiga o'z-o'zini boshqarishning ma'lum unsurlarini kiritgan holda bolalarning faoliyatini ham jonlantirish kerak. Vokal–xor jamoalari guruhlariga faollar saylanadi va uning a'zolari barcha tashkiliy masalalar bo'yicha xor rahbarining yordamchilari hisoblanadi.

Vokal–xor jamoasining faollari birmuncha tashabbuskor bolalardan tuziladi. Faollar ro'yxatiga xor sardori va uning har bir xor guruhidagi yordamchilari kiradi. Bu «lavoziqlar»ga nomzodlarni bolalarning o'zlari saylashadi. Albatta, bunda xor rahbari bir chetda turmaydi, kerak bo'lganda bolalarni yolg'a soladi, zarur topsa, nomzodlar taklif etiladi. Xor guruhlarining sardorlari zimmasiga anchagina vazifa tushadi. Ular darslardagi intizomni, xor qatnashchilarining davomatini kuzatib borishadi. Shuningdek, mashg'ulotlar, konsertlar va boshqa tadbirlarning sifatli o'tishini ta'minlaydilar. Vokal–xor jamoasining rahbari har bir mashg'ulot uchun navbatchilar ro'yxatini tuzib chiqadi. Navbatchilar mashg'ulotlar boshlanishidan yarim soat oldin kelib xonalar havosini almashtiradi, kursilarni xorga moslab joylashtiradi, mashg'ulot tugagach, sinflarni tartibga solib ketadi. Xor sardori navbatchilarning o'z vaqtida kelishlarini ta'minlaydi. Jamoani tashkil etishda ba'zi maktablardan kelgan vakillar ham katta yordam ko'rsatishlari mumkin. Ularning har biri o'zi bilan birga bir maktabda o'qiydigan xor qatnashchilarining ro'yxati yozilgan jurnal tutishlari lozim. Ism–shariflarining to'g'risiga esa ular o'qiyotgan sinflar yoziladi. Vokal–xor jamoasining dastlabki paytlarida xor faollari sinflararo yurib, bolalarga mashg'ulot haqida eslatib turadilar. Faollar biror sabab bilan mashg'ulotlarga kelolmay qolgan bolalarning uzrini xor rahbariga yetkazib turishlari lozim. Ular shuningdek, bolalarning maktabdagi darslardan o'zlashtirishlari haqida ham rahbarlarini xabardor etib borishlari kerak. O'quvchilardan birortasi u yoki bu fanlardan oqsab qolsa, uning yetib olishi uchun zarur choralarni ko'rish lozim.

Vokal–xor jamoasida intizomni mustahkamlash, bolalarga ana shu jamoaviy tuyg'usini tarbiyalash maqsadida jamoa nizomini ishlab chiqish zarurdir. Unga quyidagicha bandlarni kiritish mumkin.

1. Vokal–xor jamoasining qatnashchisi mashg'ulotlarga muntazam ravishda qatnashishi zarur.

2. Mashg'ulotni faqat uzrli sabablarga ko'ra qoldirish mumkin.

3. Mashg'ulotlarga kechikmaslik kerak.

4. Mashg'ulotlarda faol, diqqat–ye'tiborli bo'lish, maktabda yaxshi va a'lo baholarga o'qish talab etiladi.

5. Har bir xor qatnashchisi tashabbuskor va xor san'atining targ'ibotchisi bo'lishi lozim.

6. Vokal–xor qatnashchisi qobiliyatli bolalarni jamoaga muntazam ravishda jalb eta borib, xor jamoasini muvaffaqiyat qozonishga munosib hissa qo'shishi lozim.

Jamoda iliq, do'stona, quvnoq kayfiyat yaratilishiga erishish kerak. Shundagina xorga bolalarni jalb etish mumkin. Har bir xor jamoasida qandaydir

o'ziga xos an'analar tug'ilishiga erishish kerak. Masalan: xor jamoasiga bolalarni tantanali ravishda qabul qilishni yolga qo'yish mumkin. Yoki katta yoshdagi xor qatnashchilari bilan kichik yoshdagi xor guruhiga yangi qabul qilinganlar o'rtasida uchrashuvlar o'tkazish va hakoza.

Teatrlarga, konsert zallariga, musiqali ma'ruzalarga, muzeylarga borishni tashkil etish mumkin. Bu tadbirlar jamoaning yanada jipslashishiga, do'stlashuviga yordam beradi, vokal–xor jamoasi ishini yanada jonlantiradi, qobiliyatli bolalarni xorga jalb etish maqsadida mashg'ulotlarni yakkaxon xonandalar va vokal ansambllari ishtirokida o'tkazish yaxshi natijaga olib keladi. Vokal ansambllari turlicha: duet, trio, kvartet - har qaysi guruhi ikki nafar kishidan iborat bo'lgan ansambllardan tuzilishi mumkin. Vokal–xor jamoalarning chiqishlarida vokal ansambllar va yakkaxon ashulachi yoki sozandalarning ham ishtirok etishi, konsert dasturi birmuncha rang-barang bo'lish ta'minlanadi.

Yakkaxonlar bilan bo'ladigan mashg'ulotlarni ashula bo'yicha o'qituvchi olib boradi. Ba'zan bunday vazifa xor rahbarining zimmasiga tushadi. Barcha yakkaxonlar xorda qatnashishlari shart. Aks holda ularning yakkaxon ashula bo'yicha dars berishdan maxrum etish kerak. Yakkaxon ashulachi xor bilan tez-tez bog'liq holda ashula aytib turish kerak.

Xor jamoasi doimiy maxsus jihozlangan, keng, issiq, yaxshi aks–sado beradigan xonaga ega bo'lishi kerak. Odatdagi vokal–xor xonalari yoy shakldagi uch-to'rt zinadan iborat amfiteatrga o'xshaydi. Har bir zinaga kursilar qo'yiladi. Bunday vaziyat ko'rinishga qulaylik tug'diradi va har bir havaskorning ovozi yaxshi va aniq eshitishga imkon beradi. Xordan ma'lum uzoqlikda fortepiano (royal) qo'yiladi.

Vokal–xor xonasida kitoblar, jurnal, xor jamoasining tarixini aks ettiruvchi rasmlar albomlar, jamoa konsertlari haqida fikrlar yozilgan daftar, nota daftarlari, o'quv qurollari saqlanadigan shkaf bo'lishi lozim. Guruhlarga bo'linib mashg'ulot o'tkazish uchun parallel xonalar maxsus jihozlanmagan bo'lsa ham ushbu xonalarda albatta fortepiano va xalq cholg'u asboblari bo'lishi kerak.

Vokal–xor jamoasi bilan ishlashda xonandalar kuylash binosining akustikasi - aks-sado berishi katta ahamiyatga ega. Agar xor sinfida tovushlar kuchli aks – sado bersa, atrofga tashqi tomoni mato bilan mahkamlangan yog'och to'siqlar o'rnatish lozim. Bunday to'siqlar xona burchaklariga qo'yiladi. Ular tovushni pasaytirish uchun xizmat qiladi. Kuchli aks-sadoga o'rganish jamoaning akustik sharoitlari yaxshi bo'lmagan konsert maydonlarida chiqishlariga xalal berishi mumkin. Chunki kuchli aks-sadoga o'rganib qolinsa, boshqacha sharoitda ovoz kuchsiz chiqayotganday tuyiladi va xor jamoasini chalg'itadi.

Xonaning o'rta darajada aks-sado berishi ham xor rahbarining ishiga xalal beradi. Xorni ortiqcha zo'riqish bilan kuylashga majbur etadi. Ayni paytda xona aks-sadosi juda kuchsiz bo'lsa ham maqsadga muvofiq emas. Bunday xona xor uchun yaramaydi.

Har bir madaniyat saroyi, madaniyat uylari xor jamoalarni tashkil etishlari uchun umumta'lim maktablarida o'zlarining filiallarini tashkil qilishlari mumkin. Madaniy-ma'rifiy muassasalar o'zlariga yaqin joylashgan maktablardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday paytda madaniy-ma'rifiy muassasalarning rahbarlari, albatta, o'sha maktab bilan maktabdan tashqari tashkil etiladigan xor jamoalari uchun bolalar yetkazib berishiga kelishib olishlari lozim.

Bu ishni amalga oshirishda tuman xalq ta'limi bo'limiga murojaat qilinadi. Agar xor jamoalarining ishi maktab ma'muriyati bilan kelishilgan holda yolga qo'yilgan bo'lsa, bu yerda musiqaviy qobiliyati bor bolalarni o'qitish uchun musiqa sinflari ochish mumkin bo'ladi. Masalan, uch yoki to'rt parallel sinfning musiqaga qobiliyati bor o'quvchilaridan bitta sinf tashkil etish mumkin. Bunday bolalar maktabdan tashqari xor jamoasining qatnashchilari bo'la oladilar.

Vokal-xor jamoasining faoliyatini yanada mustahkamlash maqsadida rahbar o'zining vazifasiga qo'shimcha ravishda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarni ham bajarishga to'g'ri keladi. Qatnashchilarning ota-onalari bilan aloqa o'rnatish juda muhim. Ular bilan bolalarning garmonik rivojlanishi uchun xor jamoasida ashula aytishning ahamiyati to'g'risida suhbatlar o'tkazish lozim.

Afsuski, ayrim ota-onalar bolalarining xohishidan qat'i nazar, ular xor jamoasida ishtirok etishlariga ruxsat bermaydilar. Go'yo xor bolalar uchun yot va tushunarsiz emish. Ana shunday tushunchalarga barham bera olish kerak. Buning uchun qatnashchilarning uyiga borib, ota-onasi bilan suhbatlashib, ularda xor san'atiga qiziqish uyg'ota bilish lozim.

Muntazam ravishda o'tkaziladigan hisobot konsertlari xor san'atini targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Bunday konsertlarga ota-onalarning kelishini ta'minlash katta ahamiyatga egadir. Konsertdan oldin xor rahbari jamoa erishayotgan muvaffaqiyatlar, kelajakdagi qilinadigan ishlar, ayrim xor qatnashchilarining faoliyati haqida so'zlab berishlari mumkin. O'ylaymizki, muallifning mutaxassis sifatida o'z tajribasidan keltirgan ayrim lavhalari yosh xor rahbarlariga foydali bo'ladi.

Masalan: 1980- 1986-yillarda Toshkent shahar Yunusobod tumani 70-umumta'lim maktabida o'quvchilar xor jamoasini tashkil etib, uni tuman va shahar miqyosida, shuningdek respublika «San'at bayrami» ko'rik - tanlovlarida g'oliblik shoxsupasidan o'rin olishga zamin yaratdi. Bunda o'quvchilarning xor jamoasiga qabul qilish jarayoniga jiddiy munosabat bildirish ularning tovush taratish qonun qoidalaridan xabardor etish, shuningdek kuylash ko'nikmalarini jamoa a'zolariga o'rgatishdagi talabchanlik hamda jamoa mashg'ulotlariga qat'iy intizom bilan rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar ovozing yoshiga xos xususiyatlari

Bolalarning ovoz xususiyatlarini, ulardagi tovush chiqaruvchi a'zolarning tuzilishi va rivojlanishini yaxshi bilish rahbarning vokal-xor mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi.

Umuman, bolalar ovozi avvalo o'zining yengilligi va tovlanib turishi, tovushlarning jarangdorligi va nozikligi bilan ajralib turadi. Ular o'z xususiyatlariga ko'ra diskant va altlarga bo'linadi. Diskant – bolalarning eng yuqori ovozi. Ayrimlarning diapazoni¹ 1-oktava Do notasidan 2- oktava Sol notasigacha boradi.

Bolalar ovozing rivojlanishi bir necha bosqichlardan iborat. Bu bosqichlarning har biri ma'lum yosh guruhiga mansubdir. Har bir xor jamoasining rahbari xorga qabul qilingan bolaning qo'shiq aytish qobiliyatini yaxshi bilishi

¹ Dx apazon - (yunoncha so'z) – ashulachx ovozx nx ng eng quyx va eng yuqorx chegarasx dox rasx dagx xarmx , ovoz x mkonx yatx .

ularning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlaridan tashqari, u mansub bo'lgan yosh guruhi uchun ham umumiy, birmuncha ahamiyatli belgilari mavjud bo'ladi.

7-10 yoshdagi o'g'il bolalardagi kabi qiz bolalarda ham ovoz chiqaruvchi a'zolar katta yoshdagi bolalarnikiga nisbatan boshqacharoq bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda ashula aytish a'zolari chetki bog'lamlarning tarang tortilishi natijasida sodir bo'ladi. Ingichka ovozlik, aniq ifoda xarakteriga ega bo'ladi. Tovush chiqarish jarayonida yordamchi muskullarning katta guruhi ishtirok etadi. Bunday paytda bolalar bo'g'ziga asab tarmoqlarining zarur darajadagi quvvatlari to'plana boshlaydi. Bu holatning o'zi uning harakat qilishiga ta'sir etadi. Chunki nafas olish, himoya va ovoz chiqarish asab tizimi orqali sodir bo'ladi. Shunday qilib, bolada 7-10 yoshida ashula aytish ko'nikmasiga poydevor qo'yiladi. Bu ko'nikma keyinchalik rivojlanib boradi. Bu davrda ovoz hosil qiluvchi a'zolarining (o'pka, bronx, traxeya, og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i) rivojlanishi asta-sekin yuz beradi. Bo'g'iz va mutasiya² – balog'at yoshigacha juda sekinlik bilan, notekis rivojlanadi. Bolalarda 7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan davr ovozning rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bir tomondan, uning imkoniyatlari chegaralangan davr ham deyish mumkin, ikkinchi tomondan esa qo'shiqchilikning dastlabki ko'nikmalari qad rostlaydigan, tarbiyalanadigan davr ham desa bo'ladi. 7-10 yoshdagi bolalar ovozining baland-pastligi odatda Do, Re 1- Do, Re 2 oktavalarini qamrab oladi. Ovozning bu tabiiy baland-pastligi undagi nozik va qisqa bog'lanmalarning imkoniyatlari bilan bog'liq. Ayrim bolalarda birmuncha past yoki baland tovushlar uchraydi. Lekin, asosan Do, Re 1- Do, Re 2 oktavalaridagi tovushlar ko'pchilik bolalar ovozi uchun xosdir. Keyingi o'n yillikda bolalardagi jismoniy rivojlanish birmuncha ko'zga tashlanmoqda. Bunday hol vokal-xor jamoalari rahbarlarining zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Ular jamoaga kelib qo'shilgan har bir bola ovozini alohida eshitib ko'rishlari, so'ng mashg'ulotlar davomida doimo nazorat qilib borishlari kerak bo'ladi. Jismonan erta yetilish ovoz apparatining ham birmuncha tezroq shakllanishiga olib keladi. Tajribada 11 yoshdagi bolalarda mutasiya davri boshlangan hollar ham ma'lum.

Ovoz chiqarish sifati tovushlarning xarakteriga ham bog'liq. Maktab yoshidagi bolalar uchun yengil, parvozli, nozik va jarangdor tovushlar xos bo'ladi. Bunday tovushlar ularning ovoziga alohida joziba baxsh etadi. 7-10 yoshdagi bolalar o'z imkoniyatlariga ko'ra 11 yoshdagi bolalardan farq qilib turadi. Agar kichik yoshdagi bolalar ovozida soprano va altlarni farqlash mumkin bo'lsa, 10-11 yoshdagi bolalarda esa ovozlarning past-balandligini bildiruvchi xarakterli tovushlar sezilib turadi. 10-11 yoshdagi bolalarda (ayniqsa o'g'il bolalarda) ma'lum miqdorda ko'krak registridan³ chiqadigan tovushlar paydo bo'ladi. Ular birmuncha to'la tovushda, yorqin ovozda ashula aytishadi. Biroq bolalarni ko'krak registridan foydalanishidan va ovozni zo'riqishidan saqlash lozim. Bo'g'zida chetki bog'lanmalarning tebranishi natijasida

² Mutatsiya - (lotincha so'z – murat davri shakllanish) bola ovozi bilan balog'atga etish. Ovozning yosh farqlari: 13-14 yoshdan 16-18 yoshgacha. Bo'g'izdagi ovoz bog'lanmalari bilan o'sish natijasi sifatida o'g'il bolalarda mutatsiya bilan sodir bo'ladi. Mutatsiya davri turlicha bo'lib, bir necha haftadan bir necha yilgacha cho'ziladi. Odatda bir yilga bir marta yilga cho'ziladi. qiz bolalarda esa ovoz o'zgarish sekunlar bilan (umumiy, o'g'il bolalarni kichik do'irga emas) sodir bo'ladi. Yaqin – yaqinlargacha ham mutatsiya davri ashula aytish taqib qilinadi. Biror bir qator o'qituvchilarning ta'riflariga shunday ko'rsatayapti ki, bu davrda o'qituvchilarning bir yilga bir marta mashg'ulot o'tkazish bolalar ovozi bilan biror bir vaqt saqlanishda yaxshi natijalar beradi.

³ Registra (tovushning qudrati va past-balandligi bilan belgilovchi ko'rsatgich)

chiqadigan falset (yeng baland) ovoz uchun tovushning dinamik ko'tarilishini rejalashtirib turuvchi tabiiy to'siqlar mavjud. Yoshi bir qadar katta bo'lgan bolalarda ovozning yoqimliliği darhol seziladi. Bu ayniqsa, qo'shiq zo'riqmasdan, tinch holatda aytilgan taqdirda yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq, 7-10 yoshdagi bolalarning ovozida umumiy o'xshashliklar ko'p va tubdan bir-biriga qarama-qarshi farqlar yoq. O'g'il va qiz bolalarning ovozlari bir turda bo'lib, deyarli barchasi diskantlar, sopranolar va altlar (bolalarga xos ingichka ovoz)dir. Faqat shartli ravishda birinchi va ikkinchi ovozlarga bo'lish mumkin.

Mazkur yosh guruhlarining ovoz kuchi katta o'zgarishlar amplitudasi (kengligi)ga ega. Ashula aytish vaqtida, asosan *mp* va *mf* kabi dinamik ifodalardan foydalaniladi. Bolalar ijrochiligining his-hayajonga boyligi ijroni yanada tiniqlashtiradi, ifodaviyligini oshiradi. Ovozning eng yaxshi sifatlari umumiy ovoz diapazonining pastki qismlarida zo'riqish paydo bo'lishi katta zarar keltirishi mumkin. Baland pardada sekin aytish ham zarur. Tessitura⁴ nuqtai nazaridan umumiy ovoz diapazonining o'rta kengligida kuylash ashulachilarga oson va qulaydir. Lekin musiqa asarida ovoz diapazoni quyi tovushlari tez-tez qaytarilsa yoki aksincha, yuqori tovushlar to'xtovsiz takrorlansa, bunday tessitura ashulachiga noqulaylik tug'diradi (birinchi holatda -past, ikkinchi holatda esa yuqori).

Bolalar ovozining sifati, uning yoqimliliği faqat ovozning mo'tadil jaranglash paytida ma'lum bo'ladi. Xuddi 7-10 yoshda bolaning qo'shiq aytish vaqtida tovush sifatining shakllanish jarayoni sodir bo'ladi. Maktab yoshida bolalar ovozining yoqimliliği notekis bo'ladi.

Ayniqsa, uning tovushlarni ifoda qilganda shu notekislik seziladi. Xor rahbarining asosiy vazifalaridan biri ovoz diapazonining barcha tovushlarida unlilarning bir tekis jaranglanishiga erishishdir. Ashula aytish vaqtida artikulasiyaning, talaffuzning tovush hosil qilishda to'g'riligiga e'tibor berish juda muhimdir.

Vokal ishida tovushlarning yumshoq va qattiq attackasidan (tovushning va ovozning bo'g'ilish shakli) to'g'ri foydalanish ovozning yoqimli chiqishi va ovozdağı bo'g'ilish, qichqirish, dimog'da kuylash kabi kamchiliklardan holi bo'lishga yordam beradi. Ovozning eng yaxshi jaranglashi odatda, primar (asosiy tovush) ohanglari, deb ataluvchi qismida namoyon bo'ladi.

Primar tovush – xonanda ovozining o'rta diapozonida joylashgan bo'lib, ovozning o'ziga xos tomonlarini ochib beruvchi bir yoki bir necha tovushlarning yengil, tabiiy va yaxshi jaranglashiga aytiladi. Bu tovushni ritm registr (birinchi oktavaning Mi-Si notalari)dan izlash kerak bo'ladi. Primar tovush ayniqsa, ashula sekin aytilayotgan paytda yaqqol quloqqa chalinadi. Diapazoni chegaralangan qo'shiqlar primar tovush uchun qimmatli badiiy material bo'la oladi. Masalan, N.Norxo'jayevning «Yaxshi bola», o'zbek xalq qo'shiqlaridan «Oq terakmi, ko'k terak», «Choriy chanbar» lar ana shunday qo'shiqlar sirasiga kiradi.

Shunday qilib, ovozlarning uncha katta bo'lmagan diapazoni (hajmi) hamda ularning bir turdagi jaranglashi (falset) bolalarning biz ko'rib o'tgan yoshida ovozlarni shartli ravishda «baland» va «quyi» ovozlarga bo'ladi. Faqat bir xor qatnashchisining ovozini alohida tartibda tinglash, bola ovozining past-balandligini

⁴ Tessitura – ovoz x mkonx yatx , harfmx nx bx r qx smx , ko'proq qo'shx q yokx unx ng qx smlarx nx aytx shda foydalanx ladx .

aniqlashga yordam beradi. Xorda ashula aytganda bolalarning har biri bilan alohida mashg'ulot o'tkazish qiyin bo'lsa-da, lekin rahbar xor ishtirokchisini birma-bir tekshirish, ovozini moslashtirish bo'yicha xormeysterlarning mashg'ulotlarini o'tkazish kabi shakllardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bolalar ovozini asrash xormeysterining (xor ustasi, rahbari) eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bolalar bilan faol mashg'ulotlar o'tkazish kerak, lekin ularning ovozlarini charchatib qo'ymaslik lozim. Qo'shiqchilik san'ati ma'lum miqdorda murakkab bo'lishi mumkin, biroq ular bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi kerak. Ayniqsa, ijro etilayotgan asarning diapazoniga va tessitura shartlariga diqqat-ye'tibor bilan munosabatda bo'lish lozim. Bolalar xoridagi butun ashula jarayoniga jamoa qatnashchilarining jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, tuzatishlar kiritilishi lozim.

Ashula aytish ko'nikmalariga ega bo'lmagan o'quvchi kuylayotgan paytda yelkalari ko'tarilib, nafasi tiqilib qolayotgandek notekis nafas oladi. Bunday nafas olish esa tovush chiqarishga va bola organizmiga salbiy ta'sir etadi. Ulardagi bu kamchilikni yoqotish uchun bolalarning diqqat-ye'tiborini diafragma (qorin bo'shlig'i)ga qaratish, ularni yelkadan emas, ko'krak qafasi bilan nafas olishga va chiqarishga o'rgatish lozim. Qorin mushaklarini ishga solish kerak. Kattalarga taqlid qilib, bolalar ko'pincha baland ovoz bilan qo'shiq aytishga tirishadilar. Ular zo'riqib aytish bilan yoqimli aytish bir xilda deb o'ylashadi. Bolalarga bu tushuncha noto'g'ri ekanligini, ovoz sifati yoqimlili, diapazoni, tovushlarning tekisligi va ovozdan foydalana bilishga bog'liqligini tushuntirish lozim.

Qo'shiq aytish jarayoni oldindan rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Bolalarning baqirib, zo'rqqan ovozda ashula aytishlariga yol qo'ymaslik kerak. Bolalarni vokal mashg'ulotlarida chiniqtirish, ovozlarni rivojlantirish, ashula aytish ko'nikmalarini o'rgatish lozim. Bolalar ovozining asosiy sifatlari yengillik va jarangdorlik bo'lib, tabiatiga ko'ra ular inson organizmining yosh xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Bolalar ovozining ana shu o'ziga xos jihatlari haqida doimo o'ylash va ularni saqlash juda zarur.

Kichkintoylar xori

Vokal-xor jamoasiga yaxshi va a'lo darajadagi musiqaviy qobiliyat va sog'lom ovozga ega bo'lgan bolalargina qabul qilinadi.

Biroq tajriba o'rtacha musiqaviy qobiliyatga ega bo'lgan bolalarni ham qabul qilish mumkinligini ko'rsatmoqda. Uslubiy jihatdan to'g'ri, muntazam olib boriladigan mashg'ulotlar davomida kichik yoshdagi bolalarda musiqaviy qobiliyat ochiladi, eshitish, xotira xususiyatlari rivojlanadi, aniq ifoda etishni o'rganishadi.

Jamoaga qabul qilish ikki bosqichdan iborat:

- birinchi bosqichda, xor rahbari bolalarning musiqaviy eshitish qobiliyati, musiqaviy xotira va aniq ifoda qobiliyatini tekshiradi.

- ikkinchi bosqichda esa, xor rahbari xorga tanlangan bolalarning yakka tartibda ovoz xususiyatlari bilan tanishadi va ularni xor guruhiga bo'ladi.

Oldindan alohida jurnal ochilib, unga bolaning u yoki bu musiqaviy va ovoz ko'rsatgichlari qayd qilinadi. Jurnal uchun quyidagi sxemalar taklif etiladi.

№	Bolalar ismi va familiyasi	Tugʻilgan yili	Maktab, sinfi	Musiqashitish qobiliyati	Ritm tuygʻusi	Ovoz turi	Musiqasavodi	Xulosa


Ikkinchi jurnalda esa umumiy maʼlumotlari belgilanadi.

№	Bolalar ismi va familiyasi	Turar joyi	Telefoni	Ota-onasining ishlash joyi
				F.I.O Ishlash joyi

Kichik yoshdagi bolalarning qobiliyatini tekshirish uchun tanish boʻlgan qoʻshiqlarni cholgʻu asbobidan foydalangan holda eshittirish tavsiya etiladi.

“Aziz boʻston - Oʻzbekiston”.

Dilorom Omonullayeva musiqasi, Mirpoʻlat Mirzo sheʼri.



Bu dun-yo-da cha-man-lar ko'p Bu dun-yo-da Va-tan-lar ko'p

Bar-cha-si-da yash-nar gul-lar Bar-cha-si-da yay-rar dil-lar

Me-ning u-chun a-ziz bo's-ton, O'z-be-kis-ton ! O'z-be-kis-ton

Me-ning u-chun a-ziz bo's-ton, O'z-be-kis-ton ! O'z-be-kis-ton !

Qoʻshiqlar ijro etilishi mumkin. Bu qoʻshiqlardan tashqari primar (qulay) tovushlardan tuzilgan oddiy kuy namunalarini chalib berish mumkin. Bolalar bu kuyni tinglab, cholgʻu yordamisiz ovoz bilan qaytarishadi. (Lya, lya, lya; na, na, na yoki pam, pam, pam).



Xor rahbari shu yol bilan bolalarning musiqa eshitish qobiliyatini, ovoz balandligini, ohangni ilg'ab olish darajasini, xotirasini aniqlaydi. Odatda shunday bolalar ham borki, oddiy kuylarni ham ilg'ab ololmaydilar. Bunday vaziyatda ularning musiqa eshitish qobiliyati, alohida, qulay registrdagi tovushlarni qaytarib ko'rish bilan aniqlanadi. Agar bola cholg'u asboblari ohangini takrorlay olmasa, xor rahbari o'z ovozi vositasida bolaga biror bir kuy yoki qo'shiqdan namuna ko'rsatishi mumkin. Agar bola shundan keyingina tovushni to'g'ri takrorlay olsa, demak, unda eshitish qobiliyati yetarli ravishda rivojlanmagan bo'ladi. Bunday bolalar ham xorga qabul qilinsa bo'ladi va xor rahbari nazoratida ma'lum bir vaqtgacha kuzatiladi.

Bolalarning ritmik tuyg'usi murakkabligi turlicha bo'lgan usullar bilan sinab ko'riladi. Xor rahbari tomonidan berilgan usullar ohangini bolalar chapak chalib qaytarishlari kerak. Agar oddiy usul to'g'ri takrorlansa, keyin chapak yordamida murakkabroq usul beriladi.



Bolalar musiqaviy xotirasi kuylardan parchalarni ketma-ket takrorlash vositasida tekshiriladi.

Shundan so'ng bolaning ovoz imkoniyatlarini tekshirishga o'tish lozim. Xor rahbari ovozining yoqimlilik, kuchi va diapazoni haqidagi ma'lumotlarni yozib boradi. Ovoz diapazoni ayrim qo'shiqlarni, mashqlarni turlicha–yuqori va pastki pardalarda kuylatib tekshiriladi, diapazonlarning yuqori va quyi tovush nuqtalari aniqlanadi.

Tashkiliy masalalar

Kichkintoylar xorida bolalar ikki xor guruhlariga bo'linadi. Birinchi guruh yengil, yorqin, diapazoni birinchi oktava Re va ikkinchi oktava Mi oralig'idagi ovozga ega bo'lgan bolalarni o'tkazish mumkin. Ikkinchi guruhda esa–mustaqil kuylash qobiliyatiga ega bo'lgan va birinchi oktava Do-Si oralig'idagi diapazonda qo'shiq ayta oladigan bolalar o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Kichkintoylar xorining umumiy soni 50-60 nafar bolalardan tashkil topsa yetarli darajada bo'ladi. Xor mashg'ulotlari haftada ikki marta ikki soatdan o'tilishi maqsadga muvofiq.

Bunda mashqlar o'rtasida tanaffus bo'lishi lozim. Xor jamoasi doimiy, maxsus jihozlangan, keng, issiq, yaxshi aks-sado beradigan xonaga ega bo'lishi kerak. Odatdagi xor xonalari yoy shaklidagi uch-to'rt zinadan iborat amfiteatrqa o'xshaydi. Har bir zinaga stullar qo'yiladi. Bunday vaziyat ko'rinishga qulaylik tug'diradi va har bir bolaning ovozini yaxshi, aniq eshutilishga imkon beradi. Xordan ma'lum uzoqlikda fortepiano (royal) qo'yiladi. Darslarni akkordeon, bayan, dutor, rubob jo'rligida ham o'tkazish mumkin.

Xor xonasida kitoblar, jurnal, xor jamoasi tarixini aks yettiruvchi rasmlar, jamoa konsertlari haqida fikrlar yozilgan daftar, nota daftarlar, o'quv qurollari saqlanadigan shkaf bo'lishi lozim. Konsertlarda ishtirok etish uchun xor qatnashchilarida bir xil sahnaviy liboslar bo'lishi kerak.

Xor jamoasi faoliyatining muvaffaqiyatini ta'min etuvchi omillardan biri – intizomdir. Intizom o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Xor rahbari va jamoa faollari olib borgan tarbiyaviy ishlar natijasida yuzaga keladi.

Xor rahbari o'quv -yili davomida o'tadigan jamoa ishlarini rejalashtiradi. Ish rejasini tuzganda o'quv-tarbiyaviy masalalar, dastur, konsertlar, madaniy-ommaviy tadbirlarda ishtirok etish kabilar nazarda tutilishi kerak.

O'quv tarbiyaviy ishlarda dastur masalasi muhim ahamiyatga ega. Yaxshi o'ylab tuzilgan dastur xor jamoasini to'g'ri ijodiy o'sishga, vokal-xor malakasini oshirishga yordam beradi, bolalarni qiziqtiradi.

O'quv yili davomida bolalar bilan suhbatlar o'tkaziladi, bastakorlar va shoirlar bilan uchrashuvlar hamda teatr va konsertlarga borish uyushtiriladi.

3-mavzu. Bolalar xor jamoalari (o'rta va katta yoshdagi bolalar xori) (2 soat)

O'rta yoshdagi bolalar xor jamoasi

Vokal–xor jamoasi eng ommaviy san'at jarayonlaridan biridir. Uning ommabopligi xorga har bir o'quvchi yoki xonanda qabul qilinaveradi degani emas, balki musiqiy iste'dod va salohiyat mavjudligi muhimdir. Xorda kuylashning

qulaylik jihatlari ham bor. Masalan, vokal-xor ijrochilari uchun alohida cholgʻu asboblarning zarurati yoq yoki ularga yakka tarzda vazifalar ham berilmaydi. Shu bilan bir qatorda ashula aytishning oʻziga xos tomonlari bilan bogʻliq oʻz qiyinchiliklari ham yoq emas. Xonandaning ovozi oʻziga xos «musiqa asbobi» hisoblanadi. Biroq kuylashdan oldin tinglay bilish ham kerak. Tinglaganda ham ayrim musiqa tovushlarini yoki ohangni tashkil etuvchi tovushlarning ketma-ketligini aniq yetkazib bera oladigan darajada eshita bilish kerak. Oʻz-oʻzidan maʼlumki, ashula aytish uchun, bolada avvalo, tabiiy musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira va aniq ifodalay bilish qobiliyati boʻlishi zarur. Oʻquv -yilining boshida bolalardagi ana shu fazilatlaridan kelib chiqib, xorga xonanda bolalar qabul qilinadi. Vokal-xor jamoasiga faqat yaxshi va aʼlo darajadagi musiqiy qobiliyatga hamda sogʻlom ovozga ega boʻlgan bolalargina qabul qilinadi. Biroq tajriba oʻrtacha musiqiy qobiliyatga ega boʻlgan bolalarni ham qabul qilish mumkinligini koʻrsatmoqda. Uslubiy jihatdan toʻgʻri va muntazam olib boriladigan mashgʻulotlar davomida ulardagi musiqiy qobiliyat ochib boriladi. eshitish, xotira xususiyatlari rivojlanadi va aniq ifoda etishni oʻrganadi.

Bolalarni tinglab koʻrish, ularning qaysi (kichik, oʻrta yoki katta yoshdagi bolalar xoriga) vokal-xor guruhiga qabul qilinishidan qatʼi nazar, yagona tamoyil asosida oʻtkaziladi. Oldindan alohida jurnal ochilib, unga bolaning u yoki bu musiqiy qobiliyati va ovoz koʻrsatgichlari qayd qilinadi. Bolalarning kuyni ilgʻab olish tuygʻusini, musiqiy xotirasini, ashula ayta olish darajasini aniqlash uchun turli ohangdor, kuy namunalaridan foydalanadi. Har bir bola uchun alohida musiqiy parchalar tayyorlashning zarurati yoq. Oldindan tayyorlangan kuy namunalari, musiqiy parchalar vositasida har bir bolaning musiqiy va ashula aytish qobiliyatini sinab koʻrish mumkin. (La, la, la; na, na, na yoki pam, pam, pam).

Misol:





Vokal–xor jamoasiga qabul qilingan bolalar alohida-alohida tekshiruvdan o‘tkaziladi. Ularning har biriga o‘zi uchun tanish bo‘lgan qo‘shiqni jo‘rsiz, ya’ni cholg‘u asbobi yordamisiz kuylab ko‘rish tavsiya etiladi. O‘qituvchi shu yol bilan bolaning musiqa eshitish qobiliyatini, ovoz balandligini, ohangni ilg‘ab olish darajasini va musiqiy xotirasini aniqlaydi. Bolalarning musiqa eshitish qobiliyati cholg‘u asboblari ohangidan olingan alohida-alohida qulay registrdagi tovushlarni ovozi vositasida qaytarib ko‘rish bilan aniqlanadi. Agar bola cholg‘u asboblarning ohangini o‘z ovozi yordamida takrorlay olmasa, xor rahbari o‘z ovozi vositasida bolaga namuna ko‘rsatishi kerak. Agar bola shundan keyingina tovushni to‘g‘ri takrorlasa, demak, unda eshitish qobiliyati yetarli darajada rivojlanmagan bo‘ladi. Bunday bolalar ham vokal-xor jamoasiga qabul qilinadi. Bolaning usulni ilg‘ab olish darajasini esa murakkabligi jihatidan turlicha bo‘lgan usullar bilan sinab ko‘riladi. Masalan, rahbar tomonidan ovozda yoki cholg‘u asboblarda chalingan ohangning usulini bolalar kaftlarini bir-biriga urish yoki qalamni stolga urish bilan bajarishi mumkin. Agar stolda usul to‘g‘ri takrorlansa, keyin murakkabroq usul orqali sinab ko‘rish kerak.



Bolaning musiqa xotirasi kuylardan parchalarni ketma-ket takrorlash vositasida tekshiriladi. Kuylashning bola uchun qanchalik qiyin yoki oson bo‘lishi uning yoshiga bog‘liq. O‘rta va katta yoshdagi bolalar uchun esa birmuncha murakkab

kuylar tanlanadi. Shundan so‘ng bolaning ovoz imkoniyatlarini tekshirishga o‘tish mumkin. Jamoa rahbari ovozning yoqimlili, kuchi va diapazoni haqidagi ma’lumotni yozib oladi.

Ovoz diapazoni ayrim qo‘shiqlarni, mashqlarni turlicha, ya’ni yuqori va quyi pardalarda kuylatib tekshiriladi, ovoz diapazonining yuqori va quyi tovush nuqtalari aniqlanadi. Bunda avvalo bolaning xor guruhida ashula ayta olish qobiliyati aniqlanadi. Agar diapazonda quyi va yuqori tovushlar bo‘lib, o‘rta tovushga ega bo‘lsa, bunday ovoz uchun alt (past ovoz) guruhi maqsadga muvofiqdir.

Diapazoni kuchli ovozning qaysi partiyaga mansubligi quyidagicha aniqlanadi: agarda diapazonda quyi tovushlar kuchli bo‘lsa alt partiyasiga, yuqori tovushlar kuchli bo‘lsa diskant (yuqori ovoz) guruhiga mansub bo‘ladi.

Birinchi diskantlar guruhiga yuqori, ayni paytda, yoqimli ovozga ega bo‘lgan bolalarni tanlash kerak. Chunki ijro etilayotgan asarning asosiy og‘irligi boshqa ovozlarga nisbatan ko‘proq birinchi diskantlar zimmasiga tushishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Alt guruhini aniqlashda quyi pardalarning zo‘riqmasdan, kuchli va shirin jaranglashiga asoslaniladi. Ashula aytish jarayonida ovozning quyi pardalari birmuncha yorqin jaranglagan bolalar alt guruhiga mansub bo‘ladi.

Bolalar vokal-xor jamoasiga qabul qilish uchun sinab ko‘rilganda, ularning ko‘pchiligini hayajonlanishi tufayli o‘zlarining butun imkoniyatlarini namoyon qilolmasligini nazarda tutish lozim. Vokal – xor rahbari bolalarning tortinchoqlik qilmasdan o‘zlarining musiqiy va kuylash qobiliyatlarini, imkoniyatlarini ko‘rsatishlariga har tomonlama yordam berishi kerak bo‘ladi.

Xorning jo‘r ovozlari, uning aniq va jaranglashi xonandalarning ma’lum bir soniga bog‘liq. Qo‘shiq aytuvchilar sonini keragidan ortiq darajada ko‘paytirib yuborish bilan jamoa ovozi yaxshilanmaydi. Bolalar vokal-xor jamoasida har bir alohida yosh guruhiga eng ko‘pi bilan 50-60 kishi bo‘ladi. Shunday qilib, kichik, o‘rta va katta yoshdagi guruhlarining hammasida 150-180- nafargacha bola bir paytning o‘zida xorda ishtirok etishi mumkin.

Ijroning ta’sirchanligi xor ishtirokchilarining miqdoriga emas, balki ular ovozining sifatiga, ijrochilik mahoratiga bog‘liq. Vokal-xor jamoasini tashkil etishning dastlabki davrlarida qatnashuvchilar sonini ko‘paytirmaslik kerak. Ular 30-40 nafardan iborat bo‘lsa-da, lekin bu bolalarning musiqiy va kuylash qobiliyatlari yaxshi, jarangdor, yoqimli bo‘lishi kerak.

Yeslatma o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, asosiy guruhdan tashqari vokal-xor guruhida xonandalar zahirasi ham bo‘lishi maqsadga muvofiq. Chunki konsertlarda ayrim sabablarga ko‘ra ba’zi bolalar ishtirok eta olmay qolishlari mumkin, bunday hollarda zahiradagi bolalar ular o‘rnini to‘ldiradi.

Bolalar vokal-xor jamoasida intizom masalalari

Vokal-xor jamoasi faoliyatining asosiy qirralaridan biri - intizomdir. Intizomga rioya qilgan har bir jamoa katta yutuqlarga erishishi mumkin.

Jamoa ishida ikki xil intizom mavjud: bu tashqi va ichki intizomdir. Mashg‘ulotlarga o‘z vaqtida qatnashish, mashg‘ulot paytida gaplashmaslik, rahbarning har bir ko‘rsatmasini bajarish, to‘g‘ri holatni saqlash kabilar tashqi

intizom sirasiga kiradi. Tashqi intizom ichki intizomga zamin yaratadi. Vokal-xor qatanashchisi diqqat-ye'tibori, sezgirliги, rahbarning ko'rsatmasini har daqiqada bajarishga tayyorligi ichki intizom sifatida tushuniladi. Intizom o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U jamoa rahbari va faollar olib borgan tarbiyaviy ishlar natijasida yuzaga keladi. Vokal-xor ijrochiligi ijodiy jarayon bo'lganligi tufayli, intizomga ongli ravishda yondoshish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni qo'rqitish asosida erishilgan intizom ijodiy ishga xalaqit berishi amalda o'z isbotini topgan. Rahbarning o'zi odob-intizomda boshqalarga namuna bo'lishi kerak.

Mashg'ulotlar belgilangan vaqtda va o'z joyida boshlanishi zarur. Xona o'ng'ay, keng va yorug' bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ongli intizomni ta'minlashda jamoadagi ijodiy muhitning ahamiyati katta. Bunda dastur sifati, rahbarning ish uslubiyoti kabilar nazarda tutilmoqda. Ongli intizomni tarbiyalashda tushuntirish va ishtirokchilarni ishontirishdan tashqari, kamchilikni ko'rsatish, jamoa o'rtasida hayfsan berish, vokal-xor qatnashchisini axloqini umumiy jamoa yig'ilishida muhokama qilish va so'nggi chora sifatida vokal-xor jamoasi tarkibidan chiqarish kabi choralarni ham qo'llash mumkin. Jamoatchilik fikri intizomsizlikka qarshi eng ta'sirchan vositadir. Ongli intizom o'rnatish uchun rahbar jamoatchilik fikriga tayanishi lozim.

Bolalar xorini joylashtirish

Har bir vokal-xor qatnashchisi mashg'ulotlar va konsertlarda ham o'zining joyini aniq bilishi kerak. Vokal xor guruhlarining mashg'ulotlarida bolalar bir qator turishib, ashula aytishadi. Guruhlar qo'shib mashg'ulot o'tkazilganda esa, har bir guruh alohida qatorda turadi. Bolalarning ovoz imkoniyatlariga qarab rahbarning o'zi joylashtiradi. Sahnaviy chiqishda, ya'ni konsertda ham shunday holat saqlanadi. Ba'zi konsertlarda bolalar bo'yiga qarab joylashtiriladi. Albatta bunday joylashtirish vokal-xor jamoasi jarangdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki muntazam ravishdagi mashg'ulotlarda shakllangan ansambllarning tartibi buziladi. Mashg'ulotlar va konsertlarda bolalar jamoasini joylashtirish turli ko'rinishlari mavjud.

Ikki ovozli xorlarda odatda:

Diskantlar ⁵ -sopranolar	Alt ⁶ lar
Dirijor	

Yoki aksincha

Altlar	Diskantlar-sopranolar
Dirijor	

tartibida joylashadi.

Uch ovozli xorlarda:

⁵ Dx skant – sopranolar – o'g'x l va qx z bolalarnx ng yuqorx ovozx .

⁶ Alt - o'g'x l va qx z bolalarnx ng pastkx ovozx .

Sopranolar-diskant 1	Sopranolar-diskant 2	Alt
Dirijor		

To‘rt ovozli xorlarda:

Sopranolar-Diskant 1	Alt 1
Sopranolar-Diskant 2	Alt 2
Dirijor	

yoki:

Sopranolar-Diskant 2	Alt 2
Sopranolar-Diskant 1	Alt 2
Dirijor	

yoki:

Sopranolar-Diskant 1
Sopranolar-Diskant 2
Alt 1
Alt 2
Dirijor

kabi tartibda joylashtirish mumkin.

Xorni sho‘balar bo‘yicha joylashtirganda har bir guruh chegarasida qobiliyatli va musiqaviy imkoniyatlari puxta bolalardan qo‘yiladi. Mabodo, xor sho‘balari ketma-ket joylashtirilganda ovozlari kuchli bolalar xor guruhining ikkinchi qatoriga qo‘yiladi.

4-mavzu. O‘smir yoshdagi bolalar xor jamoalari bilan ishlash uslubi (ovoz xususiyatlari, soz bo‘yicha ishlash, nafas olish uslublari va boshqalar) (2 soat)

O‘smirlar ovozini tarbiyalash va rivojlantirish

11-18 yosh o‘smirlarning organizmida ularning butun hayotiy faoliyatlariga ta’sir etuvchi katta anatomik-fiziologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Uning ovoz apparatida ham murakkab jarayonlari yuz beradi. Ovoz apparatining shakli bola organizmidagi alohida a’zolarining o‘sishi bilan bog‘liq. Ayniqsa, bunday hol o‘g‘il bolalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularning ovoz bog‘lamlari uzunasiga kengayadi, eniga esa odatda o‘zgarmaydi. Bo‘g‘iz tez o‘sadi. Ayni paytda, hiqildoq ostining o‘smay qolish hollari ham tez-tez uchrab turadi. Bunday hollarning paydo bo‘lishi nafas olish organlari va bo‘g‘iz faoliyatining buzilishi bilan bog‘liqdir.

Shunday hodisalarni qiz bolalarda ham kuzatish mumkin, lekin o‘g‘il bolalarda bo‘lganidek aniq shaklda emas. Mutasiya davrining xarakterli tomonlaridan hisoblangan bo‘g‘izning tez o‘sishi ovoz rivojlanishdagi birmuncha murakkab va xavfli payt hisoblanadi. Ovoz apparati 15 yoshdan 18 yoshgacha sekinlik bilan shakllanib boradi. 19 yoshda uning rivojlanishi asosan to‘xtaydi. 11 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan butun davrni uchta bosqichga ajratish mumkin:

1. 11-13 yosh - balogʻatga yetish arafasi, ovoz apparatida hech qanday katta oʻzgarishlar boʻlmaydi.

2. 13-15 yosh – mutasiya⁷ davri (balogʻat yoshining boshlanishi)

3. 15-18 yosh – balogʻatga yetish, boʻgʻiz va butun ovoz apparati rivojlangan va shakllangan bosqich.

Bu bosqichlarning har biri oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, ularni xor rahbari yaxshi bilishi lozim. Bolalar organizmi favqulodda xilma-xil rivojlanadi. Mutasiya davrida u yoki bu alomatlarni paydo boʻlish muddatlari ham turlicha. Shu tufayli xor jamoasida har bir bolaga alohida munosabatda boʻlish lozim. Mutasiya davrining yaqinlashib qolganini aniqlash juda qiyin. Odatda mutasiya arafasida bolaning ovozi sezilarli ravishda tiniqlashadi, kuchga toʻladi. Biroq bola tez orada avval osonlik bilan ijro etgan diapazonning yuqori tovushlarini endilikda zoʻriqish bilan aytadigan boʻlib qoladi. Ular tez–tez ohangni buzib, notoʻgʻri ashula ayta boshlaydi. Ovoz bir xilligi, yoqimlili, jarangdorligi yoqoladi. Ovoz diapazonida sezilarli oʻzgarishlar sodir boʻladi. Qizlarda bir-ikki pardaga pasayadi, oʻgʻil bolalarda esa bir oktava va undan koʻp darajada pasayadi. Boʻgʻizning yalligʻlanishi, shilliq moddaning koʻpayishi, nafas olish funksiyasining buzilishi baʼzan ovozning yoqolishiga olib keladi. Bu ayniqsa, oʻgʻil bolalar uchun xos boʻlsada, lekin qiz bolalarda ham kam boʻlsa-da uchrab turadi.

Mutasiya davri oʻgʻil bolalarda 6-9 oydan 2-3 -yilgacha davom etadi. Qiz bolalarda uzoq vaqt davom etmasa-da, 15-16 yoshda takrorlanishi yoki shu yoshda birinchi marta boshlanishi mumkin.

Mutasiya arafasida muntazam ashula aytish bilan shugʻullanish ovozning birmuncha silliq, bir tekis oʻzgarishiga va hatto mutasiya davrida ham ashula aytaverish imkonini beradi. Mabodo, mutasiya oʻtkir holatda namoyon boʻlsa maʼlum davrgacha mashgʻulotni toʻxtatib turishga toʻgʻri keladi. Mutasiya davrida vrach-foniatorga murojaat qilish juda muhim. Bu davrda vokal mashgʻulotlarining vaqtini qisqartirib, baland tovushda kuylatishni bir oz kamaytirishga toʻgʻri keladi. Toliqishning birinchi alomatlari koʻzga tashlanganda mashgʻulotni toʻxtatish kerak boʻladi. Bularni xor rahbari bilishi va bolalarga ham tayinlashi zarur. Mabodo, mutasiya davrida ashula aytish butunlay toʻxtatib qoʻyilsa, tovush chiqaruvchi organlarda yolga qoʻyilgan kordinasiyalarning yoqolishiga olib keladi. Aksincha, muntazam ravishda chegaralangan vaqtda ashula aytish davom ettirilsa, ana shu kordinasiyalar saqlanib qoladi va mustahkamlanadi. Oʻgʻil bolalar mutasiya arafasida ashula aytish bilan muntazam shugʻullanib borsalar, mutasiya silliq va sezilmay oʻtishi mumkin. Ular ovozini yetarli darajada boshqarib, oʻzlariga qulay tovushlarni tanlab, kuylashlari mumkin. Odatda, bunday vaqtda diskant altlar partiyasiga oʻtishadi. Muntazam ravishda olib boriladigan mashgʻulotlar jarayonida ovoz bogʻlamlarining oʻsishi notekis boʻlsa-da, diapazonini kengaytirishda ehtiyot boʻlish lozim. Oʻsmir yoshdagi bolalarning diapazoni: birinchi ovoz (soprano, diskantlar) birinchi oktavadagi Do-Re notalaridan ikkinchi oktavaning Fa-Sol notalarigacha kengayadi, ikkinchi ovoz (altlar) kichik oktavadagi Lya-Si notasidan ikkinchi oktavadagi Do-Re notalarigacha kengayadi. Ayrim bolalar ovozining diapazoni birmuncha katta (birinchi ovozda 2 oktava Lya notasigacha, ikkinchi ovozlarda esa

⁷ Keyx ngx yx llarda balogʻat yoshx nx ng boshlanx shx bx r muncha ertaroq sodx r boʻlx sh hollarx ham uchrab turadx. Ayrm m hollarda 11 yoshdan balogʻat yoshx ga etgan bolalar ham uchraydx.

kichik oktavadagi Sol notasigacha) bo'lishi mumkin. Albatta, diapazonning chetki tovushlari ashula aytish uchun noqulay, ulardan foydalanish ba'zan salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Birinchi ovozlari uchun diapazonning birmuncha qulay qismi 1-oktavadagi Sol notasidan 2-oktavadagi Mi notasigacha, ikkinchi ovozlari uchun esa 1-oktavadagi Re notasidan Si notasigacha bo'lgan qismlar ma'qul.

Agar qo'shiqda diapazonning yuqori tovushlari tez-tez takrorlansa, demak, asarning tessiturasida baland, agar past tovushlar ko'p uchrasa, asarning tessiturasida past hisoblanadi. Asarning past yoki baland tessiturasida ijro etish sun'iy aytishga olib keladi, bola ovozigacha salbiy ta'sir etadi. Ana shuning uchun ham, xor rahbari asar tanlaganda tessitura qulayliklarini nazarda tutmog'i kerak.

O'smir yoshda o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham tovush chiqarish mexanizmining farqi aniq bilinadi. Qiz bolalarda diapazonning asosiy qismini markaziy registr⁸ tashkil etadi. Shu registr tabiatan aralash tovush chiqarishga moslashgan. Sof ko'krak va yuqori sado faqat chetki notalardagina tinglanadi. O'g'il bolalarda esa aralash sado sun'iy yo'l bilan chiqariladi. Shu tufayli ham ularning ko'pchiligi cheklangan diapazonga ega bo'lishadi, chunki ashula aytish paytida ko'proq ko'krak registrdan foydalanishadi. Asosiy va aralash registrdan tovush chiqarishni o'rganib olishgandan keyingina ular o'z diapazonlarini kengaytiradilar va birinchi ovozlari safigacha o'tishadi.

Qiz bolalar ovozi tabiatan markaziy (o'rta) registrga ega bo'ladi. Bunday hol ovoz diapazonining barcha notalarini tekis chiqishiga imkon beradi.

O'g'il bolalarda bunday registrda kuylash birmuncha murakkabdir. Bu borada o'ziga xos turli ovoz mashqlari bilan o'g'il bolalarda ham shu registrda ko'nikma hosil qilish mumkin.

Bolalar ovozi tarbiyalashda aralash ovoz turini takomillashtirib borish katta ahamiyatga ega. Bu ovozning mayin chiqishiga, registrdan registrga o'tishni osonlashtirishga, diapazonning barcha notalarida bir tekisda kuylashga yordam beradi.

Yuqori ovozli qiz bolalarda ko'krak registrdan o'rta registrga o'tish notasi 1-oktavaning Mi-fa-fa diyez pardalari hisoblanadi, o'rta registrdan bosh registrga o'tish notasi esa 2-oktavaning Mi-fa-fa diyez pardalari hisoblanadi. Past ovozlarda esa o'tish notalari 1-oktavaning pardalari, o'rta registrdan bosh registrga o'tish notalari 2-oktavaning Do-Re pardalari hisoblanadi. o'g'il bolalarda ikkita registr bo'lganligi tufayli, bosh sadolariga olib boruvchi tovushlar o'tish notalari hisoblanadi. Masalan, diskant-sopranolarda 2-oktavaning Mi-fa-fa diyez notalari, altlarda esa 1-oktavaning Si 2-oktava Do notalari hisoblanadi.

O'smir yoshdagi bolalarda ko'krak registrdan o'z o'rnida foydalanish lozimligini rahbar yaxshi bilishi kerak. Chunki ko'krak registrda keragidan ortiqcha foydalanilganda bola ovozi baqiroq qilib qo'yish mumkin. Ovoz kuchi diapazon bilan bevosita aloqada bo'ladi. Diapazonning turli qismlaridan ma'lum bir ovoz kuchlilikini talab qilish mumkin. Aks holda ovozga qattiq zarar etishi mumkin.

Bola ovozi kuchli tiklanish davrida baland bo'lmaydi. Zero, buning unchalik ahamiyati ham yoq. Bola ovozi go'zalligi uning jarangdorligi, yengilligi, soddaligida. Ovozning tabiiy kuchi yordamida jaranglikka, sadolarning

⁸ Regx str – ovoz dx apazonx nx ng bx r qx smx . Ovoz pastkx yokx ko'krak regx strx , yuqorx (yokx bosh regx str-faltset) va aralash regx strlarga ega bo'ladx .


jozibadorligiga, yoqimlilikiga erisha borib, bu bilan rahbar bola ovozinig rivojlanishini ta'minlaydi. Bola ovozinig eng baland sadosiga o'rtacha kuch bilan erishiladi.

Ovoz jarangdorligi ko'p hollarda tembrga (ovoz tusi va chiroyiga) bog'liq bo'ladi. O'smir yoshda olib boriladigan muntazam va to'g'ri ashula aytish jarayonida tembr o'sha ovoznig o'zigagina xos bo'lgan sifatlarga ega bo'lib boradi. Tembrni to'g'ri tarbiyalash, ayni paytda, bolalarni diapazonning turli qismlarida unli tovushlarni to'g'ri va jarangdor ijro etishga o'rgatish demakdir. Tembr ovozinig o'ziga xos bebaho xususiyati, uni tarbiyalash va shakllantirish. Tembr sifatiga ikki yol bilan ta'sir etiladi. Birinchisi – registrni (ko'krak va bosh registrlarni) almashtira borib va ovoz pardalarini o'zgartira borish orqali, ikkinchisi esa tovushni kuchaytiruvchi bo'shliq (hiqildoq, og'iz) hajmini o'zgartirish yoli bilan ta'sir etish mumkin.

Ovozni to'g'ri rivojlantirish uchun u qaysi guruhga mansub ekanligini oldindan aniqlash muhim. Buning uchun rahbar u yoki bu tipdagi ovozni sifatlovchi xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Birinchi soprano guruhida yuqori registri jarangdor va harakatchan ovozli bolalarni ajratish mumkin. Birinchi saprano diapazoni quyidagicha:

1-oktavaning Do-Re notalaridan 2-oktavaning Sol-Lya notasigacha bo'ladi.


Ovoznig butun hajmini odatda uch (quyi, o'rta, yuqori) tessitura registrlariga ajratiladi (bularni ko'krak, o'rta va bosh registrlar bilan almashtirish kerak emas). Quyi registr barcha guruhlarda xira, yuqori registrda esa - tarang bo'ladi. Ovoznig eng yaxshi sifatlari, odatda, o'rta registrda namoyon bo'ladi. Birinchi sopranolar diapazoni:



Ikkinchi soprano diapazonining yuqori qismida birmuncha xira eshitiladi, biroq ularning o'rta registri birmuncha shirali va jonli bo'ladi.




Birinchi altlar diapozonining jarangdorligi bilan ajralib turadi.



Ikkinchi altlar esa diapazonning quyi qismida birinchisiga nisbatan birmuncha yumshoq jarangi bilan ajralib turadi. Bu guruhda, odatda mutasiya davri boshlanayotgan bolalar ashula aytishadi.

Ikkinchi altlar diapazoni:



Biroq ovozni faqat diapazon bo'yicha qaysi guruhga mansubligini aniqlash qiyin. Quyidagi tartibda aniqlans, birmuncha to'g'ri bo'ladi. Rahbar taxminiy (tabiiy ovozning o'ziga xos alomatlarini ifoda etuvchi bir qator tovushlarning jaranglagan paytini) notalar oralig'ini topib, diapazonni va tembrni, shuningdek o'tish notalarini va ovozning qanday tessituraga xos ekanligini aniqlaydi.

Mabodo, taxminiy zona (ma'lum tovushlar orlig'i) 1-oktavaning Fa-Sol notalari oralig'ida joylashgan bo'lsa, tembr jarangdor bo'lib, o'tish (oraliq) notalari 2-oktavaning Do-Re notalari bo'ladi. Birmuncha qulay diapazon 1-oktavaning Re-Si notalari atrofida bo'ladi. Bunday ovoz xususiyatiga ega bo'lgan bolalar alt guruhiga qabul qilinadi. Mabodo, taxminiy zona 1-oktavaning Si notasi 2-oktavaning Do notasi oralig'ida joylashgan bo'lsa, tembr yengil, yorqin jaranglaydi. 2-oktavaning Mi-Fa notalari o'tish (oraliq) notalari hisoblanib, bunday ovozlarni soprano va diskantlarga mansub deyish mumkin. Shunday qilib, ovozni shakllanishi o'smir yoshida juda murakkab bo'ladi. Shuning uchun rahbarlarning har bir ishtirokchisiga nisbatan diqqat e'tiborli va sezgirligi ishning muvaffaqiyati uchun zaruriy shart hisoblanadi.

O'smirlar xor jamoasi

O'smirlar xorining tashkil etish katta ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilar unda xorda ashula aytish madaniyatini egallaydilar, badiiy didlarini tarbiyalaydilar. O'smirlar xori yaxlit xor (qizlar xori, ba'zan o'g'il bolalar) va aralash xorlarga bo'linadi. Aralash xorda 14-yoshdan 18-yoshgacha bo'lgan 9-11 sinf o'quvchilari, o'rta maxsus bilim yurtlari, kollej, litsey talabalari qatnashishlari mumkin.

Ana shu tartibda ishlaydigan xor rahbari 14-18 yoshdagi o'smirlar mutasiya davrini o'tayotgan yoki o'tib bo'lganligini doimo yodda tutishi lozim. O'qish uslubiyoti ashula aytish talablari ana shu yoshdagi xonandalarning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanishi lozim. Boshqacha aytganda, rahbar yigit-qizlar ovozining yosh o'zgarishlari xususiyatlarini, ularni bir-biridan ajratib turuvchi alomatlarini va organizmining fiziologik rivojlanishi bilan bog'liq umumiy qonuniyatlarini yaxshi bilishi va undan kelib chiqqan holda mashg'ulot o'tkazishi kerak.

Qizlarda va o'g'il bolalarda mutasiyaning tugash arafasi 16-17 yoshga to'g'ri keladi. Bu davrda ularning ovozi katta odamlarning ovozlariga yaqinlashadi, biroq hali mutasiya alomatlari sezilib turadi. Jumladan, ovoz apparati tez toliqadi, tez-tez xirillab qoladi, ovoz bo'g'iladi. Biroq, xordagi yosh xonandalarning ovoz diapazoni kengayadi, uning kuch-qudrati oshib boradi. Bola balog'atga etib, tembr jozibadorligiga ega bo'ladi. Ayniqsa, bu hol qiz bolalar ovozi uchun xosdir. Balog'atga yetgan o'g'il bolalar ovoz tembrining xarakteri bas⁹ ovozida shakllanishi tenor¹⁰ ovoziga nisbatan yaqqolroq ko'rinadi. Shu tufayli ham erkaklar guruhi ajratilganda dastlab shartli ravishda tanlanadi.

Yaxlit xor bilan mashg'ulot o'tkazish nisbatan oddiygina hisoblanadi. Aralash xorda esa rahbar yigit va qizlar ovozida sodir bo'ladigan mutasiya davri yoki uning

⁹ Bas – erkaklarni ng quyx , yo'g'on ovoz .

¹⁰ Tenor – erkaklarni ng baland, yuqorx ovoz .

tugash arafasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina jihatlarga e'tibor berishi kerak.

Mazkur ikki holat o'smirlar xorida qo'shiq o'rgatish uslubiyotini aniqlaydi. Qo'shiq o'rgatish jarayoni bosqichma-bosqich olib boriladi. Xorning qo'shiq aytish ijrochiligi faoliyati orqali ko'nikmalar qay yosinda shakllanishini xonandalar bilishlari lozim. O'smirlarning endigina tashkil etilgan xori uchun past qo'shiq aytish pozitsiyasiga xos xususiyatlar, ya'ni qo'shiqni turib aytilgan ovozda zo'riqtirib aytish yoki sayoz ovoz kabilar xarakterlidir. Xordagi guruhlar o'rtasida ohangdoshlik bo'lmasligi fonetik sifat buzilishlari, ya'ni unli tovushlarning xilma-xil tovushlarda talaffuz etilishi bilan bog'liq. Xor rahbari avval boshidanoq xor ishtirokchilarining to'g'ri nafas olishini shakllantirishga, tekis ovoz chiqarishga tiniq ifodaga, aniq talaffuzga o'rgatishga erishish lozim. Bu shakllangan yuksak ashulachilik pozitsiyasida turib, xor ovozi yengil, yoqimli va jarangdor sadolanishi uchun zarurdir. Ayni paytda rahbar xor qatnashchilarining ovozida sodir bo'ladigan barcha o'zgarishlarni kuzatib va nazorat qilib turish kerak. Ovozning toliqishiga yol qo'ymaslik xor rahbarining tajribasi va mahoratiga bog'liq.

Dastlabki davrda ovoz chiqaruvchi tizimlarda o'zgarishlar xor bo'lib ashula aytganda birmuncha tiniq namoyon bo'ladi. Oradan bir oz vaqt o'tgach esa, xor ijrochiligida sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi. Bunday hol nafas olishni to'g'ri shakllantirishga yordam beruvchi legato (qo'shib) usuli natijasida yuz beradi. Legato usulida kuylash xonandalarning to'g'ri va mustahkam nafas olishga, sozning sofligi va tiniqligiga, ansamblning uyg'unligiga va talaffuzning aniq bo'lishiga olib keladi. Bunday kuylash darajasiga muntazam mashg'ulotlar orqali etish mumkin. Jamoaning rahbari birinchi mashg'ulotlardan oq xor ovozdagi xilma-xillikka barham berishga intilishi, xonandalarning bir xil qo'shiq aytish uslubiga, bir tekis nafas olish va chiqarishiga erishish lozim.

Yosh xonandalarning tekshirish va qiyoslash natijasida ularning ovozi va umuman xor ovozi qanday shakllanib borayotganligi asta-sekin aniqlanadi. Birinchi bosqichda egallangan ko'nikmalar tufayli xor ovozi bir xil jaranglashi yuzasidan birmuncha oldinga siljishlarga erishiladi. Shundan so'ng, ma'lum muddatda xor ovozi xiralik paydo bo'lishi mumkin. Buning sababi mutasiya davri va uning tugash arafasida bolalarning ovoz apparati shu yosh uchun xarakterli bo'lgan o'zgarish sodir bo'lishidandir. Bunday kuchli o'zgarish ko'proq to'g'ri nafas olishni bilmaslikdan kelib chiqadi. To'g'ri nafas olishda qatnashadigan muskullarning faoliyatini kuchaytirish uchun bu davrda xor dasturiga aniq va ravshan diksiyani talab etuvchi, quvnoq, sho'x asarlarni kiritish kerak. Xor ovozi tembr tovlanishiga, jarangdorligiga erishish uchun ham asarlar tanlay bilish lozim. Xorda har xil uslubdagi asarlarni ijro etish muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda maxsus tanlangan asarlarni o'rganish xor ovozi jarangdor va parvozli, yengil va sho'x chiqishiga yordam beradi.

Biroq dastlabki bosqichda egallangan ko'nikmalar unchalik mustahkam bo'lmaydi, shuning uchun keyingi bosqichlarda o'rgatish ishlarini to'g'ri yolga qo'yib, takomillashtirib borish talab etiladi.

O'smirlar xorida mashg'ulotlarni faktura jihatidan oddiy, ya'ni cheklangan diapazoniga ega qulay tessiturali, eng muhimi yoqimli va mayin, shuningdek yodlash uchun oson bo'lgan asarlardan boshlash kerak. Bu xonandalar e'tiborini ashula aytish

paytida nafasni to'g'ri olish va chiqarish, talaffuz, ifodaviylikka va ashulaning kantilenasiga (kuyning mayinligiga, xushohangligiga, muloyimligiga) olib keladi. Kantilena ko'nikmasi xor ijrochiligida asos deb hisoblanadi.

Mayin aytiladigan asarlarni ijro etish xonandalarning musiqaviy eshitish tuyg'ularining boyishiga, qo'shiq ohangini va tovush shakllanishini to'g'ri anglashlariga imkon beradi.

Sal keyinroq xor dasturiga nafas yollarini, talaffuzini va diksiyani faollashtirishga qaratilgan qo'shiqlar kiritiladi.

Ovoz apparati o'zi uchun yangicha bo'lgan ovoz chiqarish usuliga o'rgatib kelayotgan dastlabki bosqichda yosh xonandalarning ovozini zo'riqishidan saqlash kerak. Zo'riqish tovushlarning aniq chiqishiga xalal beradi. Ovozda jarangdorlik va yengillikni yoqotishga olib keladi. Xor rahbarlari bolalarni *mf* dinamik tusidan baland darajada kuylashlariga yol qo'ymasliklari kerak.

Ovoz diapazonining chetki (ayniqsa yuqori) tovushlaridan suiste'mol qilish ovozning zo'riqishiga yoki umuman yoqolishiga olib keladi. Bunday holdan chetlanish uchun dasturni to'g'ri tanlay bilish kerak. Dastur tanlashda ovoz diapazoni doimo kengayib borishini nazarda tutish lozim. Xorga to'g'ri saboq berishda qatnashchilar ovozini individual (yakka) tartibda tez-tez eshitib turish va nazorat qilib borish katta ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, qo'shiqni har bir ovozlar guruhi alohida o'rgansin. Shunday tartib saqlanganda xonandalar tez-tez dam olishi imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'smirlar xorida ishtirok etish yigit-qizlarning nafaqat dunyoqarashlarini kengaytiradi, shuningdek, ularning xonandalik ovozlarini ham tarbiyalab, rivojlantiradi.

O'smirlar vokal xor jamoasida olib boriladigan mashqlar

Bolalarning ovozini voyaga yetkazish uchun tayyorgarlik ko'nikmalarini hosil etish faqat qo'shiqlar bilangina emas, balki maxsus mashqlar orqali ham amalga oshiriladi. Pedagogik tajribalardan ma'lumki, vokal-xor mashqlari xonandalarning ashula aytish mahoratlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Bu mashqlar xor rahbari tomonidan uzluksiz ravishda o'tkaziladi va mashg'ulot o'tkazish vaqti rahbar tomonidan belgilanadi. Bunday vokal-xor uyushmasi ijrochilik mahorati, uning tayyorgarligi hamda vokal texnik darajasini qay holatda ekanligi muhim bo'lib, mashqlar 10-15 daqiqadan to 20 daqiqagacha davom etadi.

Mashqlar turli maqsadlarni ko'zlaydi: ovozni shakllantirish, diapazon (ovoz hajmi)ni kengaytirish, nafas olish yollarini to'g'rilash, sof talaffuz, ovoz registrleri chegarasini tekislash, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va boshqalar. Bu mashqlar xonandalarning ijroda vokal-texnik usullarini o'zlashtirib olishga yordam beradi.

Odatda, mashg'ulotlar oddiy mashqlardan boshlanadi. Ijro etiladigan mashqlar diapazoni tersiya, kvarta yoki kvinta intervallar doirasida qulay tessitura, o'rtacha tezlik va dinamik tuslarda *mf* ijro etiladi.

Shu yosinda vokal texnik mashqlar murakkablashib, bir ovozli mashqlardan ikki ovozlikka, so'ngra polifonik va gomofonik ulubida yozilgan mashqlarga o'tiladi. Mashqlarni vokal-xor registrining o'rta tovushlaridan boshlash tavsiya etiladi. Bunda ijro mayin, yengil, nafas olish yollari esa erkin holda bo'lishi kerak. Mashg'ulot

davomida xonandalarning ovoz yollari bilan eshitish qobiliyatini rivojlantirishga ahamiyat berish kerak. Agar ijroda ohangdorlik buzilsa, u holda rahbar buning sababini aniqlashi lozim. Bu nuqsonni bartaraf etish uchun sof tovush taratadigan joylarni past tovush bilan qulay registrda, ba'zan so'zsiz ijro yettirishi lozim.

Xonandalarda sof tovush taratish qoidalari quyidagi holatlarda buziladi:

- a) xonandalar tovushlarning baland-pastligini ilg'ab ololmaganda;
- b) xonandalar nafas olish qoidalariga rioya qilmaganlarida;
- v) xonandalarning eshitish qobiliyatlari yaxshi rivojlanmagan bo'lsa;
- g) xonandalarning tovush chiqarish yollari xastalanganda va charchagan holatida;
- d) talaffuz qo'pol ishlatilganda.

Bunday holatlarda xonandalar bilan 10-15 daqiqa yakka tarzda mashg'ulot o'tkazilsa ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu mashg'ulotlarning uslubiyoti quyidagi ishlardan iborat:

Birinchi navbatda xonanda ovozinig diapazonida sof ijro etadigan tovushlarni aniqlash kerak. Asta-sekin sof musiqiy talaffuzdagi tovushlarga yonidagi tovushlar qo'shiladi. Bola ularning to'g'ri eshitish hamda uni ovozi bilan aniq takrorlab bayon qilish kerak. Shu yosinda uning tovush diapazoni kengayadi va sof kuylash ko'nikmalari hosil bo'ladi.

Musiqiy talaffuzning sofliqi registr qulayligiga ham bog'liq: yuqori registrda o'rta registrga ko'ra tovushlarni musiqiy talaffuz etish ancha murakkab hisoblanadi. Shu sababli yuqori registrdagi murakkab joylarni mashg'ulot davomida bir oktava past ijro etib musiqiy talaffuz sofliqiga erishish mumkin. Sof musiqiy talaffuzga erishishga quyidagi usullar yordam beradi: *mp* mayin va ohista tovushda ijro – yopiq og'iz bilan ijro; "u" unli tovush bilan ijro; jo'rsiz ijro.

Yuqorida keltirilgan ijro ko'nikmalari asosida asar ustida ishlash jarayonida dasturdagi musiqa materiallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

5-mavzu. Xorda nafas olish, ovoz mashqlari. (2 soat)

Nafas olish yollari

Xonanda kuylash vaqtida, ya'ni tovush hosil qilishda nafasni to'g'ri yolg'a qo'yishi muhim rol o'ynaydi. "Kuylash san'ati nafasni to'g'ri ishga solish san'atidir", - degan ibora klassik ibora hisoblanadi.

Kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas orasida ma'lum darajada farq bor. Fiziologik nafasda nafas olish aniq bir ritmda va ma'lum bir vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Kuylash vaqtidagi nafas olish tez, qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'lib, nafas chiqarish esa bir qancha vaqtga cho'ziladi. Nafas ritmi ijro etilayotgan asar xarakteriga qarab o'zgarib turadi. Kuylashda fiziologik nafasga qaraganda chuqurroq nafas olinadi.

Kuylashda nafas olishning bir qancha turlari mavjud:

1. pastki qovurg'a kengayuvchi nafas olish.
2. yelka kengayuvchi nafas olish.
3. qorin bilan nafas olish.
4. ko'krak bilan nafas olish.

Kuylash vaqtida nafas olishning pastki qovurg‘alar kengayuvchi nafas olish va qorin bilan nafas olish turlarini ishlatish ma’quldir. Diafragma odam organizmida ko‘krak va qorin bo‘shlig‘ini ajratib turadi. Pastki qovurg‘alar va diafragma vositasida nafas olishda nafas olish va chiqarish diafragma orqali tartibga solinadi.

Bu qanday sodir bo‘ladi?

Xonanda xuddi gul hidlagandek nafas oladi. Bunda o‘pkalar kengayib pastki qovurg‘alarni tashqi tomonga suradi va diafragma pasayadi. Natijada qorinning devori oldinga shishib chiqadi. Bu holda yelka va ko‘krakning yuqori qismi o‘zgarmaydi. Nafas chiqarish tejamli, uzoq muddatli, tekis bo‘lishi shart. Nafas chiqarish qorin tarang qobig‘ining harakati bilan boshqariladi va havo yuqoriga yonaladi. Natijada ovoz pardalarini tebranishga undaydi. Pastki qovurg‘alar va diafragma asta-sekin o‘z qobig‘iga qaytadi.

Tovush hosil qilish

Yuqorida aytilganidek, tovush nafas va ovoz pardalarining harakati natijasida hosil bo‘ladi. Tovush havoning yopiq holatdagi ovoz teshigi orqali o‘tganda ovoz pardalari tebranishi vaqtida yuzaga keladi. Tovushning paydo bo‘lish vaqti “tovush hujumi” deyiladi. Ovoz pardalarining jipsligiga, nafas chiqarishning kuchi va xarakteriga qarab tovush hujumi qattiq, mayin va nafas olishdan keyingi hujum bo‘lishi mumkin. Tovushning yumshoq hujumida ovoz pardalari nafas chiqarish boshlanishi bilan ochiladi. Tovushning qattiq hujumi nafas chiqarish oldidan ovoz pardalarining zich yopilishi natijasida hosil bo‘ladi. Bu holda chiqayotgan havo katta bosim bilan ovoz pardalariga kelib uriladi. Nafas olishdan keyingi hujumda esa ovoz pardalari nafas chiqarish boshlagandan keyin birikadi. Natijada tovushdan oldin nafas chiqarishda unsiz “h” eshitiladi. Qo‘shimcha tovushlar hisobiga tovush o‘zining sofliqini yoqotadi. Ovoz pardalari bo‘shashib qoladi. Xonandalar amalda tovush hujumining hamma turlarini bilishi kerak. Lekin ma’quli “yumshoq tovush hujumi” hisoblanadi.


Vokal xor mashqlari

1. Mashqlar shoshilmasdan, cho‘ziq, bir nafasda ijro etiladi. Oxirgi tovush zanjirsimon nafasda cho‘zilib turiladi va xormeyster ishorasiga qarab to‘xtatiladi.


Turli unli tovushlardan iborat bo‘g‘inlar bir xil va yuqori pozitsiyada jaranglashini kuzatish lozim.

Mo	-	-	-	-
Mu	-	-	-	-
Mi	-	-	-	-
Me	-	-	-	-

2. Bir tovushdan musiqiy talaffuzning aniqligini yaxshilash uchun mo‘ljallangan mashqlar tovushni cho‘ziqligi va yengilligini ta’min etadi.



3. Zanjirsimon nafas olish usulini paydo qilish uchun mashqlar. Mashqlar yopiq va turlicha unli tovushlar bilan bajariladi. Rahbar o'z istagi bilan tovush kuchini o'zgartirishi mumkin. Masalan:



4. Keng nafasni rivojlantirish, jag' mashqlarini yumshatish, «i», «ya» tovushlari kabi unlilarni to'g'ri shakllanishi uchun mashqlar.




5. Keng nafasni rivojlantirish uchun mashqlar.

Do major gammasini yuqoridan pastga ijro etish. Asosi «Do» toni yangi tovush bilan almashtirish rahbarga yuqori pozitsiyadagi ko'nikmalarni o'rgatishda yordam beradi. Yuqori tovush o'z navbatida past tovush singari bir nafasda ijro etilmaydi.

Bu o'rinda pastki registrdan tovushni yuqori pozitsiyada musiqiy talaffuz bilan ijro etish kerak. Bunda quyi pardani yuqori pozitsiyada ijro etish bilan ta'minlanadi.






7. Keng nafasni rivojlantirish va musiqiy talaffuzning sofligini yaxshilash uchun mashqlar.

Ikki qismdan iborat mashq: MA, MO, MI va ME, MU, MA bir nafasda ijro etiladi.




8. Mashqni avvalo sekin tempda ijro etish kerak. Qachonki ijro mustaqil bo'lganda, tempni asta-sekin tezlatish mumkin. Mashq ijrosi xor ovozinig yengil bo'lishiga, musiqiy talaffuzning sofligiga yordam beradi. Bunda sakkiztalik notalar *staccato* uslubida bir nafasda ijro etilishi kerak.




9. Musiqiy talaffuzni rivojlantirish uchun mashqlar.





10. Kichik sekunda intervalining sofligini yaxshilash uchun mashqlar. Bu mashqni yuqori pozitsiyada bir nafasda ijro etish kerak.



11. Tovush hajmini kengaytirish uchun mashqlar. Bu mashq bir nafasda yuqori holatda ijro etiladi.

ma-ma-ma-ma-ma-ma-ma me-me-me-me-me-me-me mi-mi-mi-mi-mi-mi-mi

mo-mo - mo - mo - mo - mo - mo mu - mu - mu - mu - mu -mu -mu - mu ma

mi - - ya - mi - - ya - mi - - ya - - - -

mi - - - ya - mi - - - ya - mi - ya - - - -

12. Ikki va undan ortiq ovozda ijro etish ko‘nikmalarini hosil qilish uchun mashqlar.

C.T.
A.B.

C
A
T
B

C
A
T
B

13. Artikulasiya apparatining mushaklarini bo‘shatish va xonanda lablarining faoliyatini oshirish uchun mashqlar.

mo-mo-mo-mo-mo-mo-mo -momo-mo-mo-mo-mo-mo-mo -momo-mo-mo-mo-mo-mo -mo
da-da-da-da-da-da-da -da da-da-da-da-da-da-da -da da-da-da-da-da-da-da -da

mo-mo-mo-mo-mo-mo-mo -mo -mo mo-mo-mo-mo-mo-mo-mo -mo -mo mo-mo-mo-mo-mo-mo-mo -mo -mo
da-da-da-da-da-da-da -da da-da-da-da-da-da-da -da da-da-da-da-da-da-da -da

mi fa sol fa mi re do mi fa sol fa mi re do mi fa sol fa mi re do

do re mi fa sol lya si do si lya sol fa mi re do

do re mi fa sol lya si do si lya sol fa mi re do

do do re mi mi fa sol sol lya si si do si si lya sol sol fa mi mi re do

do do re mi mi fa sol sol lya si si do si si lya sol sol fa mi mi re do

6-mavzu. Aralash xorlar bilan ishlash uslubiyoti (ayollar va erkaklar xori) (2 soat)

Aralash xor

Aralash xor to‘liqsiz va to‘liq aralash xorga bo‘linadi.

To‘liqsiz aralash xor ko‘pincha badiiy havaskorlik jamoalarida va dramaturgiya xususiyatlari talab qilgan o‘rinda opera asarlarida uchraydi. To‘liq aralash xor esa katta tarkibga ega bo‘lgan xor jamoalarida, ko‘p -yillik tajribaga ega bo‘lgan jamoalarda va professional jamoalarda uchraydi.

Aralash xor odatda to‘rt ovozlikdan iborat bo‘ladi. Lekin bundan ham ko‘p ovozga mo‘ljallangan xor partiyalari ham uchraydi. Divizi tufayli aralash xor olti va o‘n ikki ovozli ifodaga ega bo‘lishi mumkin.

To'liqsiz aralash xor bir jinsli (yaxlit) xorga boshqa jinsdagi yagona ovozning (partiyaning) qo'shilishidan iborat bo'ladi. U quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

a) ayollar xori va tenor partiyasi – soprano, alt-tenor

b) ayollar xori va bas partiyasi – soprano, alt-bas

v) erkaklar xori va soprano tenor, bas-soprano

g) erkaklar xori va alt tenor-alt, bas

Bu turdagi xorlarda har bir ovoz partiyasi o'z navbatida birinchi va ikkinchi ovozlarga bo'linishi mumkin.

To'liq aralash xor har xil jinsli - ayollar va erkaklar ovozlarining qo'shilishidan iborat bo'ladi. Aralash xor – xor turlarining eng takomillashgan turi bo'lib, u rang-barang tembr bo'yoqlariga, katta ovoz diapazoniga va keng ijro imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Unda to'rtta asosiy ovoz partiyasi mavjud:

soprano - tenor

alt - bas

Aralash xorlar bir ovozdan o'n ikki ovozgacha (ba'zida undan ham ko'p) bo'lishi mumkin.

Bir ovozli aralash xor:

soprano

alt

Bir ovoz – oktava unisonida:

tenor

bas

Ikki ovozli aralash xor:

soprano, alt – birinchi ovoz

tenor, bas – ikkinchi ovoz

yoki

soprano, tenor – birinchi ovoz

alt – ikkinchi ovoz

Uch ovozli aralash xor:

soprano, alt – unisonda

tenor – alohida partiya

bas alohida partiya

yoki

soprano – alohida partiya

alt – alohida partiya

tenor, bas – unisonda

To'rt ovozli aralash xor:

soprano – alohida partiya

alt – alohida partiya

tenor – alohida partiya

bas – alohida partiya

Besh ovozli aralash xor - to'rtala ovoz partiyasidan birortasining ikkiga bo'linishi:

I soprano

II soprano

alt
tenor
bas
yoki
soprano

alt
I tenor
II tenor
bas

Olti ovozli aralash xor – to‘rtala ovoz partiyasidan ikkitasining ikki ovozga bo‘linishi:

I soprano I soprano
II soprano II soprano
alt yoki I alt
tenor II alt
I bas tenor
II bas bas

Yetti ovozli aralash xor–to‘rt ovozli partiyasidan uchtasining ikkitadan ovozga bo‘linishi:

I soprano soprano
II soprano I alt
I alt yoki II alt
II alt I tenor
I tenor II tenor
II tenor I bas
bas II bas

Sakkiz ovozli aralash xor - har to‘rtala ovoz partiyasining ikkitadan ovozga bo‘linishi:

I, II soprano
I, II alt
I, II tenor
I, II bas

To‘qqiz ovozli aralash xor - to‘rtala ovoz partiyasidan uchtasining ikkitadan va bittasining uch ovozga ega bo‘linishi:

I, II, III soprano I, II soprano
I, II alt I, II alt
I, II tenor I, II, III tenor
I, II bas yoki I, II bas

O‘n ovozli aralash xor-ikki partiyaning uchtdan va qolgan ikkitasining ikkitadan bo‘linishi:

I, II III soprano I, II soprano
I, II, III alt I, II alt
I, II tenor I, II, III tenor
I, II bas yoki I, II, III bas

O‘n bir ovozli aralash xor - to‘rt ovoz partiyasidan uchtasining uchtdan ovozga va bir partiyaning ikki ovozga bo‘linishi:

I, II, III soprano I, II, III soprano

I, II, III alt I, II alt

I, II, III tenor I, II, III tenor

I, II bas yoki I, II, III bas

O‘n ikki ovozli aralash xor - har to‘rtala ovoz partiyasining ham uchtdan ovozga bo‘linishi va hakoza.

Xorlar tarkibidagi xonandalarning soniga qarab katta, o‘rta va kichik bo‘ladi. Xor tarkibi, asosan, ayollar yoki bolalar ovozidan, erkaklar ovozi va aralash ovozlardan iborat bo‘ladi. Aralash xorlar tarkibi jihatidan uchga bo‘linadi.

- kichik tarkibli aralash xor;
- o‘rta tarkibli aralash xor;
- katta tarkibli aralash xor.

Yeng kichik o‘rta va eng katta xor jamoalarining tarkibi xonandalarning soni jihatdan qancha bo‘lishi haqida ko‘pgina xor san’ati ustalarining fikr va mulohazalari bizga ma’lum. Masalan, P.G.Chesnokov eng kichik xor o‘n ikki kishidan (har bir xor partiyasida uchtdan), o‘rta xor 27 kishidan va katta xor 54 kishidan iborat bo‘ladi, deb hisoblasa, A.A.Yegorov eng kichik xor 16 kishidan (har bir ovoz partiyasi to‘rttdan kishi), o‘rta tarkibli xor 28-36 kishidan va katta tarkibli xor 40-120 kishigacha bo‘lishi kerak deb ta’kidlaydi. V.G.Sokolov har ikkilasining fikriga ham qisman qo‘shilib, eng kichik xor 12 kishidan iborat bo‘ladi, – deb hisoblashni maslahat berib, P.G.Chesnokovning fikriga, ikkinchi tomondan esa bunday xorni vokal ansambli deyish maqsadga muvofiqdir va 24 ta xonadadan iborat xor to‘liq aralash xor bo‘ladi. Katta tarkibli xorning sonini esa (havaskorlik xorini nazarda tutgan holda) 100-150 kishiga yetkazish mumkin, - degan fikr bilan A.A.Yegorovga yaqinlashadi. V.I.Krasnoshokov esa kichik xor 16-20 kishidan, o‘rta xor 30-60 kishidan, katta xor 80-120 kishidan iborat bo‘ladi, deb uqtiradi. P.YE.Miloslavov kichik xor 13-26, o‘rta xor 30-42 va katta xor 50-70 kishidan iborat bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi.

Professional xor tajribasidan ma’lumki, katta aralash xorlarda xonandalarning soni deyarli 80–100 tadan oshmaydi. Havaskorlikda esa 100-120 kishilik katta aralash xorlar bo‘lishi mumkin. Lekin, shuni aytish kerakki, xorda xonandalarning soni 80 tadan oshsa (100-120), uning ijro sifatiga salbiy ta’sir qiladi. Bunday xorlarda yaxshi ohangdorlikka (intonasiya) va aniq sozga erishish ancha qiyin.

Xorshunoslik nazariyasi asosida xor partiyalaridagi xonandalar soni quyidagicha bo‘lishi kerak:

- a) teng sonli va bir xil (har bir ovoz partiyasi) tembri;
- b) xordagi baland (soprano, tenor) ovozlari soni past (alt, bas) ovozlarga qaraganda qisman ko‘proq (havaskorlik xorlarida).

Shunday qilib, professional katta aralash xorning umumiy diapazoni katta oktava Mi, Fa va ikkinchi oktava Si va uchinchi oktava Do larni qamrab oladi, havaskorlik xorining umumiy diapazoni esa katta oktava Sol, Lya va ikkinchi oktava Sol, Lya notalarini qamrab oladi.

Havaskorlik xor jamoalarini taxminiy quyidagi tartibda tuzish mumkin:

Kichik tarkib 16 tadan 24 kishigacha;

O‘rta tarkib 28 tadan 40 kishigacha;

Katta tarkib 52 tadan 80 kishigacha va undan ko‘p bo‘lishi mumkin.

Ovozlar	Kichik tarkib	O'rta tarkib	Katta tarkib
Soprano	5-8	9-14	18-26
Alt	5-6	7-10	14-22
Tenor	3-5	6-8	10-16
Bas	3-5	6-8	10-16
Jami:	16-24	28-40	52-80

To'liq aralash xor (katta tarkibli) keng ijro imkoniyatlariga ega bo'lib, texnik jihatidan rivojlangan har bir xonandaning umumiy musiqiy saviyasi ham yetuk darajada bo'ladi. Bunday xor har qanday murakkab asarni ham ijro eta oladi. Uning sadosi keng va to'liq bo'ladi. Xonandalar uzoq davom etadigan yirik asarlarni ham toliqmasdan ijro etish qobiliyatiga (ovoz kuchiga) ega bo'ladilar.

Ko'p tarkibli xorlar quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi :

1. uch turli tarkibli
2. to'rt turli tarkibli

Bular katta aralash xorning alohida (ikki, uch, to'rt va hakoza) xorlarga bo'linishidan tashkil topadi. Ikki xorli qo'sh tarkibli - katta aralash xorning ikkiga bo'linishi:

birinchi xor (S-A-T-B)

ikkinchi xor (S-A-T-B)

yoki

birinchi xor – aralash (S-A-T-B)

ikkinchi xor - ayollar (S-A) xori

Uch xorli tarkib – katta aralash xorning uchga bo'linish:

birinchi xor – aralash (S-A-T-B) xor

ikkinchi xor – ayollar (IS-IIS) (IA-IIA) xori

uchinchi xor – erkaklar (IT-IIT)-(IB-IIB) xori

yoki

birinchi xor – ayollar xori

ikkinchi xor -aralash xor

uchinchi xor -erkaklar xori

To'rt xorli tarkib –katta aralash xorning to'rtga bo'linishi:

birinchi xor (S-A-T-B)

ikkinchi xor (S-A-T-B)

uchinchi xor (S-A-T-B)

Yuqoridagidek aralash xorlar bilan birorta yaxlit xor qo'shilishi mumkin.

Xor ijrochiligi tajribasida aralash xor bilan bolalar xor qo'shib, ma'lum bir turkumlik vokal simfonik asarini ijro qilish hollari ko'p uchraydi. Masalan: S.Yudakovning “Muborakbod” kantatasi ijrosida aralash xor bilan bolalar xori qatnashadi.

Klassik kompozitorlar ijodida ko'p xorli tarkiblar uchun maxsus yozilgan asarlar uchraydi. Xor adabiyotida aralash, yaxlit ayollar, yaxlit erkaklar, bolalar xori qatnashadigan musiqa – sahna asarlari (opera) oratoriyalar va jo'rsiz xorlar mavjud. Boltiqbo'yi davlatlarida har besh yilda puxta tayyorgarlik ko'rib, ashula bayramlari o'tkaziladi. Bunday ommaviy qo'shiq bayramida akademik xorlar bilan birga xalq

xorlari, xalq cholgʻu orkestrlari va raqqosalar guruhlari faol qatnashadilar. Ular oʻziga xos ijodiy hisobot beradilar. Ashula bayramlaridagi qoʻshma xorlarda 20-25 minggacha xonanda va 200-300 ming tomoshabin yigʻiladi. Bunday ashula bayramlari boshqa davlatlarda ham anʼanaga aylanib bormoqda.

Xorni sahnada toʻgʻri joylashtirish ravon ijro, yaxshi jarangdorlik omillaridan biri hisoblanadi. Xor partiyalarini joylashtirish jarayoni ovozlarni yaxshilab aniqlash va ularni mujassamlash xorning katta yoki kichikligiga, tarkibiga qarab oʻtkaziladi.

Xorni sahnada joylashtirganda quyidagi xor jamoasini joylashtirish qonun-qoidalariga asoslanish kerak:

a) xor va rahbar orasida oʻzaro uzviy bogʻlanishning muqarrarligi, yaʼni har bir xonanda dirijorga va dirijor xonandaga yaxshi koʻrinib turishi;

b) xor partiyalari bir-birlarini oʻzaro eshitish imkoniyatiga ega boʻlishi;

v) xorning tinglovchilarga jarangdor boʻlib eshutilishi va hakazo.

Xor jamoasi qanday joylashtirilgan boʻlsa, shunday mashgʻulot (repetitsiya) oʻtkazishi va konsertlar berishi maqsadga muvofiq boʻladi. Odatda, xorlar yarim doira (aylana) shaklida joylashtiriladi. Bunday holda maxsus yasalgan oʻrindiqlardan foydalaniladi.

Baʼzida xorni bir qatorga joylashtirish hollari ham uchraydi. Bunday joylashtirilgan xor ijrosi jarangdor boʻladi, lekin sado tinglovchilarga uygʻunlikda etib bormaydi. Shuningdek xor partiyalari (xonandalar) bir-birlarini yaxshi eshita olmaydilar. Natijada xor ohangi qovushmay qoladi. Demak, yarim doira shaklida joylashgan xor tajribada koʻp qoʻllaniladi. Chunki hamohanglik uning asosini tashkil etadi. Odatda aralash xordagi ovozlar dirijorga nisbatan chap tomonida-oldinda soprano, orqada tenorlar va oʻng tomonida-oldinda alt, orqada bas partiyalari joylashadi. Shuningdek, ovozlarni bir qancha turlarda joylashishi mumkin.

Ayollar yoki bolalar xori:

Sopranolar-diskantlar	Altlar
Royal	
Dirijor	

Yerkaklar xori:

Tenorlar	Baslar
	Royal
	Dirijor

Ikki ovozli aralash xor:

Tenorlar	Baslar
Sopranolar	Altlar
	Royal
	Dirijor

Toʻliq boʻlmagan aralash xor:

Tenorlar	
Sopranolar	Altlar
	Royal
	Dirijor

To'liq aralash xorni ikki qatorga joylashtirish turlari:

- a) tenorlar - baslar
 sopranolar - altlar
 Royal
 Dirijor
- b) baslar - tenorlar
 sopranolar - altlar
 Royal
 Dirijor
- v) baslar - tenorlar
 altlar - sopranolar
 Royal
 Dirijor

To'liq aralash xorlarni to'rt qatorga joylashtirish:

- a) 2-tenorlar 2-baslar
 1-tenorlar 1-baslar
 2-soprano 2-altlar
 1-sopranolar 1-altlar
 Royal
 Dirijor
- b) 2-tenorlar 2-baslar
 1-tenorlar 1-baslar
2-sopranolar 1-sopranolar 1-altlar 2-altlar
2-sopranolar 1-sopranolar 1-altlar 2-altlar
 Royal
 Dirijor

Agar xor orkestr (simfonik, xalq cholg'u asboblari) yoki cholg'uchilar ansambli jo'rligida bo'lsa, orkestr (ansambl) oldinga, xor esa orqaga (orkestrdan ko'ra yuqoriroqqa) joylashtiriladi.

Xor
Orkestr
Dirijor

Royal yoki fortepiano dirijorning o'ng tomonida, alt partiyasining oldiga qo'yiladi. Ba'zi hollarda royalni xorning o'rtasiga joylashtirsa ham bo'ladi.

Ikki (qo'sh) xorni yonma-yan joylashtirish tartibi:

I xor	
tenorlar	baslar
altlar	sopranolar
II xor	
baslar	tenorlar
sopranolar	altlar

Uch tarkibli xorni joylashtirish tartibi:

III xor	I xor	II xor
T – B	B – T	B – T
A – S	S – A	S – A

Orkestr yoki royal Dirijor

Har bir xonanda xor partiyasida doimiy o'rniga ega bo'lsa, xorda yaxshi ohangdorlik va sadoga erishish mumkin. Yuqorida keltirilgan an'anaviy usullardan tashqari, xorni kvartet qilib joylash ham xor ijrochilik tajribasida uchraydi.

Xor jamoasining asosini undagi vokal-xor ishlari tashkil qiladi. Vokal-xor kompleksi ishlari xorning muvaffaqiyatli faoliyati uchun zamin yaratadi. Xorda vokal ishlarining sifat darajasi xor dirijorining malakasiga, vokal qobiliyati va ustozlik mahoratiga bog'liq. Xorda olib boriladigan vokal ishlarining maqsadi, xonandalarda turli kuylash malakalarini o'stirishdir.

Vokal ishlariga:

- xorning muhim elementlari ustida ishlash (hamohanglikka, yaxshi sozga, so'z talaffuziga, badiiy ifoda vositalariga erishish);
- to'g'ri nafas olish, vokal tovush barpo qilish va uni shakllantirish;
- xor jamoasi a'zolarini bir xil vokal malakalariga ega qilish kabilar kiradi.

Xor ijrosini muhim ko'nikma elementlarini barpo qilish uning vokal-xor ijro malakalariga bog'liq, albatta.

Vokal-xor ijro malakalariga asosan, nafas, tovush hosil qilish, uni cho'zish, dinamik belgilar ijrosi, tovushni sof talaffuz va so'z talaffuzi kabi malakalari kiradi.

Xor jamoasi yaxshi vokal mahoratiga ega bo'lmasa, u xorning ijrosida na uyg'unlik (ansambl), na tiniq soz, na aniq talaffuz va na badiiy ifoda bo'ladi. Shuning uchun xorda har doim vokal-xor mahoratini rivojlantirish va ularni takomillashtirib borish zarur. Chunki xorda yaxshi ansamblga, sozga, dinamik mustahkamlikka, so'zlarning sof talaffuziga va tembr bo'yoqlariga erishishda vokal «fundamental» mustahkam bo'lishi kerak. Xorda vokal shunchalik muhim ahamiyatga ega ekan, xor rahbari vokal pedagogikasini yaxshi bilishi va o'zi yaxshi ijro eta olishi talab qilinadi. Xonandalar esa ovoz gigiyenasini bilish va ovozlarini ehtiyot qilib yurishlari kerak. Tovush yollarini shamollatish, ovoz pardalarini toliqtirish, qattiq qichqirish (xususan, havaskorlik xorlarida) hollari xorda vokal ishlari saviyasini pasaytiradi.

Rahbar har doim vokal tarbiyasi ustida ish olib borishi, xorning ish faoliyatini shu tarbiya asosida boshqarishi va xorning chiroyli, ifodali jarangiga erishmogi kerak.

Qo'shiq aytishdan oldin xonandalar unga tayyor bo'lishlari va ma'lum holatni egallashlari zarur. Bu holat ikki xil bo'ladi: turib kuylash va o'tirib kuylash.

Turib kuylaganda gavdani va boshni to'g'ri, erkin tutish, oyoqlarni erga bir xil kuch bilan bosish, ko'krak qafasini salgina ko'tarish va oldinga chiqarish, kiftlarni to'g'ri tutish va qo'llar pastga tushirilgan bo'lishi kerak.

Xor turlari

Xor – bu musiqani cholg'u jo'rligida yoki jo'rsiz, ya'ni akapella ijro etuvchi jamoa. Xor atamasi yunoncha “choros” so'zidan olingan bo'lib, “to'da”, “yig'in” ma'nolarini anglatadi. Ko'p vaqtlardan buyon xor opera, oratoriya, kantata, ba'zan simfoniya qo'llaniladi. Musiqa amaliyotida xorning har xil turlari va ko'rinishi paydo bo'ldi. Xor turi xorning tuzilishi va sifatiga qarab aniqlanadi.

Xorlar turiga qarab ikkiga bo‘linadi: yaxlit (bir jinsli) va aralash xorlar.

Yaxlit - bir jinsli xorlarga: bolalar xori, ayollar xori va erkaklar xori kiradi.

Aralash xorlar esa turli ovozlardan, ya’ni ayollar va erkaklar, bolalar va ayollar, erkaklar va bolalar ovozlariidan tashkil topadi. Bir jinsli va aralash xorlar ko‘rinishi jihatidan bir ovozli, ikki ovozli, uch ovozli, to‘rt ovozli va undan ko‘p ovozli bo‘lishi mumkin. Bu xor partiyalarining soni xor ko‘rinishi tashkil qiladi.

Har bir xor partiyasi ma’lum bir joyda ikki va uch ovozlarga bo‘linishi mumkin. Bunday bo‘linish italyancha *“divizi”*, ya’ni *“bo‘lingan”* deyiladi.

Ayollar ovozi – koloraturali va lirik koloraturali sopranolar eng yengil va harakatchan ovozlari bo‘lib, yuqori registrlarda tovushlarning tiniq, jarangdor va yorqinlik xususiyatiga ega.

Koloraturali soprano – juda katta diapazonga ega bo‘lib, o‘ta harakatchan bo‘ladi. Bu ovoz o‘zining juda ham tiniq va ingichka temбри bilan boshqa ovozlardan ajralib turadi. Shuning uchun ham bu ovoz xorga tavsiya qilinmaydi.

Ayollar xori asosan quyidagi ovozlardan iborat bo‘ladi: lirik soprano, dramatik soprano, metso soprano (alt), kontralto.

Lirik soprano – mayin tembrli ovoz bo‘lib, diapazoni birinchi oktava Do va uchinchi oktava Do oralig‘ida bo‘ladi. Iliq, yoqimli va yumshoq sadolanadi. O‘rta va yuqori registrlarda ta’sirchan ifodali tovushlarga egadir. (Masalan: Xalq artistlari Halima Nosirova, Saodat Qobulova).

Dramatik soprano – kuchli ohangdor va dag‘alroq ovoz bo‘lib, to‘liq va bo‘rttirilgan kuchli sadosi bilan ajralib turadi. Diapazoni birinchi oktava Do, Si va uchinchi oktava Do oralig‘ida bo‘lib, bu ovozga xorda ikkinchi soprano partiyasi topshiriladi. Bunday ovozni Xalq artistlari Tamaraxonim (Petrosova) va Naima Po‘latova misollarida eshitishimiz mumkin.

Lirik va dramatik metso soprano dramatik soprano va kontralto ovozlari o‘rtasidagi ovoz bo‘lib, past registrdagi tovushlarga ega. Diapazoni kichik oktava Sol va ikkinchi oktava Sol oralig‘ida bo‘ladi. Yengil va jarangdor sadolanishi bilan ajralib turadi va xorda birinchi alt partiyasini kuylaydi.

Kontralto ayollarning eng past ovozi bo‘lib, quyuq tembrga ega bo‘ladi. Diapazoni kichik oktava Sol va ikkinchi oktava Mi oralig‘ida bo‘ladi. Xorda ikkinchi alt partiyasini ijro etadi.

Ayollar ovozi past ko‘krakdan chiquvchi tovushlar, o‘rta (aralash) va yuqori registr tovushlariga bo‘linadi. Ko‘krak registrdagi tovushlarni hosil qilish uchun ko‘krak rezonatorlari ishlatiladi. Yuqori registrdagi bosh rezonatorlari, aralash registrdagi esa ko‘krak va yuqori registrlarning birlashgan holdagi harakati orqali hosil bo‘ladi.

Ayollar ovoz pardalarining uzunligi va qalinligi ham turlicha bo‘ladi. Masalan, sopranoniki uzunligi 14-19 mm, metso sopranoniki esa 18-22 mm bo‘ladi. Qalinligi sopranoda 2 mm, metso sopranoda esa 5mm gacha bo‘ladi.

Ayollar xori ko‘rinishi jihatidan:

- bir ovozli ayollar xori-soprano, alt–unison-primada;
- ikki ovozli ayollar xori-soprano, alt (metso soprano);
- uch ovozli ayollar xori:

I soprano

II soprano

alt

yoki
 soprano
 alt (metso soprano)
 kontralto;
 - to'rt ovozli ayollar xori:
 I soprano
 II soprano
 I alt (metso soprano)
 II alt (kontralto)
 - besh ovozli ayollar xori:
 I soprano
 II soprano
 I alt
 II alt
 III alt
 Yoki
 I soprano
 II soprano
 III soprano
 I alt
 II alt
 - olti ovozli ayollar xori:
 I soprano
 II soprano
 III soprano
 I alt
 II alt
 III alt

bo'ladi.

Besh va olti ovozli ayollar xori kam uchraydi. Unda ovozlar (soprano uch ovozga, alt uch ovozga) epizodik (qisqa ko'rinishda) bo'lingan bo'ladi.

Masalan, J.Bizening "Karmen" operasidagi ishchi-xizmatkor ayollar xorida soprano partiyasi ikki (I - II C) ovozga, alt partiyasi esa uch ovozga (I-II-III A) epizodik bo'linadi.

Yerkaklar xori quyidagi ovozlardan iborat bo'ladi: tenor, bariton va bas.

Tenor ikki xil bo'ladi: lirik tenor va dramatik tenor.

Lirik tenor - o'rta va yuqori registrlarda juda sof jaranglaydi. Pastki registrda esa kuchsiz bo'ladi. Shuning uchun u xorda birinchi tenor partiyasini ijro etadi. Diapazoni kichik oktava Do va ikkinchi oktava Do oralig'ida bo'ladi. Misol tariqasida Ma'murjon Uzoqov, Sattor Yarashev, eson Lutfullayev, O'lmas Saidjonov, Shermet Fayzullayevlarni aytib o'tishimiz mumkin.

Dramatik tenor – kuchli, jarangdor, shirali bo'lib, pastki registrlarda ham to'la va aniq jarangga egadir. Diapazoni kichik oktava Do va ikkinchi oktava Si. Bu ovozga ikkinchi tenor partiyasi topshiriladi. Mahmudjon G'ofurov, Komiljon Otaniyozov, Sur'at Po'latov, Ismoil Jalilovlarning ovozlari ushbu tenorga misol bo'la oladi.

Bariton o'z tembri bilan baslarga va yuqori registr tovushlari tembri bilan tenorlarga yaqinlik xususiyatiga ega va o'z navbatida lirik bariton va dramatik baritonlarga bo'linadi. Bariton ovozlarning diapazoni katta oktava Lya va birinchi oktava Sol oralig'ida bo'ladi. Bariton xorda birinchi bas partiyasini ijor etadi.

Lirik bariton - yumshoq va harakatchan, rivojlangan yorqin yuqori registrga egadir. Masalan: Muhiddin Qori Yoqubov, Ortiq Otajonov, Kamoliddin Rahimovlarning ovozlari lirik baritondir.

Dramatik bariton – sadolanishi jihatidan bas ovoziga yaqin turadi. Unda kuchli jarangdorlik va shiradorlik mujassam. Lirik baritonga qaraganda pastki registri yanada ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Nasim Hoshimov, Sason Benyaminovlarning ovozlari dramatik bariton deyish mumkin.

Bas partiyasi bariton, bas va bas oktavachilarga bo'linadi. Yuqorida biz bariton haqida aytib o'tdik. Bas ovoz diapazoni katta oktava Mi, Fa va birinchi oktava Mi, Fa va bas oktavachilarning ovoz diapazoni esa kontr oktava Fa va kichik oktava Do oralig'ida bo'ladi.

Ayollar ovoziga o'xshash erkaklar ovoz pardalarining ham uzunligi va qalinligi turlicha bo'ladi. Tenor ovoz pardalarining uzunligi 18-22 mm, qalinligi 2mm, bas va baritonlarda ovoz pardalarining uzunligi 22-25 mm, qalinligi 5mm gacha bo'ladi. Tovush balandligi ovoz pardalarining tortilish (taranglashish) darajasi bilan bog'liq. Tebranish qancha tez bo'lsa, tovush shuncha yuqori pardalarga ko'tariladi.

Yerkaklar ovozi ko'krak va bosh (falset) registrlaridan iborat.

Yerkaklar xorini tenor va bas ovoz partiyalari tashkil qiladi. 1,2,3,4 va undan ko'p ovozli ham bo'ladi.

Bir ovozli erkaklar xori – tenor va bas unison-primada, ikki ovozli erkaklar xori bas unison – primada:

tenor

bas

Uch ovozli erkaklar xori tenor:

I tenor

II tenor

bas

yoki

tenor

I bas

II bas

To'rt ovozli erkaklar xori:

I tenor

II tenor

I bas

II basga bo'linadi.

Yerkaklar xorining ko'rinishi to'rt ovozdan iborat bo'lsa, ovozlar bo'linishi epizodik xarakterga ega bo'ladi. Partiyalar esa quyidagi epizodik bo'linishda uchrashi mumkin.

Besh ovozli erkaklar xori:

I-II-III tenorlar

I-II bas

Yoki

I-II tenorlar

I-II-III baslar

Olti ovozli erkaklar xorida har ikkala ovoz partiyasi epizodik uchtdan ovozga bo‘linishi mumkin:

I-II-III tenorlar

I-II-III baslar

Yetti ovozli erkaklar xori:

I-II-III-IV tenorlar

I-II-III baslar

yoki

I-II-III tenorlar

I-II-III-IV baslar

kabi bo‘linishi hollari xor adabiyotida uchraydi.

Sakkiz ovozli erkaklar xorida tenorlar:

I-II-III-IV ovozga hamda baslar:

I-II-III-IV ovozga epizodik bo‘ladi.

7-mavzu. Aralash xorlar bilan ishlash uslubiyoti (vokal sozi ustida ishlash, konsert faoiyati va xor repertuari muammosi) (2 soat)

Xor sozi ustida ishlash

Xor sozi - bu interval va akkordlarning to‘g‘ri, sof musiqiy talaffuz etishdir. Xor ishtirokchilarining intervallarni tiniq, sof ijro etish **melodik** (gorizontal) soz, interval va akkordlarni birgalikda ijro etish esa - **garmonik** (vertikal) soz deb ataladi. “Kichik yoshdagi bolalar xori” bo‘limida soz ustida ishlash masalalari aniq ko‘rsatilgan. Xor sozi ustida olib boriladigan ishlar xonandalarning musiqaviy va ashula aytish ko‘nikmalariga oid eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish usullari bilan yaqin bog‘langan.

Musiqaviy eshitish qobiliyati - bu berilgan kuyni aniq, ravshan qaytara bilish. Ashula aytish ko‘nikmalariga oid eshitish qobiliyati esa bu tovushni paydo bo‘lish shakllari, yuqori pozitsiyadagi kuylash va ovoz tusini to‘g‘ri ifodalash.

Ashula aytish ko‘nikmalariga oid eshitish qobiliyatini rivojlanishiga qo‘shiq aytish va solfedjio mashqlarini bajarish orqali erishish mumkin.

Buning uchun mashqlar sifatida musiqa namunalarini quyidagicha kuylash juda foydali. Xor rahbari yosh xonandalardan mashqning birinchi qismini ijro etishni iltimos qiladi. Keyingi qismining kuyini esa rahbarning ko‘rsatmasi bilan ovoz chiqarmasdan (ichida) ijro etishni tasavvur qiladi va bir necha vaqtdan keyin rahbarning talabiga binoan to‘liq ovoz bilan kuylashda davom etishadi. Shunday qilib, xonandalarning uyg‘unlikda kuylash va ichki eshitish qobiliyati kuchayadi.

Masalan:



Vokal-xor jamoasi garmonik tovushlarni eshitish qobiliyati rivojlanishiga katta ahamiyat berishi lozim. Bunday imkoniyatlar ko‘p ovozli asarlarni ijro etganda paydo bo‘ladi.

Bir ovozli asarlarni yaxshi o‘zlashtirgandan keyin xonandalarga ikki ovozli qo‘shiqlar o‘rgatiladi.

Ko‘p ovozli ijrochilik malakalari rivojlangan sari mashqlar va asarlar dasturi ham murakkablashishi tavsiya etiladi.

Xor sozi ustida ishlash va tiniq chiqishi uchun xonandalarni to‘g‘ri ashula aytish san‘atiga doir qonuniyat va qoidalarga rioya qilish ruhida tarbiyalash lozim. Bunda yaxshi nafasda, yuqori qo‘shiqchilik pozitsiyasida kuylashni xonandalarga o‘rgatiladi. Xor sozi asarlarning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq.

Shuning uchun soz ustida olib boriladigan ishlar har bir musiqaviy manbaga taalluqlidir. Ayrim asarlar noqulay tonalliklarda yozilgan bo‘ladi. Bunday paytlarda rahbar asarni qulay tonalliklarga o‘zgartirishi mumkin yoki mashg‘ulot davomida qulay tonallikda asar ustida ishlab, konsertda esa o‘zini asl (original) tonallikda ijro etishi mumkin. Garmonik sozning tiniqligi ovozlarni qulay sadolanishiga yordam beradi.

Xor guruhida bir necha marta qaytariladigan yoki cho‘zimli tovushlar uchraganda ohangni uyg‘unligiga ahamiyat berish lozim. Chunki bunday paytlarda ijrochilar kuylayotgan tonallik notalaridan chiqib ketishlari mumkin.

Katta va kichik sekunda intervalning kuylash talaffuziga alohida e‘tibor beriladi. Rahbar gamma va intervallarni kuylashda musiqiy talaffuz qonunlariga rioya qilishi kerak.

Tez hamda sekin tempdagi asarlarni ijro etishda musiqiy talaffuzning uyg‘unligiga erishish qiyin. Qo‘shiqlarda ohangdoshlik paydo bo‘lishi uchun tez tempdagi asarlarni sekin tempda va aksincha sekin tempdagi asarlarni tez tempda o‘rgatish yaxshi natijalarga olib keladi. Asarlarning dinamik o‘zgarishi ham sozning sofligiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Kuchli va jarangdor ijro jarayonida eshitish qobiliyati nisbatan pasayadi, uyg‘unsizlik paydo bo‘ladi. Ovoz hajmining yuqori qismlarida kuylash ham sozning tiniqligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Rahbar shu qiyin joylarni bolalarga ovoz hajmini qulay qismlarida o‘rgatib, ijroda asarning asl nusxasiga amal qilishi tavsiya etiladi.

Yangi asarni o‘rganish davrida xonandalar o‘z xor partiyalarini yaxshi o‘zlashtirishlari kerak. Xonandalarni doimo jo‘rsiz qo‘shiqlarni ijro etishga o‘rgatish kerak. Bu ularda musiqaviy va ashula aytish ko‘nikmalariga oid eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Jamoaning konsert faoliyati

Vokal jamoasining ijodiy faoliyatini ko‘rsatish uchun tashkil etilgan konsert ishlarga yakun bo‘libgina qolmay, o‘ziga xos imtihon vazifasini o‘taydi. Vokal–xor

guruhlarining har bir sahnaga chiqishi o'ziga xos imtihon bo'lishi bilan birga, ayni paytda qatnashchilarga bayramona kayfiyat ham bag'ishlaydi. Bunday konsert chiqishlar xonandalarning xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi.

Har bir konsertdan oldin, xoh u birinchi yoki o'ninchi marta bo'lsin, albatta xonandalar bilan tarbiyaviy ishlar o'tkazish lozim. Ularga ijrochidan talab qilinuvchi sahnaning ma'lum qonun-qoidalari tushuntiriladi. Xonandalar sahnada o'zlari ijro etayotgan asarlarining badiiy mazmunini, ichki dunyosini butkul salohiyati va imkoniyatlari bilan to'la-to'kis his etishlari lozim.

Mashg'ulotda sahna bilan bog'liq tashkiliy jihatlar o'rganiladi.

Masalan: sahnaga tartib bilan chiroyli yurib chiqish holatlari va asarni ijro etib bo'lgandan so'ng sahnani tark etish qoidalari amaliy o'zlashtiriladi.

So'nggi mashg'ulotda konsert dasturi butkul ijro etish bilan vokal-xor jamoasi faoliyatida mas'uliyatli davr boshlanadi. Mashg'ulot xuddi konsert vaqtida bo'lganidek, xor qatnashchilarining tik turgan holatida o'tkaziladi. So'nggi mashg'ulotda jamoa ijrochilarining ham jismoniy, ham ruhiy toliqib qolmasliklariga e'tiborni qaratish lozim. Binobarin, ayrim asarlar, to'la o'rganilmagan bo'lsa, yaxshisi ularni konsert dasturiga kiritish tavsiya etilmaydi. So'nggi daqiqalargacha asar ustida ishlash ijrochilarda faqat ishonchsizlik tug'diradi holos. Natijada konsertlarda umumiy ijro sifati pasayadi.

Konsert bo'ladigan kun xor qatnashchilari bir soat ilgari chaqiriladi. Xor rahbari, jo'rnavoz, xor faollari va boshqa maxsus tayinlangan navbatchilar konsert maydonini tayyorlash uchun yana ham ilgariroq kelishadi. Konsert oldidan zal sharoitlarini, aks-sadoni, cholg'u asboblarning tayyorgarligini tekshirib chiqish kerak. Zarur tashkiliy tadbirlarni qo'llash talab etiladi. Har bir xor qatnashchisining tashqi ko'rinishi va liboslari tekshiriladi.

Konsert boshlanishidan 15-20 minut avval asarning ayrim parchalarini qaytarish, ovozni sozlash muhim ahamiyat kasb etadi. Asarni to'laligicha ijro etish tavsiya etilmaydi. Bu narsa xonandalar e'tiborini chalg'itadi va ijrochilik sifatini paysaytiradi.

Vokal-xor jamoa konsertining muvaffaqiyati ko'proq dirijorning harakatlariga, uning ijrochi bolalarda ijodiy ruhlanish tug'dira olishiga bog'liq. Ayni paytda xonandalarni shunday tarbiyalash kerakki, konsert qanchalik hayajonli bo'lmasin, ashula aytish paytida ular o'zlarini nazorat qila bilsinlar.

Konsertgacha anchagina mashg'ulot qoldirgan ijrochi konsertga qo'yilmaydi. Sahnaga chiqish talabchanlik kasb etib, muntazam ravishda ijodiy izlanish va qat'iy intizom bilan ishlash lozim.

Holbuki, konsert dasturi bilan chiqish xor jamoasi faoliyatida mas'uliyatli davrdir. Ayniqsa, birinchi konsert jamoa zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, muvaffaqiyat qozonish uning kelgusi parvozlariga qanot bag'ishlaydi, muvaffaqiyatsizlik esa salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu tufayli jamoa o'zining dastlabki konsertiga jiddiy munosabatda bo'lishi lozim. Birinchi konsert xor tashkil etilgandan keyin agar jiddiy mehnat qilinsa, uch-to'rt oydan so'ng o'tkazilishi tavsiya etiladi. Birinchi sahnaviy chiqishga xorning konsert dasturi madaniyat saroyi rahbariyati va badiiy kengash tomonidan eshitib ko'rilgan bo'lishi kerak. Umuman konsert dasturlarini eshitib ko'rish muntazam davom yettirilishi lozim. Bu jamoa

ishiga jiddiylik baxsh etadi, xonandalarning ham shuningdek, rahbarning ham mas'uliyatini oshiradi.

Xor jamoasining har bir konserti sahnaviy chiqishdan so'ng puxta tahlil qilinadi. Jamoa ijrochilari konsert davomida qaysi tomonlarini namoyon eta oladilar yoki qanday kamchiliklarga yol qo'yganliklari to'g'risida suhbatlar o'tkazadi. Albatta, konsert qatnashchilarining muvaffaqiyatlarini bir oz bo'rttiribroq ko'rsatish ham ba'zi hollarda ko'zlangan natija berishi mumkin. Bu narsa ularning keyingi konsertlarga ruhlantiradi. Bo'sh tomonlari esa yotig'i bilan jamoa ishtirokchilariga ko'ngli qolmaydigan tarzda tushuntiriladi. Konsert paytida xorning tashqi ko'rinishi muhim ahamiyatga ega. Xor qatnashchilari konsert libosiga mos darajada (ko'ylak, oyoq kiyim, shim) kiyinganlaridagina chiroyli, konsertga mos bayramona va tantanali ko'rinishga ega bo'ladilar. Xonandalarning hammasida konsert liboslari bo'lishini, ularni saqlashni qanday tashkil etish mumkin? Bu masalalar xor rahbarining imkoniyatlaridan, muassasa sharoitlaridan kelib chiqib hal etiladi.

Xor dasturlarini shakllantirish usullari

Dastur vokal-xor jamoasi uchun ko'zgu va ijodiy kamolotning asosi hisoblanadi. U havaskor xonandalarning ijrochilik mahoratini yuksaltirish bilan birga ijrochi va tinglovchilarni g'oyaviy, ma'naviy estetik jihatdan tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Dastur tanlashda quyidagi asosiy shartlarga amal qilinadi:

- asarning g'oyaviyligi va badiiy yuksakligi;
- tanlangan asarning xor jamoasiga mos kelishi;
- oddiydan murakkabga o'tib borishi;
- asarning mavzu jihatdan rang-barang bo'lishi;
- tanlangan asarning konsertda ijro qilinishi mumkinligi.

Rahbar mana shu shartlarni to'g'ri anglay olsagina xorni pedagogik tomondan to'g'ri boshqaradi. Chunki dastur tanlash xorni pedagogik boshqarishning dastlabki davri hisoblanadi. To'g'ri tanlangan dastur o'quv tarbiya jarayoniga ijobiy ta'sir qilish bilan birga jamoa xonandalarining musiqaviy-nazariy bilimlarini, ijrochilik malakalarini va badiiy didlarini oshiradi. Noto'g'ri tanlangan dastur esa xonandalarning qiziqishini susaytiradi, jamoa ijodiy turg'unlikka uchraydi va tarqalib ketishiga sabab bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun rahbar dastur ustida doimiy ijodiy ish olib boradi. Badiiy va g'oyaviy jihatdan yuksak asarlar izlaydi. Buning uchun chop qilinib turiladigan vokal asarlari to'plami bilan tanishib turishi, uslubiy markazlar bilan bog'lanib, amaliy yordam va maslahatlar olib turishi tavsiya etiladi.

Rahbar dasturning mavzu jihatidan rang-barang bo'lishi uchun turli janrga mansub asarlar tanlaydi. Unga baho berishda uning g'oyaviyligini hisobga olib baholash zarur. Chunki haqiqiy badiiy mazmunlar mujassamlashgan g'oyaviy yuksak asarlarga kishi dilini nozik tomonlariga ta'sir qilib, uni ruhlantiradi, kuldiradi yoki yig'latadi, fikrlarga chorlaydi.

O'z ijodiy faoliyatini boshlagan ayrim jamoa rahbarlari dastur tanlash shartlariga amal qilmaydilar. Tanlangan asarlari esa jamoaning ijrochilik kuchiga mos kelmaydi. Natijada xonandalarning hafsalasi pir bo'lib, jamoaga qatnashmay qo'yadilar. Shunday xatoliklarga yol qo'ymaslik uchun jamoa rahbari dastur

tanlashda xonandalarning ijrochilik mahoratiga qarab, oddiydan murakkab asarlarga qarab o'tishni nazarda tutishi kerak. Bu yol jamoaning ijro texnikasini takomillashtira boradi.

Yuqorida dastur turli musiqa janrlariga oid asarlardan tuziladi, deb aytib o'tdik. Shu sababli ommaviy qo'shiqlar vokal xor jamoasi dasturida salmoqli o'rin tutadi. Zamonaviy qo'shiqlar xalqimizni ruhlantirib, tinchlikni mustahkamlashga, Vatanga sadoqatli bo'lishga, mehnatni sevishtga chorlab, yangi zafarlar sari undaydi. Hozirgi kunda ommaviy qo'shiqlar ikki, uch va hatto to'rt ovozda vokal-xor jamoalari tomonidan sevib kuylanmoqda.

Dasturda xalq qo'shiqlarning bo'lishi tabiiy hol. Chunki xalq asrlar davomida yaratgan noyob durdonalar bizgacha yetib kelgan. Rahbar xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy-g'oyaviy tomonlarini anglashi va ularni qo'shishi dasturni mukammal qiladi. Yana shuni aytish kerakki, dasturda klassik asarlardan namunalar bo'lishi jamoaning ijodiy mahoratini yanada oshirib, xonandalarni ham qiziqishlarini orttiradi.

Klassik meros faqat g'oyaviy tarbiya vositasi bo'libgina qolmay, san'atimiz istiqbolining sarchashmasi hisoblanadi.

Bundan tashqari jamoa dasturiga qardosh xalq qo'shiqlaridan ham namunalar kiritish dasturni yanada mukammal qiladi. Dasturning asosini jo'rli asarlar tashkil etadi. Albatta, biron bir musiqa asbobi jo'rligida kuylaganda xonandalar ohangni kuylashi ancha yengil bo'ladi. Asarni ritmik tomondan to'g'ri talaffuz qilish va toza kuylash imkonini beradi. Shu bilan birga jo'rsiz (akapella) usulda kuylash malakalarini ham shakllantira borish kerak. Jo'rsiz kuylashga o'rganish xor sozini yaxshilaydi. Uning garmonik eshitish va tafakkur etish qobiliyatini o'stiradi.

Akapella usulida kuylash eng mushkul ish bo'lib, u vokal ijrochiligining oliy shakli hisoblanadi. Bunga erishgan xor jamoasi yuksak ijro mahoratiga ega bo'lib, murakkab asarlarni ham ijro eta oladi. Ko'pincha, akapella usulida kuylash ko'p - yillik tajribaga ega va professional xor jamoalariga xosdir.

Ko'p ovozli jo'rsiz xor musiqasi o'ziga xos tembr bo'yoqlariga, garmonik rang-barangligiga ega. Yuqori toifadagi vokal-xor jamoalari dasturining asosini jo'rsiz ijroga molik asarlar tashkil qiladi.

Rahbar asarning badiiy qimmatini aniqlash bilan birga uning murakkablik darajasini ham aniqlashi lozim. Xor jamoasi qaysi turga mansub bo'lmasin, unga dastlabki mashg'ulotlardan boshlab kanon bo'lib kuylash malakasini shakllantira borish kerak. Shu yol bilan xonandalar ikki ovozli ijroni idrok eta boshlaydilar. Jo'rsiz usulda kuylashga o'rganish vokal-xor jamoalarida qancha erta boshlansa, ular shuncha ilgariroq bunga erishadilar.

Rahbar konsert dasturini tuzganda qaysi qo'shiq bilan boshlanib qaysi qo'shiq bilan tugashini bilishi ham muhim ahamiyatga ega. Konsert dasturini tuzish taxminan quyidagicha bo'ladi:

Odatda, konsert ma'lum bir ko'tarinki vatanparvarlik ruhidagi asar bilan boshlanadi. Birinchi asar tugaguncha jamoa o'zini ancha dadil tutib oladi. Keyin lirik asar berib, klassik asarlarga ham o'tish mumkin. Tomoshabinni zeriktirib qo'ymaslik va xorni toliqtirmaslik uchun ijrosi yengil asarlar almashtirilib borilishi, ya'ni yuqori tessiturali asardan keyin yengilroq asarlar berilishi lozim. Ijro qilinayotgan asarlarning mazmuni va ijro sur'atini bir-biriga yaqin bo'lishi maqsadga muvofiq

bo‘ladi. Rahbarning dasturga hazilnamo, ijrosi tez, sho‘x va xushchaqchaq asarlarni qo‘yishi konsertning maroqli o‘tishini ta‘minlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, dasturni asar ijro sur‘ati, xarakteri, vokal kuchiga qarab tuzish xonandalarni toliqtirmaydi va tomoshabinlarni o‘ziga jalb qiladi.

8-mavzu. Xorga musiqa sabog‘ini berish. (2 soat)

Xor jamoasida musiqa savodi

Musiqa savodi bolalarning yuksak ijrochilik mahoratiga erishish uchun yordam beradi. Xor rahbari har mashg‘ulotda bolalarning musiqaviy tarbiyasiga 10-15 daqiqa vaqt ajratishi kerak.

Kichkintoylar zerikib qolmasliklari uchun mashqlarni o‘yin tarzida o‘tkazish tavsiya etiladi.

Xor rahbarlariga quyidagi mavzularni tavsiya etish mumkin.

1-mavzu: Xalq cholg‘u asboblari.

Nay, chang, rubob, tanbur, g‘ijjak va boshqalar.

Hayotda biz cholg‘ular ijrosida har xil musiqiy asarlarni eshitamiz.

Masalan: konsertlarda, radio eshittirishlari va televideniye ko‘rsatuvlarida, bolalar bog‘chasi va maktablarda biz ko‘plab dasturlarni tinglaymiz. Musiqa har xil cholg‘u asboblarida ijro etiladi (cholg‘u asboblarining nomlarni aytib ko‘rsatish mumkin). Shu xalq cholg‘u asboblarida 15, 20 va undan ortiq sozandalarning musiqa asarlarini birgalikda ijro etish—orkestr ijrochiligi deyiladi.

2-mavzu: Xor bo‘lib kuylash.

Qo‘shiqlar inson ovozi bilan ijro etiladi. Qo‘shiqni yakka xonanda ijro etishi yoki ko‘pchilik ijrochilar jo‘r bo‘lib kuylashi ham mumkin. Bu xor bo‘lib kuylash deb ataladi (namunalar bilan tanishtirish mumkin). Xor ijrochilariga dirijor rahbarlik qiladi.

3-mavzu: Musiqaviy ifoda.

Har bir musiqa insonning his-tuyg‘ularini va tabiat voqeligini ifodalaydi. Xalq o‘z hayotining quvnoq va g‘amgin lavhalari haqida qo‘shiqlar bastalaydi. Musiqa asarlarini esa bastakorlar yaratadi. Musiqa asarlari o‘ziga xos ifoda va xarakterga egadir.

Masalan: marsh, vals, alla musiqalari (shu kabi asarlardan namunalar ko‘rsatish mumkin). Qo‘shiqlarni esa sho‘x, lirik, qayg‘u xarakterli asarlarga ajratish mumkin (namunalar bilan tanishtirish mumkin)

4-mavzu: Musiqali harakat.

Musiqa jo‘rligida harakat qilish yengil va ayni paytda osondir. Masalan, marsh tempida ijro etilgan asar bolalarning qadam bosishlarini ta‘minlaydi. Yengil va sho‘x musiqa ijro etilganda raqsga tushish mumkin. Musiqa harakatda bir xil sondagi hissalariga bo‘linadi. Har qanday musiqa ma‘lum o‘lchovlarga (2/4; 3/4; 4/4 va boshqalar) ega. Bu o‘lchovlar takt o‘lchovi deyiladi. Takt o‘lchovlarida esa kuchli va kuchsiz hissalar mavjud. Musiqa jo‘rligida qadam bosish yoki qo‘l bilan harakat qilganda bu hissalarini aniqlash mumkin. Asarlardan namunalar mashqlar sifatida ko‘rsatiladi.

5-mavzu: Registr (musiqaviy tovushlarning baland-pastligini ifodalovchi ko'rsatgich).

Musiqada bir necha tovushlar uchraydi. Ular bir-biridan balandligi (ingichka yoki yog'onlik nisbati) bilan ajralib turadi. Har bir tovush o'ziga xos balandlikka ega.


Pastki, quyi tovushlar.



O'rta tovushlar



Baland, yuqori tovushlar



Bu tovushlar esa yuqori registrni tashkil qiladi. Qo'shiqlarni har xil ovoz bilan kuylash mumkin yoki cholg'u asboblarda boshqa-boshqa registrda chalish mumkin. Jumladan: «Ayiqlar qo'shig'i», «Qushlar qo'shig'i» va boshqalar.

G'ijjak, nay, dutor, rubob, kontrabas kabi cholg'ularda chalinadigan kuylarni namuna sifatida eshittirish mumkin. Royalda hamma registrning tovushlari mavjudki, unda barcha registrlar qo'llanilgan qo'shiqlarni ijro etish mumkin.

6-mavzu: Kuy haqida tushuncha va cholg'u asboblari jo'rligi.

Qo'shiqlar so'z va kuydan iborat. Har bir qo'shiq o'ziga xos kuyga egadir. Kuy har xil tovushlardan tuziladi. Agar bironta tovush tushirib qoldirilsa yoki o'zgartirilsa, kuy ham o'zgaradi. Kuy so'z bilan yoki so'zsiz, ovoz bilan yoki cholg'u asboblarda ijro etiladi. Kuy bitta yoki bir nechta cholg'u asboblarda jo'rligida ijro etilishi mumkin.

Kuy jummalarga (bo'laklarga) bo'linadi. Qo'shiq jummalarni bir nafasda ijro etish lozim. Har bir jumla oxirida yangi nafas olinadi. Nafasni shoshilmasdan to'liq olish kerak. Notalarda qo'shiqning jummalarga bo'linishi alohida belgi bilan ifodalanadi. Bu **liga** deyiladi.


7-mavzu: Kuyning tuzilishi.

Kuy har xil balandlikka ega bo'lgan tovushlardan tuziladi. Agar biron bir tovush o'zgartirilsa, kuy ham ohanggi ham o'zgaradi.

Masalan: «**O'zbekiston - onajon**» M.Otajonov musiqasi, Qambar Ota she'ri.




Kuy harakatini quyidagicha chizib ko'rsatish mumkin.



Bu kuyda tovushlar bir joyda qaytariladi, ketma-ket yuqoriga ko'tariladi va pastga qarab qaytadi. Tovushlar qo'shiqlarda ketma-ket bog'lanishi mumkin yoki bir tovushdan ikkinchi tovushga sakrab o'tishi mumkin.

Masalan:

«**Tabarruk tuproq**». SH.Qo'shnazarov she'ri, A. Mansurov musiqasi.



8-mavzu: Tovushlar uzunligi.

Quyidagi tovushlarning uzunligi har xil bo'ladi. Bir xil notalar uzoqroq cho'ziladi, boshqalari esa qisqaroq.

Masalan: G'.Qodirovning «**Laylak**» qo'shig'ini olaylik.



Sayfi Jalilning «**Yosh askarlar**» qo'shig'i ham e'tiborga molik.




SH.Yormatov bastalagan «**Sumalak**» qo'shig'ini bolalar sevib kuylashadi.




Musiqiy asarlarda uzun va qisqa tovushlar xilma-xil usullarni tashkil qiladi. Bolalarga ohanglarning usulini ajrata olish yollarini o'rgatish kerak. Buning uchun asar ijro etilganda bolalardagi usulni chapak bilan qaytarishlarini so'rash mumkin.

Keyinchalik bu mashqlarni murakkablashtirish lozim. Masalan, qo‘shiqni ijro etib, tovushlarni uzunligiga qarab daftarga belgilash mumkin. Qisqa tovushlarni kalta chiziq bilan, uzun tovushlarni esa uzun chiziq bilan belgilash mumkin.

«Yosh askarlar» qo‘shig‘idan ayrim misollar.



«Sumalak»





Bolalarga tovushlarni choraktalik (♩), yarimtalik (♪) butun (♩), sakkiztalik (♩), o‘n oltitalik (♩) notalarda tovush cho‘ziminig ma’nosini tushuntirib berish lozim.

9-mavzu: Dinamik tuslar.

Musiqa asarlari kuchli yoki mayin tovushlarda ijro etilishi mumkin.

Kuchli tovushlarda ijro etish-forte (*f*) deyiladi.

Mayin tovushlarda ijro-piano (*p*) deb ataladi. Undan tashqari  (kreshendo) va  (diminuendo) tuslari ham bor.

Kreshendo – bu tovushning asta-sekin kuchayib borishini bildiradigan tusdir.

Diminuendo – bu tovushning asta-sekin susayib borishini bildiradi. Rahbar musiqa asarlaridan namunalarni namoyish qilib ko‘rsatish mumkin.

10 –mavzu: Alterasiya belgilari.


Diyez # - tovushlarni yarim ton miqdorida ko‘taradi.

Bemol ♭ - tovushlarning yarim ton miqdorida pasaytiradi.

Bekar ♮ - alterasiya belgilarini o‘z vazifasidan bekor qiladi.

11-mavzu: Notalarni o‘rgatish.

Bolalarga notalarni o‘rgatishda bolalar xor san’ati ustalari tuzgan –«besh barmoq» tizimidan foydalanish mumkin.



Bolalar uchun ushbu tizim bo'yicha qo'shiq o'rganish juda qiziqarli bo'ladi. Ular notalarni tezda o'rganib olishadi. Keyinchalik notalarni nota daftarga yozdirib o'rgatish mumkin.

Intervallar talaffuzi

Sof intervallar (prima, kvarta, kvinta, oktava) mustahkam-barqaror kuylanadi. Bolalar shu intervallarni sof talaffuz qilishlari uchun quyidagi mashqlardan foydalanishlari mumkin.

«Beozor musicha». M.Otajonov musiqasi, Q.Ota she'ri




Shu intervallarning sof jaranglashi uchun ularning orasini tovushlar bilan to'ldirish kerak.


Masalan: «Chittigul»



Hamma katta intervallar bir tomonlama kengayishiga moyillik bilan talaffuz qilinadi.




Hamma kichik intervallar bir tomonlama torayishiga moyillik bilan talaffuz qilinadi.



Qo'shiqlardan namunalar:

«Ohanglarda ertaklar» A.Mansurov musiqasi va she'ri




«

Turkiston farzandimiz» D.Omonullayeva musiqasi,

T. Mullaboyev she'ri.



«Bulbulcha» G'.Qodirov musiqasi.



Major va minor ladining (pardalarining) aniq sezish uchun mashqlar:



yoki:

Sopranolar-Diskant 2	Alt 2
Sopranolar-Diskant 1	Alt 2
Dirijor	

yoki:

Sopranolar-Diskant 1
Sopranolar-Diskant 2
Alt 1
Alt 2
Dirijor

kabi tartibda joylashtirish mumkin.

Xorni shoʻbalar boʻyicha joylashtirganda har bir guruh chegarasida qobiliyatli va musiqaviy imkoniyatlari puxta bolalardan qoʻyiladi. Mabodo, xor shoʻbalari ketma-ket joylashtirilganda ovozlari kuchli bolalar xor guruhining ikkinchi qatoriga qoʻyiladi.

Xor jamoasida qatnashchilarning xonandalik koʻnikmalarini shakllantirish

Mashgʻulotlar paytida bolalar qoʻshiq aytganda gavdani toʻgʻri tutib, bosh, yelkalarni, qoʻllarni tabiiy holatda tutishi kerak. Konsertlarda esa sahnada turib shu holatni saqlashlari lozim.

7-10 yoshga yetgan bolaning nafas yollari yaxshi rivojlanmagan boʻladi. Shuning uchun ham ular nafasni chuqur olishmaydi. Qoʻshiq aytganda eng qulay va maqsadga muvofiq pastki qovurgʻalar va diafragma bilan olinadigan nafas toʻgʻri hisoblanadi.

Odatda, bolalar nafas olganlarida, yelkalarini ham koʻtarishadi. Ayrim bolalar burunni tortib nafas olishadi. Bunday nafas olish zarar ekanligini ularga tushuntirish lozim va toʻgʻri nafas olishni albatta oʻrgatish kerak. Buning uchun oʻyin sifatida olingan mashqlardan foydalanish, oddiy misollar bilan tushuntirish kerak.


Masalan faraz qilamizki, bolalar qoʻllarida gul. Ular gulni burunlariga yaqinlashtirib, sekin hidlab koʻrishmoqda. Ayni paytda ularning qorni harakatga tushadi va koʻtariladi. Bu hol bolalarning toʻgʻri nafas olishlarini bildiradi.

Shu mashqni bir necha marta qaytargandan keyin boshqa oʻyinni tavsiya qilish mumkin. Bolalar yuzlarining oldiga kaftini koʻtarib turishadi. Nafasni olib, ozgina uni ushlab turishadi-da, keyin asta-sekin oʻpkadan havoni kaft tomonga chiqarishadi. Bu paytda rahbar sanoqni olib borishi mumkin (bir, ikki, uch, toʻrt, besh, olti va h.). Keyingi darslarda bu mashqlar qaytarilib, sanashni oʻngacha yetkazish mumkin.

Qoʻshiqlarni oʻrgatganda ham bolalarning nafas yollarini mustahkamlashga ahamiyat berish lozim.

Masalan :


N.Norxoʻjayev «Nevaralar qoʻshigʻi», S.Barnoyev sheʼri. Shu qoʻshiqni namuna sifatida olsak boʻladi.



Rahbar bu qo'shiqni kichik jumlalarga bo'lib belgilaydi. Keyin bolalarga o'rgatganda, ulardan bu jumlalani bir nafasda ijro etishni talab qiladi. Har bir nota, ayniqsa oxirigisi, aniq va ravshan eshitilishi kerak. Bu oxirgi notani *fermato* bilan (ya'ni cho'zibroq) ijro etish kerak.

Musiqaviy jumlalarni ijro etganda nafasni to'g'ri olish, uni ushlab turish, asta-sekin nafas chiqarish qoidalarni rahbar oldiniga o'zi ko'rsatadi.

Nafas tezda chiqarilib, qo'shiq ijro etilsa, tovushlarning sifati xiralashadi. Shu farqni sezgan bolalar tovushi chiroyli, mayin chiqishi uchun doim to'g'ri nafas olishlariga intiladilar. Shunday qo'shiqlar ham uchraydiki, ularni kichik jumlalarga bo'lish tavsiya etilmaydi. Bunday holatda bu asarni xorda ko'pchilik ijro etganda, zanjirsimon nafas bilan foydalanish mumkin. Masalan: S.Abramovanning «Qo'g'irchog'im» qo'shig'i. N.Ro'zimuhamedov she'ri. Naqoroti bilan.



Aytilayotgan jumlada qayta nafas olgandan so'ng tovushni sekinlashtirib, mayin ovoz bilan o'rtoqlarining ijrosiga qo'shilib aytish qoidalarini bolalarga tushuntirish kerak. So'zlarning o'rtasida nafas olmaslikni xor qatnashchilariga aytib o'tish lozim.

Ovoz hosil bo'lishi


Nafas olgandan so'ng kuylash jarayonida ovoz paydo bo'ladi. Bu tovush to'satdan hosil qilish (*ataka*) deyiladi. Ovozni to'satdan jadallik bilan hosil bo'lishi keskin, qudratli chiqishi - ***kuchli ataka*** deb ataladi.

Masalan : N.Norxo‘jayevning «Xoh qishda, xoh ishd» (P. Mo‘min she’ri) qo‘shig‘i.



Bu qo‘shiqni shu shaklda ijro etish bolalarning tovush hosil qilish a‘zolarini faollashtiradi. Tovushning tez boshlanishi tiniq, sof talaffuzning chiqishiga yordam beradi. Lekin bolalarning baqirmasdan, qichqirmasdan ashula aytishlariga zamin yaratish kerak. Ovozning muloyim, mayin boshlanishi – **mayin ataka** deb ataladi.

Masalan: SH.Yormatovning (Q.Muhammadiy she’ri) «Oymomajon rom bo‘ldi» degan qo‘shig‘i.



Lekin boshlang‘ich bosqichda bu shaklda tovush kuchsiz holda tuzilishi mumkin. Bunda rahbar mashqlarda kuchli attaka bilan mayin attaka shakllarini almashtirib turishi lozim. Yorqin, chiroyli ovoz bilan qo‘shiqlarni ijro etishda artikulasiya, diksiya (so‘z talaffuzi) katta rol o‘ynaydi. Kichkintoylar ovozining tusi (tembr) notekis bo‘ladi, xiralashadi. Chunki ashula aytganda unli tovushlarning tuzilishi so‘zlashgandagiga qaraganda ajralib turadi.

Unli tovushlar – ijroning asosidir. Ular tufayli ovozning xonandalik mahorati shakllanadi va rivojlanadi. Unli tovushlarning aniq, yaxshi jaranglashi uchun bolalarga ovoz hajmining hamma tovushlarini bir tekisda, yuqori pozitsiyada ijro etishlarni o‘rgatish lozim.

Quyidagi mashqlardan foydalansa bo‘ladi.

Dun - yo - da eng sof ti-niq mur-lar ich - ra eng yo -niq
 ko' - rar rav - shan va a - niq
 Bo - la - lar - ning ko'z - la - ri

di, di, di, di, di, - - - - -
 da, da, da, da, da, - - - - -
 de, de, de, de, de, - - - - -

Unli tovushlarni bir holatda tuzish va ijro etishga intilish kerak. Mashqlarda unli tovushlarni almashtirib turish mumkin.

Masalan:

da, de, di, do, du, da da, de, di, do, du, da

Yangi qo'shiqlarni o'rganganda jummalarni har xil unli tovushlarda ijro etish foydali.

Undosh tovushlarga ham ahamiyat berish lozim. Ularni qisqa va aniq talaffuz etish kerak.

Xonandalar ovozini sozlash


Tovushlarni tiniq, sof talaffuz etish – bu vokal-xor ijrosining asosidir. Bunga birinchi darsdan boshlab ahamiyat berish kerak.

Vokal jamoalariga qatnashadigan bolalar har xil musiqaviy qobiliyatga ega bo'ladi. Biri kuylarni sof, tiniq talaffuz bilan qaytaradi, boshqalarining eshitish qobiliyati rivojlanmagan bo'ladi. Shunday bolalar ham uchraydiki, ular tovushlarni aniq eshitib turib, ularni to'g'ri talaffuz qilolmaydilar. Noto'g'ri talaffuzning sababini aniqlash uchun har bir bolani alohida tekshirish lozim.

Bolalarga mashqlarni, qo'shiqlarni har xil dinamik tusda o'rgatish kerak. Shunda ularning e'tibori oshadi va tiniq, sof talaffuzga intilishadi. Odatda xor sozi garmonik (vertikal) umumiy xor sozi va melodik (gorizontal) har bir vokal-xor guruhining sozidan iborat.


Melodik soz – melodik intervallarni, major va minor bosqichlarini aniq talaffuz bilan ijro etilishidir.

Garmonik soz esa garmonik intervallar va akkordlarni to‘g‘ri talaffuz qilinishidir. Xorning to‘g‘ri sozlanishi major va minor gammalarining to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalarini bilishga bog‘liq. Major gammasi quyidagicha kuylanadi.




Birinchi bohqich mustahkam-barqaror kuylanadi. Ikkinchi, uchinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi bosqichlar yuqorilatishga moyillik bilan kuylanadi.

To‘rtinchi va beshinchi bosqichlar yuqoridan pastga harakatlanganda pasayishiga moyillik bilan kuylanadi.




Tabiiy minor gammasi. Birinchi, ikkinchi, to‘rtinchi, beshinchi, yettinchi bosqichlar yuqorilatishiga moyillik bilan kuylanadi. Uchinchi, oltinchi bosqichlar esa pasayishiga moyillik bilan kuylanadi.

Garmonik minor talaffuzi



Yettinchi bosqich yuqorilatishga moyillik bilan kuylanadi (yuqoridan pastga tushganda va pastdan yuqoriga ko‘tarilganda)

Melodik minor talaffuzi



Oltinchi va yettinchi bosqichlarda kuy pastdan yuqoriga ijro etilganda yuqorilatishga moyillik bilan kuylanadi. Yuqoridan pastga kuylanganda–pasayishga moyillik bilan talaffuz qilinadi.

Ovoz xususiyatini aniqlash

Ovoz xarkterini, jamoaga qobiliyati bor-yoqligini, ayniqsa, ba’zi bir ovoz diapazoni hali uncha katta bo’lmagan xonandalarning ovozini quyidagicha aniqlash mumkin.

Ma’lumki, har bir ovozda (kuylashni bilmagan kishilarda ham) zo’riqmasdan, erkin, to’liq va tabiiy holda chiqadigan ma’lum tovushlar bor. Mana shu tovushlar orqali ovoz tembrini, uning ba’zi xususiyatlarini, ya’ni musiqaviy xotirasini, musiqani eshita bilish qobiliyatini – sluxini aniqlash mumkin. Buni kuylashga o’ng’ay tovushlar – primar tovushlar deb ham yuritiladi. Ovozi uncha rivojlanmagan yosh bolalar ovozini va eshitish qobiliyatini ham shu tovushlar orqali aniqlanadi. Keyinchalik ularning ovoz diapazonini kengaytirish mumkin.

10-mavzu. O‘zbekistondagi professional va havaskor vokal-xor jamoalarining faoliyati (2 soat

S.A.Valenkov (1906-1969)

O‘zbek Davlat Akademik Xor kapellasining badiiy rahbari va bosh dirijori Sergey Aleksandrovich Valenkov (1906-1969) Samara gubernasining Buzuluk shaharchasida o‘qituvchi oilasida dunyoga keldi. Tabiiy musiqiy qobiliyati, yaxshi ovoz egasi bo‘lgan S.A.Valenkov havaskorlik to‘garaklarida qatnashib, fortepiano chalishga qiziqadi. 1927-yilda o‘rta maktabni tugatib, Kuybishev shahrining musiqa bilim yurtining fortepiano bo‘limiga o‘qishga kiradi. Bilim yurtini tamomlamasdan, 1929-yilda oilaviy sharoiti bilan Toshkentga ko‘chib keladi. 1941-yil avgust oyida harbiy xizmatga chaqirilib, xormeyster sifatida xizmat qiladi. Harbiy xizmatni tugatgandan so‘ng 1946-yilda Toshkent Davlat Konservatoriyasiga “Xor dirijorligi” fakultetiga o‘qishga kirib, 1951-yili muvaffaqiyatli tugatadi. O‘qish davomida Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozlar zavodi klubida havaskor xor rahbari bo‘lib ishlaydi. 1952-yil O‘zbekiton Respublikasi Hukumati qaroriga asosan, M.Qori-Yoqubov nomidagi O‘zbek Davlat Filarmoniyasi qoshida “Professional Davlat Xor kapellasi” tuzildi va Sergey Aleksandrovich Valenkov badiiy rahbar va bosh dirijor etib tayinlandi. Toshkent Davlat konservatoriyasi talabasi Abduqahhor Sultonovich Sultonov esa xormeyster lavozimiga tayinlandi.

S.A.Valenkov jamoani tashkil etish jarayonida 300 dan ortiq xonandalardan 60 tasini kasbiy qobiliyatlarini inobatga olgan holda ishga qabul qildi. Jamoa bilan ishlash jarayonida har xil qobiliyatlarga ega bo'lgan xonandalarni bir-biriga birlashtirish, gorizontal va vertikal kuylash va eshitish qobiliyatlarini shakllantirish, aniq so'z talaffuzi, to'g'ri ovoz hosil qilish, ansambl bo'lib kuylashga erishish, asarni o'zgaruvchan sur'atlariga tez moslashish kabi mashaqqatlarni yengib, 1953-yilda birinchi konsert dasturini namoyish etdi. Keyingi yillarda jamoa dasturida rus va G'arb klassik kompozitorlari asarlari, o'zbek kompozitorlari asarlaridan birinchi bo'lib M.Burxonovning jo'rsiz xorga qayta ishlagan O'rta Osiyo xalqlarining 6 ta xalq qo'shiqlari keng o'rin egalladi. Kantata janrida yozilgan M.Ashrafiy, S.Yudakov, M.Leviyev va boshqa o'zbek kompozitorlarining asarlari ham ijro etildi. Shu qatorda S.A.Valenkovning o'zi ham o'zbek xalq qo'shiqlaridan "Alla"ni xor uchun mohirona qayta ishladi.

1957-yilda Xor kapellasi Filarmoniya Simfonik orkestri bilan birgalikda ijro etgan L.V.Betxovenning 9-simfoniyasining finali jamoaning ijodiy faoliyatini yuqori cho'qqilarga erishganini ko'rsatdi.

1952-yildan 1966-yilgacha Olimlar uyi aralash xori bilan, 1959-yildan 1965-yilgacha Temir yolchilar madaniyat saroyida tashkil etilgan aralash xor jamoasi bilan ishlab, Toshkent shahar va Respublika ko'rik-tanlovlarida sovrinli o'rinlarga muvaffaq bo'lgan. Ularning dasturida rus xalq qo'shiqlaridan «Ax, ti step shirokaya», «Pesnya pro komara», rus klassik kompozitorlari asarlaridan «Solovushko» (P.Chaykovskiy), «Serenada» (S.Taneyeva), S.Yudakovning «Mirzacho'l» syuitalari joy olgan.

A.S.Sultonov (1928-2002)

Abduqahhor Sultonovich Sultonov 1928-yil Namangan shahrida ishchi oilasida tavallud topadi. Uning otasi paxta zavodida ishlagan, onasi esa uy bekasi edi. Otasi 1944-yil Farhod GESi mehnat armiyasida ishlab, shu yili vafot etadi.

A.S.Sultonov o'rta maktabda o'qib yurib, Namangan viloyat Navoiy nomli musiqali drama teatrining sartorosh-grimer sexida o'quvchi, shu bilan bir qatorda g'ijjak cholg'u bo'yicha ham tahsil oldi. 1944-yildan shu teatrdagi g'ijjak sozi bo'yicha musiqachi lavozimida ishladi.

Shu yillarda Namangan viloyati musiqa bilim yurtida ham tahsil olgan. 1949-yil Toshkent Davlat Konservatoriyasiga o'qishga kirib, 1954-yili o'qishni tamomlaydi.

1950-yil Konservatoriyada o'qish bilan bir qatorda O'zbek Davlat filarmoniyasi ashula va raqs ansambliga artist sifatida ishga kiradi. Ishlab yurgan paytlarida Moskvada bo'lib o'tgan ikkinchi O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasida qatnashadi. 1952-yil birinchi marta O'zbekistonda Xor kapellasi tashkil etilgandan keyin u jamoaning xormeysteri etib tayinlanadi. 1957-yilgacha shu jamoada xormeyster, 1957-yildan 1972-yilgacha shu jamoaning badiiy rahbari va bosh dirijori bo'lib ishlaydi. Shu yildan jamoaga xormeyster etib B.Umidjonov tayinlangan. O'zbek Davlat Xor kapellasining yangi rahbariyati jamoa tarkibining ko'p qismini o'zgartirib, yaxshi ovoz va musiqa qobiliyatiga ega bo'lgan milliy kadrlarni ishga taklif etadi. Lekin taklif qilingan xonandalarda ham musiqa qobiliyati va musiqiy ijro mahorati bo'lgani bilan jamoada birgalikda ko'p ovozlilikda kuylash

malakalari yoq edi. O'sha paytda o'zbek kompozitorlari va bastakorlarining xalq an'anaviy ijro yolida yozgan asarlarini jamoa dasturiga keng ko'lamda targ'ib etdi va akademik ijro uslubidan xalq yolidagi an'anaviy ijro uslubiga o'tish hollari ham uchradi. Shuning uchun bir necha oy mobaynida turli xil qiyinchiliklarga qaramay, baribir akademik ijro uslubiga qaytildi. Vokal xor ijrosida tovush hosil qilish va ijro etish, tovush va so'z talaffuzlari sofligiga erishishda B.Umidjonovning hissasi katta bo'ldi. Shu vaqtda xor dasturiga kiritilgan I.Akbarovning "Xoral", M.Nasimovning "Bayram valsi", A.Muhamedovning "Yashna, xur Vatan" kabi akademik uslubda xor uchun yozilgan asarlari jamoaning ijrosini mustahkamladi. 1959-yili O'zbek Xor kapellasi Moskvada uchinchi O'zbek adabiyoti va san'ati dekadasida konsert dasturi bilan ishtirok etdi. Xor kapellasining ushbu konsert dasturidan o'rin olgan M.Burxonovning xor kapellasi uchun qayta ishlagan O'rta Osiyo xalqlari qo'shiqlari, I.Hamroyevning "O'zbek ayoli" kantatasi, A.Halilovning "Qoraqolpog'iston" kantatasi bilan muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Musiqa tanqidchilari: "Hozirgi xor kapellasining ijrosi shu qadar mohirona bo'lganligini, ularning ijrosidagi o'zbek xalq qo'shig'i "Qoyilman" asarini ijro talaffuzi, asar so'zlarining ma'nosi va asarning mohiyati to'laqonlik va sehrli ijro etilganligini, rus xalq qo'shig'i "Ax ti step shirokaya" - rus dalalarini cheksizligini o'z ijrolarida ko'rsatib bera olganligini va ularning qalbidan chuqur o'rin egallaganligini" ta'kidladilar.

1960-yillarda R.Xublarov O'zbek Davlat Xor kapellasiga dirijor lavozimiga ishga taklif etiladi. Uning professional mutaxassis, chuqur xor ijodiyoti bilimiga ega bo'lishi Xor kapellasining ijodiy o'sishiga turtki bo'ladi. 1960-yillarda S.Raxmaninovning simfonik orkestri va xor uchun yozilgan "Vesna" ("Bahor") kantatasi, G.Sviridovning "Patiticheskaya oratoriya"si, I.Akbarovning "Toshkentnoma" oratoriyasini mohirona ijro etdi. Shu yillarda O'zbek Davlat Xor kapellasi respublikadan tashqarida bir necha bor konsert gastrollarida bo'ldi. Jumladan, 1966-yili Ukraina Respublikasida, 1968 -yilda Sibir bo'yicha, 1969-yilda Qozog'iston Respublikasi bo'yicha, 1969 -yili Rossiyaning markaziy shaharlari bo'yicha bo'lgan konsert gastrollarida katta yutuqlarga erishdi va o'zbek xor san'atini targ'ib qilidi.

197-yili O'zbek Davlat Xor kapellasi Butunittifoq professional xor jamoalari ko'rik tanlovining laureati bo'ldi. Keyingi yillarda A.S.Sultonov Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi kasb hunar bilim yurtlarining havaskorlik xor jamoalarida rahbar bo'lib ishlagan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist unvoniga sazovor bo'lgan.

1972-yili O'zbek Davlat Xor kapellasi badiiy rahbari va bosh dirijori etib Xurshid Vohidov tayinlanadi. U rahbarlik qilgan davrda jamoada intizom va ijro masalalari susayadi. Vaholanki, o'sha paytda dirijor lavozimiga V.F.Kaltman taklif etilgan, xormeysterlik vazifasini Q.T.Mirzayev bajargan. V.F.Kaltman jamoa dasturini boyitishda o'z hissasini qo'shdi. P.Serton, D.Shostakovich, T.Rubinlar kabi kompozitor va bastakorlarning asarlarini dastur tarkibiga kirgizib, mohirona ishlashlari va Q.T.Mirzayevning ish faoliyati badiiy rahbar va bosh dirijor kamchiliklarini yoqotishga, kadrlarning ishdan ketib qolmasligiga turtki bo'la olmadi. 1978-yili badiiy rahbar va bosh dirijor X.Vohidov ishdan ketdi va uning o'rniga Ahad Vohidovich Hamidov tayinlandi. Q.T.Mirzayev 1976-yildan Abdulla Qodiriy

nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institutiga katta o'qituvchi lavozimiga ishga o'tdi.

A.V.Hamidov (1942-2001)

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ahad Vohidovich Hamidov H.H.Niyoziy nomli Toshkent Davlat musiqa bilim yurtini bitirdi va so'ng Toshkent Davlat Konservatoriyasini «Xor dirijorligi» mutaxassisligi bo'yicha tamomladi. O'zining mehnat faoliyatini Muqimiy nomli musiqali drama va komediya teatrida bosh xormeyster lavozimidan boshladi. Shu vaqt ichida "Nurxon", "Momo er", "Malinovkadagi to'y", "O'n ikkinchi kecha", "Paranjining siri", "Toshbolta oshiq" musiqali spektakllari sahnalashtirildi.

A.V. Hamidov 1969-yildan O'zbekiston Davlat teleradio qoshidagi xor jamoasiga bosh xormeyster lavozimiga ishga qabul qilindi. 1972-1973-yillarda xor bilan birga Qozog'iston Respublikasi Olma-ota shahrida bo'lib o'tgan O'zbek adabiyoti va san'ati dekadalarida qatnashdi.

1973-yili Toshkent Davlat Konservatoriyasini tugatgach, H.H.Niyoziy nomidagi musiqa bilim yurtiga bo'lim mudiri etib ham tayinlandi.

A.V.Hamidov qayerda ishlamasin, o'ziga va o'z qo'l ostidagi xodimlariga juda talabchan rahbar sifatida namoyon bo'ldi.

A.V.Hamidov 1978-yil 25-avgustdan O'zbekiston Davlat Akademik Xor kapellasi badiiy rahbari va bosh dirijori etib tayinlandi. Xor kapellasiga A.Hamidov kelishi bilan ishlar jonlandi. Bo'sh o'rinlarga tanlov asosida konservatoriya va musiqa bilim yurtlarini tamomlagan yosh, professional xonandalar ishga qabul qilindi. Rahbarning talabchanligi, professional darajada ish ko'zini bilishi jamoaning ijrochilik mahoratini oshirdi. Ish jarayonida A.V.Hamidovning yonida dirijor V.Kaltman va bosh xormeyster J.Shukurovlar yelkadosh bo'lib, jamoaning xor ijrochilik mahoratini yuksalishida katta hissa qo'shdilar. A.V.Hamidov jamoa dasturiga yangi asarlar kiritdi. Masalan, G.Sviridovning "Pushkinskiy venok" va shu kompozitorning bir qancha kantatalari, Falik va Machavarianing jo'rsiz xor uchun yozilgan asarlari, M.Bafoyevning "Freskiy" nomli xor poyemasi va "Alloma" nomli poyema kantatasi, S.Yudakovning "G'alaba" balet-oratoriyasi va shu bilan bir qatorda xalq muhabbatini qozongan M.Burxonov, M.Nasimov, I.Ikbarov, S.Yudakov, B.Umidjonovlar qayta ishlagan O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari qo'shiqlari shular jumlasidandir.

1979-yili jamoaning Ukraina va Boltiqbo'yi respublikalari bo'yicha konsert-gastrol dasturlari bilan chiqishlari katta olqishlarga sazovor bo'ldi.

1980-yil Ozarbayjon Respublikasida bo'lib o'tgan O'zbek adabiyoti va san'ati dekadasida qatnashdi va yana bir bor jamoa o'zining nimaga qodirligini ko'rsatdi.

1981-yili Tojikiston Respublikasida bo'lib o'tgan konsert chiqishlarida dasturning asosiy qismi o'zbek kompozitorlarining qayta ishlagan xalq qo'shiqlaridan iboratligi, masalan M.Burxonovning "Zarra gul", "Sari ko'hi baland", A.Machavarianing "Doluri" asarlari va F.Shubertning sol major messasidan uchinchi va o'ninchi qismlari dastur kulminasiyasi bo'ldi va tinglovchilar ko'p vaqtgacha gulduros qarsaklar bilan jamoani sahnada majburan ushlab turdi.

1982-yilda Rossiyaning Sibir shaharlari bo'yicha konsertlarida, 1983-yil Ozarboyjon, Gruziya, Armanistonda, 1984-yil Qozog'iston shaharlarida, 1985-yil Ukraina shaharlarida bo'lib o'tgan konsert-gastrollarida yuqori ijrochilik darajasi va

katta qiziqish bilan kutib olindi, tinglandi va olqishlarga sazovor bo'ldi. Shu vaqtda jamoa son jihatida bo'yicha 45 taga teng edi. 1986-yil Xor kapellaning son jihatida 75 ta shtat birligigacha kengaydi va bu jamoaning ijodiy o'sishida va kamolotga etishida, dasturiga S.Taneyevning "Ioann Damaskin" kantatasi, V.Motsartning "Rekviyem" kabi xor asarlarining kiritilishiga imkon yaratdi. 1987-yil O'zbek adabiyoti va san'at dekadasi Ukrainada bo'lib o'tdi va jamoa bunda faol qatnashib, Kiyev, Odessa, Nikolayev va boshqa shaharlarida konsert dasturlarini namoyish etdi.

1988-yili yangi asar bilan jamoa dasturi yanada boyitildi. M.Burxonov, S.Boboyev, I.Akbarov, M.Nasimov, R.Vildanov, B.Umidjonov, Pak Yen Din, N.Sharafiyeva, B.Lutfullayev kabi o'zbek kompozitorlari asarlari va G.Fore, Dj.Verdi kabi kompozitorlarning "Rekviyem"lari, I.S.Bax kantatalari va rus kompozitorlari M.Glinka, S.Raxmaninov, D.Bortyanskiy, P.Chesnokov, P.Chaykovskiylarning asarlari shular jumlasidandir.

Keyingi yillar davomida O'zbek Davlat Akademik Xor kapellasi barcha davlat uyushtiradigan tantana va konsertlarda, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekistonda bo'lgan konsert gastrol chiqishlarida, jamoa boshqa jamoalar bilan uchrashuvlarda ijodiy tajriba almashindi va juda ko'p chet el va o'zbek kompozitorlarining asarlarini ijro etdi.

1995-yili jamoa simfonik orkestr bilan ko'p qismli asarlarni ham ijro etdi. L.V.Betxovenning "9-simfoniya"ning final xori", F.Shubertning "Sol major messasi", Luidisi Kerubining "Rekviyemi"ni ijro etishga muvaffaq bo'ldi.

Jamoaning va rahbarning asosiy ishi o'zbek xor musiqasini xalqqa targ'ib etish va o'zbek kompozitor hamda bastakorlarining asarlarini ijro etib, xalqning ma'naviyatini o'stirishga xizmat qilishdan iborat edi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ahad Vohidovich Hamidov umrining oxirigacha O'zbek Davlat Akademik Xor kapellasida ijodiy faoliyat olib bordi.

2001-yil sentabr oyidan boshlab O'zbek Davlat Akademik Xor kapellasi badiiy rahbari va bosh dirijori etib Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti "Guruhli kuylash jamoalariga rahbarlik" kafedrasini mudiri, dotsent Qodir Toirovich Mirzayev tayinlandi.

A.F.Vinejnev (1910-1967)

Anatoliy Fedorovich Vinejnev 1910-yil 13 mayda Leningrad shahrida harbiy xizmatchi oilasida tug'ildi. 1928-yili Toshkent Davlat musiqa bilim yurtiga "Vokal" bo'limiga o'qishga kirdi. Bir yildan so'ng, ya'ni 1929-yili o'qishini Moskvadagi Gnesin nomidagi davlat musiqa texnikumiga o'tkazadi. O'qish davomida u K.Stanislavskiy nomidagi Davlat Opera teatrida xor xonandasi vazifasida ishladi. 1939-yili texnikumni bitirgach, u harbiy xizmatga Toshkentga (qizil armiya safiga) chaqirildi. Xizmat o'tash jarayonida Toshkent Davlat Konservatoriyasiga "Musika nazariyasi" fakultetiga o'qishga kiradi. Keyin "Xor dirijorligi" mutaxassisligi fakultetiga o'tadi.

1939-yilning oxirlarida O'rta Osiyo harbiy okrugi bo'yicha harbiy ashula va raqs ansambli rahbari etib tayinlanadi. Shu sababdan u Konservatoriyadagi o'qishidan ketishga majbur bo'ladi.

1941-1945-yildagi urush davrida, ya'ni 1943-yilda Kareliya front ansambliga badiiy rahbar, 1945-yilda birinchi Uzoq Sharq harbiy front ansambliga, 1946-yili 25

armiya Primore harbiy okrugiga harbiy front ansambliga rahbar etib tayinlandi. 1948-yili A.F.Vinejnev Turkiston harbiy okrugi ansambliga badiiy rahbar etib o'tkazildi. 1957-yilgacha u harbiy xizmatdan zahiraga ketgunicha ushbu harbiy okrug ansamblida ishladi. Professional va havaskor xorlar bilan ishlaganda yuqori vokal madaniyatiga va chiroyli bariton ovozga ega bo'lganligi, o'zining ish jarayonida vokal bilimlarini xor ishida mohirona foydalanganligi sababli ushbu ansamblni 10 yil ichida yuqori cho'qqilarga olib chiqishga muvaffaq bo'ldi. 1950-yilda A.F.Vinejevga yaxshi xizmati va ijodiy ishlari uchun O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoni berildi.

1959-yili u Toshkent Davlat Konservatoriyasini "Xor dirijorligi" fakultetini tezkor va qisqartirilgan holatda bitiradi va shu yili "Xor dirijorligi" kafedrasiga o'qituvchisi lavozimiga ishga taklif etiladi. 1960-yili A.F.Vinejev tanlov asosida shu fakultetning "Xor dirijorligi" kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi lavozimiga o'tkaziladi.

Keyingi yillarda elektron texnika zavodida ayollar xor jamoasini tuzadi. Xorning dasturida G'arb klassik kompozitori F.Shubertning "Barkarolla"si, V.Muradelining "Buxenvald bongi" mohirona va ko'tarinki emotsional ruhda ijro etilgan.

B.H.Umidjonov (1933-2004)

O'zbek professional musiqa san'atining yirik arboblardan biri O'zbekiston xalq artisti, mohir xor dirijori, atoqli bastakor Botir Hoshimovich Umidjonov professional xor san'atining ijrochilik rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir. B.Umidjonov 1933-yilda Dushanbe shahrida tug'ildi. 1952-1955-yillarda Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtining "Xor dirijorligi" bo'limida, 1955-1960-yillarda Toshkent Davlat Konservatoriyasida "Xor dirijorligi" mutaxassisligi bo'yicha professor e.A.Gudkova sinfida tahsil oldi.

1960-yilda O'zbekteleradio kompaniyasi qoshida xor jamoasi tashkil etilib, unga 30 yildan ortiq rahbarlik qildi. Xor jamoasining ijrochilik mahoratini o'stirishda milliy an'anaviy ijrochilik uslubini qo'lladi, ulkan ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. B.Umidjonov mohir dirijor, nozik didli musiqa sohibi, ta'sirchan xarakterga ega bo'lish bilan bir qatorda xalq ijrochilik uslublarini, xor ovozi va xor ijrochilik xususiyatlarini yuqori darajada bilishi uning qayta ishlagan va yaratgan asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbek va boshqa xalqlar an'anaviy qo'shiq, lapar, ashulalarini ko'p ovozli xor uchun o'zi hamda M.Burxonov va S.Boboyevlar bilan ijodiy hamkorlikda qayta ishladi va moslashtirdi. Shu bilan birga kompozitorlarning original xor asarlarini nafaqat respublikamizda, balki O'rta Osiyo va chet ellarda mohirona ijro etdi va el-yurt hurmatiga sazovor bo'ldi. Qolaversa, xor san'atini xalqlar orasida targ'ib qildi.

Yuqorida aytganimizdek Botir Umidjonov xor jamoasi rahbari bo'libgina qolmay, kompozitorlik faoliyatini ham olib bordi. U o'zbek va tojik xalqlari og'zaki ijodini chuqur o'rganib, o'z ijodida unumli foydalandi va musiqaning turli janr hamda uslublarida ijod qildi. Milliy ohanglar negizida musiqiy asarlar yaratdi.

Kompozitorning qalamiga mansub quyidagi original akapella xor asarlari vujudga keldi va xor jamoasi bilan mohirona ijro etdi. Jumladan, "Go'zal", "Oltin vodiy", "Yey sanam", "Ruboiy" akapellari (A.Navoiy, X.Dehlaviy, Umar Xayyom so'zlariga), akapella xor syuitalari: tojik xalq qo'shiqlari asosida "Dilbarume" nomli

syuitasi, tatar xalq qo'shiqlari asosida "Yashlar uyyuni" syuitasi, to'rt qismli "Baxt nuri" syuitasi, D.Zokirov bilan ijodiy hamkorlikda "Asrim sadosi" kantatasi.

Kompozitor o'z ijodiy faoliyati davomida ko'p ovozli xor uchun ko'plab xalq qo'shiqlarini qayta ishlagan va moslashtirgan: o'zbek xalq qo'shiqlaridan "Yor nimalar devdim sizga", "Olmacha anoringga balli", "Qora soch", "Ililla yor", "Xurshidi jahon keldi", "Baxt yallasi", "Gal bari", "Zarafshonda to'y bugun", "Jon Andijon", "O'zgancha", o'zbek mumtoz musiqalaridan "Saraxbori navo", "Segoh", "Chorgoh", uyg'ur xalq qo'shig'i "O'ynamdu yaxshi", qozoq xalq qo'shig'i "Yapuray", tojik xalq qo'shiqlaridan "Gar namedoni bidon", "Diliman", ozarbayjon xalq qo'shig'i "Chal oyna", qirg'iz xalq qo'shiqlaridan "Qomuzchi", "Qizil gul", qoraqalpoq xalq qo'shiqlaridan "Chinbay", "Mungli qiz", "Dad alingnen".

Bulardan tashqari B.Umidjonov zamondosh va klassik shoirlarning she'rlariga ko'plab qo'shiq va romanslar yaratdi. Radio spektakllariga, musiqali dramalarga va o'zbek badiiy filmlariga musiqalar bastaladi.

B.Umidjonov rahbarligidagi xor jamoasining ijrochilik mahorati o'zbek xor san'atini Xalqaro festivallarda namoyish etish imkoniyatini yaratdi. O'rta Osiyo davlatlari va Ozarboyjonda Xalqaro festivalda, 1973-yil Olma-ota shahrida, 1978- va 1983-yillarda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro musiqashunoslar simpoziumlarida, 1983-yilda Tallin shahrida bo'lgan Xalqaro musiqa festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Xor san'atini yuqori cho'qqilarga ko'tarishdagi xizmatlari evaziga 1982-yilda "Respublikada xizmat ko'rsatgan ijrochi jamoa" unvoniga ega bo'ldi.

B.Umidjonov 1993-yilda pensiyaga chiqdi. Umrining oxirigacha Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida xor rahbari bo'lib ishladi. U yerda ham o'zining mohirona ish tajribasidan kelib chiqib, xor jamoasining ijrochilik mahoratini yuqori darajaga ko'tardi.

Hozirgi kunda Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshidagi "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ijrochi xor jamoasi"ni badiiy rahbar va bosh dirigor sifatida J.T.Shukurov boshqarib kelmoqda.

R.YE.Xublarov (1913-)

Richard efremovich Xublarov 1913-yil 8-noyabrda Turkmanistonning Dushak stansiyasida xizmatchi oilasida tug'ildi. 1923-yili oila a'zolari Toshkent shahriga ko'chib keladi. 1930-yili R.YE.Xublarov Toshkent musiqa texnikumining fortepiano bo'limiga o'qishga kirib, 1935-yili shu mutaxassisligi bo'yicha o'qishni tugatadi. Shu yili Toshkent Davlat Konservatoriyasining "Fortepiano" fakultetiga o'qishga kiradi.

1942-yilning boshidan to urush oxirigacha frontda jangchi sifatida qatnashadi. Harbiy zahiraga chiqqach, ya'ni urushdan keyin 1945-yil Toshkent Davlat Konservatoriyasining "Xor dirijorligi" fakultetiga o'qishga kiradi. O'qish davomida u Turkiston harbiy okrugi ansamblida xormeyster lavozimida ish faoliyatini olib boradi.

1948-yil Konservatoriyaning tamomlagach, O'zbekiston radio komitetining xor jamoasi badiiy rahbari va bosh dirijori lavozimiga ishga taklif etiladi. 1951-yili R.YE.Xublarov Moskvada bo'lib o'tadigan Ikkinchi o'zbek san'ati va adabiyoti dekadasi bosh xormeysteri etib tayinlanadi va bo'lib o'tgan dekadada muvaffaqiyatli qatnashganligini inobatga olgan holda "Xurmat belgisi" ordeni bilan taqdirlanadi. 1953-yilda xor jamoasi tarqatib yuboriladi va shu yilning o'zida

Qirg'iziston Davlat Xor kapellasining badiiy rahbari va bosh dirijori etib ishga chaqiriladi.

1960-yili Toshkent Davlat Konservatoriyasining "Xor dirijorligi" kafedrasiga dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga o'tkaziladi. 1974-yilda Oliy Attestatsiyasi Komissiyasi tomonidan dotsent lavozimiga tasdiqlanadi. 1961-1972-yillarda O'zbek filarmoniyasi qoshidagi Xor kapellasida dirijor vazifasida ham ishlaydi.

Keyingi yillarda R.YE.Xublarov ko'pgina havaskorlik jamoalarining tashkilotchisi va badiiy rahbari sifatida faoliyat olib bordi. Jumladan, 1948-1950-yillarda Nizomiy nomidagi Pedagogika instituti ayollar xor jamoasi, 1951-yilda To'qimachilik madaniyat saroyi qoshida aralash xor jamoasi, 1953-1960-yillarda Qirg'iziston Xor kapellasi badiiy rahbari va bosh dirijori, 1960-1964-yillarda Chkalov nomidagi Aviasozlar madaniyat klubida aralash xor jamoasi, 1964-1965 yillarda To'quvchilar madaniyat saroyida ayollar xor jamoasi, 1969 -yilda Respublika Geologiya vazirligi qoshidagi aralash xor jamoasi va 1983-yildan umrining oxirigacha Temir yolchilar madaniyat saroyida Ulug' Vatan urushi qatnashchilari va veteranlar aralash xor jamoasi rahbari sifatida faoliyat olib bordi.

R.YE.Xublarovga 1977-yilda respublikada professional va havaskorlik xor ijodiyotini shakllantirishdagi qo'shgan ulkan hissasi uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni berildi.

V.F.Kaltman (1925-1984)

Vladimir Fedorovich Kaltman 1925-yil 4-martda Moskva shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keladi. 1937-1941-yillarda Harbiy musiqachilar tarbiyalanadigan maktabda tahsil oldi.

1941-yildan 1950-yilgacha Leningrad shahridagi Kirov nomli harbiy bilim yurtining orkestrida xizmat qiladi. 1947-yili u Leningrad Konservatoriyasiga "Xor dirijorligi" mutaxassisligi bo'yicha o'qishga kiradi. 1952-yili o'qishni bitirib, Qirg'izistonning poytaxtidagi Frunze bilim yurtiga yollanma bo'yicha ishga yuboriladi. Musiqa bilim yurtida 1952-yildan 1954-yilgacha "Xor dirijorligi" bo'lim mudiri, 1954-1957-yillarda o'quv ishlar bo'yicha bo'limi mudiri lavozimlarida ishlaydi.

1961-yil V.F.Kaltman Toshkent Davlat Konservatoriyasi "Xor dirijorligi" kafedrasining katta o'qituvchi lavozimiga, 1967-yildan tanlov bo'yicha ushbu kafedra dotsenti lavozimiga ishga o'tadi. Konservatoriyada ishlash jarayonida "Xor dirijorligi" fakultetining talabalar xori rahbari bo'lib ishladi.

1972-yildan O'zbek Davlat Xor kapellasida dirijor sifatida ishladi. 1965-1970 -yillarda A.F.Vinejnevdan keyin elektron texnika zavodi ayollar xor jamoasida faoliyat olib bordi. A.F.Vinejnevning vokal an'alarini davom yettirgan holatda Kaltman xor sadosiga sof musiqiy talaffuzni va jonli usul sur'atini tatbiq etdi.

1971-1975-yillarda V.F.Kaltman Toshkent K.Abel zavodi madaniyat saroyi qoshidagi chiroyli tovush hosil qilishga va chiroyli dasturga ega bo'lgan aralash xor jamoasini boshqardi. O'zi harakatchan xarakter ega bo'lib, u jamoaga ham jonli usullardagi qiyin asarlarni jamoa dasturiga tatbiq etdi. A.Machavarianing "Dolori" asari va Yan Frenkelning "Russkoye pole" asari shular jumlasidandir.

I.M.Ponomaryov (1925)

Ivan Maksimovich Ponomaryov 1925-yili Orenburg viloyati elensk tumani Iman qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topdi.

1942-yili Farg‘ona shahrida o‘rta maktabni tugatadi. 1943-yilning boshida Markaziy front janglarida qattiq yaralanib, Kursk shahrining, keyinchalik Alatir shahrining shifoxonalarida davolandi.

1946-yili I.M.Ponomaryov Toshkent musiqa bilim yurtining “Vokal” bo‘limiga o‘qishga kirib, ikki yildan so‘ng o‘qishni “Xor dirijorligi” bo‘limiga o‘tkazadi. 1948-yil Toshkent Davlat Konservatoriyasining “Xor dirijorligi” fakultetiga o‘qishga kiradi. 1953-yil professor V.I.Knyazyatov rahbarligida o‘qishni bitiradi va yollanma asosida Gliyer nomli Respublika musiqa maktabiga o‘quv ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari lavozimiga ishga yuboriladi. 1959 -yilning fevral oyidan 1960-yilning dekabr oyigacha ushbu musiqa maktabining direktor lavozimida ishlaydi. 1960 -yili Toshkent Davlat konservatoriyasiga tanlov bo‘yicha katta o‘qituvchi lavozimiga ishga o‘tadi. 1966-yili dotsent vazifasini bajaruvchi, 1972-yili Oliy Attestasiya komissiyasining qaroriga binoan dotsent ilmiy unvoni bilan tasdiqlanadi.

1957-yil fevral oyidan boshlab I.M.Ponomaryov Toshkent shahri birinchi Taksimotor avtokombinatida erkaklar xorini tashkil etadi va rahbari bo‘lib ishlaydi. Qisqa vaqt ichida xor jamoasi katta badiiy xor jamoalari safiga qo‘shiladi. Ko‘p-yillik faol va samarali konsert ijodiyotini hisobga olgan holda 1967-yil “Xalq xor jamoasi” unvoni bilan taqdirlanadi.

1973-yili Respublikada badiiy havaskorlik ijodiga salmoqli hissa qo‘shganligini inobatga olib, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoni bilan taqdirlanadi.

M.B.Polonskiy (1928)

Mixail Borisovich Polonskiy 1928-yil 8-noyabrda Ukraina Respublikasining Kirovograd shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Yoshligidan qo‘shiq aytishga qiziqadi va havaskor to‘garaklarga qatnashadi.

1941-1942-yillari urush sababli oilasi bilan Stavropolga, keyin Toshkent shahriga evakuasiya qilinadi. (Uning otasi 1942-yil frontda halok bo‘ladi).

1946-yil Toshkent musiqa bilim yurtining “Vokal” bo‘limiga o‘qishga kiradi. Shu bilan bir qatorda 1947-1951-yillar Toshkent Yuridik institutida ham tahsil oladi. Musiqa bilim yurtini 1952-yili tugatadi. Shu yillari vokal xor jamoalari bilan bir qancha madaniyat uylarida, klublarda badiiy ish olib boradi. U rahbarlik qilgan jamoalar shahar ko‘rik tanlovlarida sovrinli o‘rinlarga ega bo‘ladi.

1959-yildan 1960-yilgacha Toshkent Davlat konservatoriyasining “Xor dirijorligi” mutaxassisligi bo‘yicha sirtqi bo‘limda o‘qiydi. O‘qishni tugatgandan so‘ng “Xor dirijorligi” kafedrasiga tanlovdan o‘qituvchi lavozimiga taklif etishadi. 1967-yili tanlovdan katta o‘qituvchi, 1969-yili dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimga o‘takaziladi.

M.B.Polonskiy o‘qituvchilik faoliyati bilan bir qatorda quyidagi xor jamoalari ijodida faol ishtirok etib, shu jamoalarning ijodiy mahoratini professional darajagacha ko‘tarilishida o‘zining samarali hissasini qo‘shdi. Jumladan, 1952-1956-yillar Toshkent shahar Kirov tumani madaniyat uyining ayollar xor jamoasi, 1956-1959-yillar Toshkent elektro-texnika zavodining ayollar xor jamoasi, 1955-1962-yillar Toshkent shahar Kirov tumani oziq-ovqat savdo klubi aralash xor jamoasi, 1960-1969-yillar Toshkent shahar Xalq filarmoniyasi aralash xor jamoasi, 1964-196 -yillar Toshkent Texnika universiteti aralash xor jamoasi, 1975-1980-yillar O‘rta Osiyo

transport militsiya boshqarmasi aralash xor jamoasi, 1979-1985-yillar Toshkent Aloqa instituti aralash xor jamoalariga rahbarlik qildi.

Jamoalar dasturlarida bir qator asarlar mohirona ijro etilgan. Masalan, P.Chaykovskiyning akapella uslubida yozilgan “Nochevala tuchka zolotaya”, V.Shebalinning “Zimnyaya doroga”, “Utes”, I.S.Bax – SH.Gunoning “Avemaria”, V.A.Motsartning “Rekviyem”idan parchalar (fragmentlar), G.Sviridovning “Patetik oratoriyasi”, M.Glinkaning “Poputnaya pesnya” va boshqalar.

35 yil davomida Toshkent shahar xor jamoalari bilan ijodiy faoliyat olib borib, shahar va respublika ko‘rik tanlovlarining sovrin hamda diplomiga ega bo‘ladi.

I.T.Sharapova (1926-2007)

Ida Terentevna Sharapova (Yeremeyeva) 1926-yil 25-yanvarda Qozog‘iston Respublikasi Qizil O‘rda shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. 1939-yili u Toshkent shahridagi R.Gliyer nomli musiqa maktabiga o‘qishga kirib, 1942-yili maktabni tamomlaydi. So‘ng Leningrad Konservatoriyasi qoshidagi musiqa bilim yurtiga “Fortepiano” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga kiradi va o‘qishini 1944-yili “Musiqa nazariyasi va bastakorlik” bo‘limiga o‘tkazadi. 1946-yili sog‘lig‘i yomonlashganligi sababli Konservatoriya talabalari safidan chiqariladi. 1948-1964-yillari I.T.Sharapova Petropavlovsk – Kamchatka shahrida xormeyster, vokal o‘qituvchisi va jo‘rnavor bo‘lib ishlaydi. Izrail shahrida matroslar klubida xor rahbari va shu shaharning o‘qituvchilar xori rahbari bo‘lib ham faoliyat olib boradi. Ishlagan ijodiy ishlari samarasi o‘laroq, u faxriy yorliq va diplomlar bilan taqdirlangan.

1964-yili Toshkent shahriga ko‘chib keladi va Toshkent Davlat Konservatoriyasi “Xor dirijorligi” fakultetining sirtqi bo‘limiga o‘qishga kiradi. Talabalik davrida jo‘rnavor bo‘lib ham ishlaydi. 1968-yildan boshlab o‘qituvchilik lavozimida ishlay boshlaydi. 1972-yili tanlovdan dotsent vazifasini bajaruvchi, 1982-yili Oliy Atesstasiya Komissiyasi tomonidan dotsent ilmiy unvoniga tasdiqlanadi.

I.T.Sharapova Toshkent shahriga ko‘chib kelguncha bir qancha havaskorlik jamoalar bilan ishlab, yetuk xor rahbari bo‘lib etishgan edi. 1964 -yil Toshkent Ofitserlar uyi qoshidagi xor jamoasi bilan, 1966-1967-yillar harbiy quruvchilar xor jamoasi bilan ishlaydi va ushbu jamoa bilan 1967-yili Butunittifoq Qurolli kuchlar ko‘rigida birinchi o‘rinni egallaydi.

1970-yil I.T.Sharapova Toshkent Harbiylar bilim yurti erkaklar xor jamoasini tuzadi va rahbarlik qiladi. 1973, 1977 va 1978-yillarda bu xor jamoasi harbiy kuchlar ko‘rik tanlovlarida qatnashib, laureat va birinchi o‘rin diplomlari bilan taqdirlanadi. 1975-yili Harbiy bilim yurti rahbariyati tavsiyanomasi bilan I.T.Sharapova “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi” unvoni bilan taqdirlanadi.

1980-yil fevral oyida Toshkent Davlat universiteti qoshida aralash xor jamoasi tashkil etadi va shu oydan ish boshlaydi. Xorning tarkibi 45 kishidan boshlanib, keyinchalik 60 kishiga etadi. Xor ijodiyoti bilan bog‘liq katta harakat, jamoa tashkilotchilik qobiliyati, asar o‘rgatishdagi yuqori darajada tovush hosil qilish, unli tovushlarni to‘g‘ri talaffuziga erishish, lad tonalliklarini chuqur his qilish, xor dasturida akapella tarzida yozilgan asarlarni rejalashtirishga sabab bo‘ldi. V.Kalinnikovning “Yelegiya”, G.Sviridovning “Zimneye utro, Natasha”, R.Shedirinning A.Tvardovskiy she‘riga to‘rtta xori, O.Lassoning “Vilonella”,

I.Gayden “Kanon”, V.A.Motsart “Credo” c moll messasidan, o‘zbek kompozitorlarining jo‘rsiz xor uchun yozilgan asarlari: M.Burxonov “Chashmi siyoh”, “Go‘zal qizga”, B.Umidjonov “Qora soch”, “Go‘zal” va boshqalar shular jumlasidandir.

Toshkent Davlat Universiteti xor jamoasi Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo Universitetlar xor jamoalari ko‘rik tanlovida birinchi o‘rinni egallaydi. 1986-yili dekabr oyida “Xalq xori” unvoni berildi.

M.SH.Azimov (1929-2006)

Murtazo Shokirovich Azimov 1929-yil 9-avgustda Samarqand shahrida ishchi oilasida tavallud topdi. 1939-yildan boshlang‘ich musiqa ta‘limini, keyinchalik maxsus musiqa ta‘limini oldi. Harbiy xizmatdan keyin 1954-yili Samarqand shahridagi musiqa bilim yurtini tamomlaydi. Shu yili Toshkent Davlat konservatoriyasi “Xor dirijorligi” fakultetiga o‘qishga kirib, 1959-yili tugatadi.

1959-1963-yillar Muqimiy nomidagi musiqa drama va komediya teatrida xormeyster lavozimida ishlaydi. 1963-yildan boshlab Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga direktor lavozimiga tasdiqlanadi. O‘rindosh sifatida Toshkent Davlat Konservatoriyasi “Xor dirijorligi” kafedrasida o‘qituvchi sifatida ham ishlaydi. 1965-yildan esa asosiy o‘qituvchi, 1969-yilda tanlovdan katta o‘qituvchi lavozimiga saylanadi. 1971-yili tanlovdan dotsent vazifasini bajaruvchi, 1986-yili Oliy Attestasiya Komissiyasi qaroriga muvofiq dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘ladi. O‘zining ko‘p yillik ishi jarayonida o‘zbek havaskorlik xor jamoalari rahbari sifatida yaxshi natijalarga erishadi.

1961-1963-yillar Toshkent viloyati Orjonikidze (hozirgi Qibray) tumani "Qizil O‘zbekiston" jamoa xo‘jaligi ashula va raqs ansamblining xor guruhiga rahbarlik qildi. M.Burxonov, S.Yudakov, S.Boboyev, M.Liviyev, B.Umidjonovlar bilan hamkorlikda mazmundor va ko‘pqirrali asarlar bilan jamoa dasturini boyitdi. Jamoa o‘zining konsert dasturlari bilan boshqa respublikalar poytaxtlari va shaharlarida ishtirok etdi va yaxshi olqishlarga sazovor bo‘ldi.

1967-1969-yillar Toshkent viloyati Kalinin tumanidagi jamoa xo‘jaligi qoshida aralash xor jamoasi tuzib, uning dasturiga jo‘rsiz xor asarlarini tatbiq etdi. Jumladan, M.Burxonov, S.Boboyev, B.Umidjonovlarning jo‘rsiz xor asarlaridan keng ko‘lamda foydalandi.

Keyingi yillarda M.SH.Azimov harbiy havaskorlik xor jamoalari bilan faol ijodiy jarayon olib bordi. 1983-yilda Toshkent shahar umumharbiy bilim yurti erkaklar jamoasi bilan ish olib bordi. M.SH.Azimov xor jamoasi erkaklar xori uchun yozilgan A.Rubenshteynning “Demon” operasidan “Nochenka”, K.Veberning “Volshebniy strelok” operasidan “Xor oxotnikov” (“Ovchilar xori”) asarlarini o‘rgatib, muvaffaqiyatli yutuqlarga erishdi.

1960-yillarda respublikamiz madaniy hayotida xor ijodiyotining ravnaq topgan yillari deb aysak, adashmaymiz. Yuqorida tilga olingan Temir yolchilar madaniyat saroyi xor jamoasi (S.A.Valenkov), V.P.Chkalov nomidagi Aviasozlar “Sharq klubi” xor jamoasi (R.YE.Xublarov), elektro-texnika zavodi xor jamoasi (A.F.Vinejnev), Toshkent KAbel madaniyat saroyi xor jamoasi (V.F.Kaltman), Toshkent ofitserlar uyi harbiy quruvchilar xor jamoasi (I.T.Sharapova), Toshkent viloyati Kalinin tuman

jamo'a xo'jaligi xor jamoasi (M.SH.Azimov), Toshkent shahar Xalq filarmoniyasi xor jamoalari (M.B.Polonskiy) shular jumlasidandir.

SH.YO.Yormatov (1939)

Shermat Yormatov 1939-yil 17-oktabrda Farg'ona viloyati Log'om qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topdi. 1947-yili umumta'lim maktabga o'qishga borib, maktab to'garaklari bilan tuman, viloyat ko'rik tanlovlarida qatnashib, mukofotlarga sazovor bo'ladi. Maktabni bitirgach, SH.Yormatov 1959-yili Toshkent Madaniyat texnikumiga o'qishga kiradi. 1962-yili Toshkent Davlat Konservatoriyasiga o'qishga kiradi. Talabalik yillari musiqa bastalash sirlarini o'zlashtirishda kompozitor Pak Yen Dindan saboq oladi. Toshkent Davlat Konservatoriyasini "Xor dirijorligi" mutaxassisligi bo'yicha muvaffaqiyatli bitirib, yosh mutaxassis yollanma bilan O'zbekiston teleradiosi huzuridagi xor jamoasiga dirijor vazifasiga tayinlanadi.

Shermat Yormatov o'z tajribasini talabalariga tatbiq qilish maqsadida oily o'quv yurtlarida ustoz-murabbiy sifatida xizmat qilib kelmoqda. 1990-1999-yillarda Toshkent Davlat Madaniyat institutida dotsent vazifasida, 1996-1999-yillarda Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi raisining birinchi o'rinbosari lavozimida, 2000-2002-yillarda Y.Rajabiy nomidagi Toshkent musiqa pedagogika bilim yurti direktori lavozimida ishladi. Keyingi yillarda O'zbekiston Davlat konservatoriyasi professori lavozimida ishlab kelmoqda.

SH.Yormatov "Bulbulcha" bolalar xor jamoasi bilan Moskvada, Turkiyada, Yugoslaviyada bo'lib o'tgan bolalar xor festivalida qatnashib, sovrinli o'rinlarga muvaffaq bo'ldi va tinglovchilar olqishlariga sazovor bo'ldi. U o'z jamoasining dasturini o'zbek kompozitorlari va bastakorlari qo'shiqlari bilan bir qatorda o'zi bastalagan qo'shiqlar bilan ham boyitib kelmoqda. Shuning natijasida u turli mavzularda syuita, kantata, jo'rsiz qo'shiqlar yaratdi. Masalan, jo'rsiz xor uchun yozgan asarlari ichida "Qor yog'ar", "Qari chumchuq chaqimchi", "Yalpiz", "Dorboz", "Gullola", "Maysa", fortepiano jo'rliqidagi asarlari: "Dadamlarga o'xshasam", "Temir tersak", "O'ynadik, hech to'ymadik", "Islom bobo", "Oy Vatanim", "Qo'zichoq", "Yeng chiroyli oy", "Gul fasli", "Nurli avlod", "Oymomojon rom bo'ldi", "Sumalak", "Toy bola" va ko'p qismli xor asarlaridan: "Chittigul" vokal-xoreografik syuitasi, "Bu gulshan soz ekansan" bolalar xalq termalari asosida qayta ishlagan vokal-xoreografik syuitasi hamda "Assalom, hayot" kantatasi shular jumlasidandir.

Shermat Yormatov 1982-yil "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", 1995-yil "Sog'lom avlod uchun" ordeni, 1996-yili "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

8. KURS ISHLARI MAVZULARI

1. Havaskor xor jamoalarida musiqa savodxonligini tarkib toptirish ustida ishlash.
2. Havaskor xor jamoalari tashkil etish muammolari.
3. Badiiy jamoalarda repertuar mezonlari.
4. Zamonaviy bolalar vokal jamoalarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Zamonaviy kompozitorlar ijodida bolalar uchun qo'shiqlarning o'rni.
6. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida zamonaviy qo'shiqlarning ahamiyati.
7. SH.Yormatovning ijodiy portreti.
8. N.Norho'jayev – bolalarning sevimli kompozitori.
9. M. Burhonov – O'zbekistonda a kapella janrining asoschisi.
10. M.Bafoyevning xor ijodi.
11. Havaskor xor jamoalarida vokal-xor malakalari ustida ishlash xususiyatlari.
12. B.H.Umidjonov – xor san'atining yirik namoyondasi.
13. 1990–2010 yillarda yaratilgan xor asarlari mavzulari ko'lami.
14. Ko'povozli kuylashni shakllantirish metodlari.
15. "Bulbulcha" xori va uning O'zbekiston madaniyatidagi o'rni.
16. O'zbekistonda xor san'atining rivojlanish yoli.
17. Keksa avlod kompozitorlarining xor asarlarida ijrochilik xususiyatlari.
18. O'zbekiston kompozitorlari ijodida bolalar xor asarlari.
19. F.Alimov ijodida xor asarlari.
20. Zamonaviy O'zbekiston kompozitorlari ijodida xor asarlarining o'rni.